

Tashnazarov Djasur Yuldashevich

796  
T29

**SPORT  
PEDAGOGIK  
MAHORATINI  
OSHIRISH**

(YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA)  
2-JILD



**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI JİSMONİY TARBIYA VA  
SPORT DAVLAT QO'MITASI**

**O'ZBEKİSTON DAVLAT JİSMONİY TARBIYA VA  
SPORT UNIVERSİTETİ**

**Tashnazarov D.Yu**

# **SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH**

**(YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA)  
2-JILD**

**“Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligi”**

**O'quv qo'llanma**

**«Sano-standart» nashriyoti  
Toshkent – 2019**

**UO'K: 796.82(075.8)**

**KBK: 75.715ya73**

**T 29**

**T 29 Tashnazarov D.Yu.**

**Sport pedagogik mahoratini oshirish** (yunon-rim kurashi bo'yicha) 2-jild / o'quv qo'llanma: – Toshkent. «Sano-standart» nashriyoti, 2019 – 224 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada yosh yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligi bo'yicha zamonaviy bilim va tajribalar umumlashtirilgan holda shu qatorda yunon-rim kurash turi bo'yicha BO'SM, ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari maktablari (IBO'OZM) sharoitlarida kurashchilarning ko'p yillik tayyorlash maqsadlarini samarali amalga oshirishda uslublar va o'qitish metodikalari, mashg'ulotlar va o'quv-mashqlari jarayonlarini tashkil qilish masalalari nazariy va amaliy o'r ganilgan. O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti kurash turlarida ta'lim oluvchi talabalar va respublikamizdagi jismoniy madaniyat yo'nalishidagi ta'lim oluvchi talabalar, o'qituvchi murabbiylar uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

*dotsent Tastanov N.A., – O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi mudiri;*

*p.f.n., dotsent, Gapparov X.Z., – O'zbekiston Respublikasi MG HTI “Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi” kafedrasi dotsenti.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 20-iyuldagisi 654-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat etildi.*

**UO'K: 796.82(075.8)**

**KBK: 75.715ya73**

**ISBN: 978-9943-5912-9-5**

**© Tashnazarov D.Yu.  
© “Sano-standart”, 2019**

**Kalit so'zlar**

**UJT** – Urumumi jismoniy tayyorgarlik

**MJT** – Maxsus jismoniy tayyorgarlik

**TTT** – Texnik-taktik tayyorgarlik

**OHH** – Oddiy hujum harakati

**MHH** – Murakkab hujum harakatlari

**BO'SM** – Bolalar-o'smirlar sport maktablari

**IBO'OZM** – Ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar olimpiya zaxiralari maktablari

**OSMM** – Oliy sport mahorati maktablari

**OZK** – Olimpiya zaxiralari kolleji

**SIMI** – Sportga ixtisoslashgan matab-internatlari

**YaST** – Yagona sport tasnifi

**SUN** – Sport ustasi nomzodi

**SU** – Sport ustasi.

## KIRISH

Mazkur ish yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarliklari bo'yicha o'quv qo'llanma bo'lib, u jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashning amaldagi o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Qo'llanma asosan yunon-rim kurashi bo'yicha ixtisoslashgan jismoniy tarbiya universiteti va fakultetlaridagi talabalar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga u malaka oshirish fakultetlari tinglovchilari, magistrantlar, shuningdek, murabbiylar uchun foydali bo'lishi mumkin. O'quv qo'llanma turli toifadagi yunon-rim kurashchilarini sport mashg'ulotlari zamonaviy nazariy va amaliy asoslarini o'quvchi uchun tushunarli shaklda berilgan.

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlash jarayonida texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish bilan yonma-yon shaxs xususiyatlari hamda shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish juda muhimdir. Bunda mashqlarni bajarishga bir maqsadni ko'zlab yo'naltirish muhimdir. Kurashching texnik-taktik harakatlari samaradorligi ko'p jihatdan diqqatning rivojlanganligi: uning hajmi, shiddati, mustahkamligi, taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi bilan belgilanadi. Kurashchi raqibning murakkab va tez o'zgaruvchan harakatlarida turli texnik-taktik harakatlarni ilg'ab oladi. Diqqatning bu xususiyati uning hajmi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga kurashchi eng asosiy qismlarga diqqatni jamlashni o'rganishi lozim. Bu diqqatning shiddatiga taalluqlidir, har xil chalg'itishlar va aldamchi omillar ta'siriga qarshi turish malakasi diqqatning mustahkamligidan dalolat beradi. Biroq, kurashda diqqatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi, Ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta obyektlarni (qo'llar, oyoqlar, gavda harakatlari, raqibning joy o'zgartirish tezligi va h.k.) nazorat qilish hamda diqqatni tez biridan ikkinchisiga o'zgartirish qobiliyati hisoblanadi. Bunday malakaga erishgan bazi bir sportchilarimiz jahon, Osiyo musobaqalarda nufuzli o'rnlarni egallab kelishmoqda, shu jumladan Rustem Kazakov, Komil Fatkulin, Dilshod Aripov, Aleksandr Doktoroshvili, Ildar Xafizov, Dilshod Turdiyev,

Islomjon Bahromov, Elmurat Tasmuradov, Bilan Nalgiyev, Rustam Assakalov, Jahongir Turdiyev, Mo'minjon Abdullayevlar.

Mazkur o'quv qo'llanma sportchilarni tarbiyalab musobaqalarga chiqarish yurtimizda rivojlanishiga nazariy va amaliy o'z hissalarini qo'shib kelayotgan A.Q.Atayev, F.A.Kerimov, N.A.Tastanov kabilar ustozlarimiz ishlariga tayangan

## I BOB. YUNON-RIM KURASHINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

Yunon-rim kurashi eng qadimgi sport turlaridan biri bo‘lib, juda qiziqarli va yorqin tarixga ega. Qadimgi inson ko‘p ming yillar davomida yashash uchun kurashishda hujum va himoyalanish harakatlaridan to‘zamonaviy kurash turlari usullariga yaqin bo‘lgan, moslashtirilgan harakatlargacha qiyin yo‘lni bosib o‘tgan.

O‘troq hayot boshlanishi bilan xalqlarning jismoniy tarbiyasida jangovar tayyorgarlikka xos bo‘lgan va birinchi navbatda har xil yakkakurash turlari oldingi qatorga qo‘ylgan. Qadimgi insonning muntazam yashash joylarida ov qilish sahnalari bilan bir qatorda kurashayotgan kishilarning tasviri paydo bo‘la boshladi. Misr ehromlari devorlarida ko‘rinishiga qaraganda mukammal texnikaga ega bo‘lgan kurashchilarning tasvirlari topilgan. Taxminan e.a. 2800-yilda tayyorlangan bronzali haykal belbog‘li kurashning eng qadimgi yodgorligi hisoblanadi. Uning asosida raqibni chirmab olishning og‘riq beruvchi usul yotadi.

Qadimgi Hindistonda har xil yakkakurash turlari keng tarqalgan. Mahalliy aholi sog‘lomlashtirish gimnastikasi, raqs va qurolsiz o‘z-o‘zini himoya qilish sohasida qimmatbaho an‘analarni ehtiyyotlik bilan saqlab kelgan. Qadimiy hind qo‘lyozmalarida bellashuv va yakkakurashning shunday shakllari haqida ta‘kidlanadiki, bunday bellashuvlarning uslubi raqibga qo‘l yoki oyoq bilan qo‘latuvchi qattiq zarba berish, shuningdek bo‘g‘ish usullarini qo‘llash bilan tavsiflanadi.

Qadimgi Xitoyda jismoniy tarbiyaning birinchi paydo bo‘lishi e.a. 3 ming yillikning boshiga to‘g‘ri keladi. Taxminan e.a. 2698-yilda “KUNFU” deb nomlangan kitob yozilgan, unda birinchi bor xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan davolovchi gimnastika, massaj, kasalliklardan forig‘ etuvchi raqlar, shuningdek jangovar raqlarning tasnifiy ta‘rifari tizimlashtirilgan.

Shuni ta‘kidlash muhimki, qadimgi Xitoy jamiyat, o‘sha davrning falsafiy qarashlariga asoslanib, o‘sib kelayotgan avlodning axloqiy tarbiyasiga, yoshlarning irodasi hamda xarakterini shakllantirishga katta e’tibor qaratgan. Agar bellashuv

jarayonida biron-bir kurashchi qo‘polik qilsa yoki qoida buzsa, unda hakamlar va tomoshabinlar bu kurashchini “syao szan” deb qoralaganlar. Bu so‘z jamiyatning yuqori darajada nafratlanishini anglatadi.

Hamma davrlar hamda xalqlarning dostonlari kurashning jismoniy tarbiyaning muhim elementi, jismoniy mashqlarning eng ommabop xalq turlari sifatida keng tarqalganligi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Jismoniy tarbiya va kurashning rivojlanishida qadimgi Yunoniston alohida o‘rin tutadi. Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya tizimi yaratildi va u hozircha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Maxsus maktablarda tajribali o‘qituvchilar kurash, shuningdek qisqa masofalarga yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va disk uloqtirishlardan tashkil topgan dastur bo‘yicha bolalar tayyorgarligiga alohida e’tibor bergenlar. Shu bilan birga shug‘ullanuvchilar qo‘l jangini olib borish, toshlar uloqtirish malakasini egallab borganlar.

Qadimgi Yunonistondagi kurash texnikasi va uning rivojlanishi to‘g‘risida ko‘p sonli haykallar, amforalar hamda vazalardagi tasvirlar, qadimiy shoirlar asarlari, tarixchilar, faylasuflar – Gomer, Pindar, Platon va boshq. ishlari guvohlik beradi. Masalan, Gomerning “Iliada”sida (eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda) Ayaks va Odissey o‘rtasidagi bellashuv shunday bayon etiladi: “Kurashchilar belbog‘larini taqib, maydon o‘rtasiga chiqdilar hamda qo‘llari bilan mahkam chirmashib, bir-birlarini o‘rab oldilar. Kuchli quchoqlashish ostida qahramonlarning gavdalari qirsilladi, zo‘riqdi va ulardan ter quyila boshladi. Kurashchilar gavdasidan qonlar chizib chiqa boshladi, lekin ular bellashishni davom ettiraverdilar”.

Kurashning boshqa jismoniy mashqlar bilan bir qatorda san‘atga tengiashtirilishi o‘sha davrning o‘ziga xos xususiyati edi. Kurash bilan o‘sha davrning yirik vakillari – olimlar, shoirlar, davlat arboblari, sarkardalar shug‘ullanganlar.

Qadiungi Yunoniston Olimpiya o‘yinlari vataniga aylandi (eramizdan avvalgi 766 y.). Birinchi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kurash mustaqil sport turi (eramizdan avvalgi 708 y.), shuningdek

maxsus beshkurashning tarkibiy qismi sifatida (eramizdan avvalgi 708 y.dan boshlab) kiritilgan.

O'sha davrdagi ko'pgina taniqli arboblar – matematik Pifagor, faylasuf Evripid va Platon, Pindar hamda boshqalar Olimpiya o'yinlari g'oliblari bo'lishgan.

Yunonlarning har tomonlama jismoniy tarbiyalash tizimi o'rmini qadimgi Rimdagi aniq ifodalangan harbiy-jismoniy tarbiya egalladi. Bunda jangovar o'yinlar va safdag'i tayyorgarlikka katta e'tibor qaratildi. Gladiatorlar jangi va jangovar aravachalarda musobaqalashish kabi tomoshabop o'yinlar katta o'rinni egallay boshladi.

Yevropada feodal tuzumning rivojlanish davrida (XI-XV asrlar) ritsarlar jismoniy tarbiyasi tizimi paydo bo'ldi. Har xil yakkakurash turlari (jumladan quolsiz) uning ajralmas qismiga aylandi.

Talxofferning (1443–1467) kurash bo'yicha birinchi kitoblaridan biridagi o'quv rasmlarida tasvirlangan harakatlar va quolsiz o'z-o'zini himoya qilish usullari (ular Yaponiya samuraylarining "djiu-djitsu" kurashi texnikasini eslatadi) shu haqda dalolat beradiki, XV asrdan boshlab ritsarlarning juftlik harbiy mashqlari oddiy xalqning bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan an'anaviy kurash shakllaridan muhim darajada farq qilgan. O'rta asrlar yilnomasi, qo'lyozmalaridan ma'lumki, hamma yarmarkalar, to'ylar, diniy bayramlarda boshqa ko'ngilochar tomoshalar bilan bir qatorda, albatta, kurash musobaqlari o'tkazilgan.

Yunonlar jismoniy tarbiya tizimiga qaytish "Uyg'onish" davriga xosdir. Ushbu davrning ideali – bu har tomonlama rivojlangan, hayotning hamma sohalarida yuqori natijalarga erisha oladigan inson obrazidir. Buning natijasida italiyalik va nemis insonparvarlari yunonlar gimnastikasiga yana bir bor murojaat qilganlar. Italiyalik vrach X.Merkurialis o'zining "Gimnastika san'ati to'g'risida" deb nomlangan olti jildlik kitobida (1569-y.) qadimiy gimnastika ta'rifini bayon etgan. Shu davrning o'zida Fabian fon Auersvaldning "Kurash san'ati" (1539-y.) kitobi paydo bo'ldi.

XVIII-XIX asrlarda miiliylik xususiyati yorqin ifodalangan jismoniy tarbiya tizimlari yuzaga kela boshladi. Ulardan nemis jismoniy tarbiya tizimi Guni-Muts (1759–1838), Vits (1763–1836) va Yan (1778–1852); shved jismoniy tarbiya tizimi – Ling (1776–1839); chek jismoniy tarbiya tizimi – Tirsh (1832–1884); daniya jismoniy tarbiya tizimi – Naxtegall (1777–1847); fransuz jismoniy tarbiya tizimi – F.Amoros (1770–1847) va boshq. tomonidan yaratilgan. Hamma milliy tizimlar tamoyillari va maqsadlari turlicha bo'lishiga qaramasdan, boshqa jismoniy mashqlar bilan bir qatorda xalq orasida eng ommabop bo'lgan kurash, qilichbozlik, yugurish, suzish, o'yinlarni o'z ichiga olgan.

XVIII-XIX asrlarda Yevropada, ayniqsa, Fransiyada kurash bilan qiziqish qayta tiklana boshlandi. Aholi o'rtasida kurashga bo'lgan qiziqishning uyg'onishi ko'p sonli professional kurashchilarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ular sirklarda va yarmarkalarda o'z san'atlarini namoyish qilardilar. Muvaffaqiyatlar shunga yordam berdiki, shaharlarda alohida kurashchilar guruhlari paydo bo'la boshladi. Natijada professional kurashchilar o'rtasida shaxsiy birinchiliklar va Fransiya shaharlari, keyinchalik esa jahon championatlari o'tkazila boshlandi. Championatlarning yaxshi tashkil etilishi, ularning keng targ'ib qilinishi professional kurashga katta muvaffaqiyat keltirdi.

Asta-sekin fransuzlar kurashi boshqa Yevropa davlatlariga kirib bordi. Kurash keng ommaviylikka erishib borishi va geografik jihatdan tarqalishi bilan bir vaqtida texnik tomonдан ham boyib bordi.

Qo'pol kurashchilarining bellashuvlari tomoshabinlar mehrni qozona olmadni, texnika, chaqqonlik va go'zallik yanada qadrlandi.

XIX asr o'rtasida Parijda birinchi ixtisoslashgan kurash maydonlari ochildi, shuning uchun 1848-yil Fransiyada professional kurash rivojlanishining boshlanishi hisoblanadi. Bu yerga turli davlatlardan – Germaniya, Turkiya, Italiya, Rossiya, Shvetsiyadan turli turnirlar va championatlarda qatnashish uchun kurashchilar kelganlar. Shu tariqa bu sport turi xalqaro maydonda tanildi. Bu kurash turi Yevropaning hamma davlatlarida "fransuzcha kurash" nomi bilan keng tarqaldi. Kurashning

qadimgi Yunoniston, qadimgi Rimda rivojlanganligini hisobga olgan holda fransuzcha kurashga “Yunon-rim” kurashi nomi berildi. U bizning mamlakatimizda uzoq vaqt “klassik kurash” deb atab kelingan.

Olimpiya o‘yinlari tiklanishi bilan 1896-yildagi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kurash ham kiritildi. 1898-yildan boshlab Yevropa championati, 1904-yildan esa jahon championatlari o‘tkazib kelinadi.

1912-yilda havaskorlar o‘rtasida kurash musobaqalarini kuzatish va o‘tkazish bo‘yicha Xalqaro qo‘mita tuzildi.

1921-yilda mazkur qo‘mita Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasiga (FILA) aylantirildi. U hozirda ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. FILA jahondagi eng nufuzli va yirik sport tashkiloti hisoblanadi. Hozirgi paytda u yuzdan ortiq sport kurashi bo‘yicha milliy federatsiyalarni birlashtirgan. 2014-yilga kelib (FILA) – (UWW) o‘zgartirildi. UWW – xalqaro kurashlar assotsiatsiyasi.

O‘zbek kurash maktabi tarbiyalanuvchilari xalqaro maydonda katta yutuqlarga erishganlar. Rustam Kazakov 1972-yildagi Olimpiya o‘yinlari va 1969-yildagi jahon championatida g‘alaba qozongan, Aleksandr Doktorashvili 2004-yilda Olimpiya O‘yinlari championligini qo‘lga kiritgan, Kamil Fatkulov jahon championatlarining ko‘p marta sovrindori bo‘lgan, Dilshod Aripov 1999-yilda jahon championi bo‘lgan.<sup>1</sup> Rustam Assakalov – 2013–2015-yillarda Osiyo championatida oltin medalga egalik qilgan, 2014-yilda Osiyo championatida kumush medal sohibi, 2014-yilda Osiyo o‘yinlari g‘olib, Elmurat Tasmurodov – 2012-yilda Osiyo championatida kumush medal sovrindori, 2013–2014–2015-yillarda Osiyo championati g‘olib, 2013–2014-yilda jahon championatida bronza medal sovrindori, 2016-yilgi Olimpiya o‘yinlari bronza medali sovrindori.

## 1.1. Yunon-rim kurashi murabbiylarining kasb-pedagogik faoliyati

Trenerning kasb-pedagogik faoliyati ko‘pqirrali bo‘lib, bir qator yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan, ular orasida quydagilarni ta’kidlash zarur: o‘quv-tarbiyaviy ishlar, sportchilarining mashg‘ulot va musobaqalardagi faoliyatini boshqarish, ular orasidan iqtidorlilarini tanlab olish, ilmiy-uslubiy faoliyat bilan shug‘ullanish, musobaqalarni tashkillash va o‘tkazish, mashg‘ulot va musobaqalarni moddiy-texnik ta’minlash, shaxsiy malakaviy mahoratni oshirib borish.

Murabbiyning eng muhim funksiyalaridan biri – bu o‘quv-tarbiyaviy faoliyatdir. U tanlangan sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni texnik-taktik xatti-harakatlarga o‘rgata bilihni, jismoniy va ma’naviy-axloqiy rivojlan-tirishni, har tomonlama barkamol insonni shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘qitish funksiyasi texnik harakatlarni a’lo darajada, namunaviy ko‘rsata bilishni, mashqni to‘g‘ri tushuntirishni, mashqni bajarish texnikasida yo‘l qo‘yilgan xatoni va uning sababini aniqlab tuzatishni, kuzatish uchun joyni to‘g‘ri tanlashni, o‘quvchi bajarayotgan mashqni birgalikda tahlil qilishni, texnik usul va yakunlovchi harakat uchun tayyorlantiruvchi harakatlarni tanlay bilishni nazarda tutadi.

Yunon-rim kurashchilarida jismoniy va axloqiy sifatlarni, irodani tarbiyalashda murabbiy mashg‘ulotlar metodik usullarni differensatsiyalashni biliishi, mashq yuklamalarini normalash-tirishni, shug‘ullanuvchilarlarning individual xususiyatlari, ularning funksional tayyorgarligi, jismoniy va ruhiy rivojlanishidan kelib chiqib, kerakli vosita va uslublar tanlay bilishi kerak.

Sportchilarining tayyorgarligini to‘laqonli boshqarish uchun trener sportchilar yashayotgan, shug‘ullanayotgan va musobaqa-lashayotgan muhit haqida ma’lumot to‘plashni va ularni tahlil qilishni biliishi; sporchlarning tayyorlanish strategiyasi haqida qaror qabul qilish, ularning tayyorlanish rejasi va dasturini tuzishni, buning uchun tayyorlangan dastur va rejalarini nazorat

<sup>1</sup> Tasatnov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2015.

qilishni; zarur bo‘lganda mashg‘ulot jarayoniga o‘zgartirishlar kiritishni bilishi kerak.

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlash dasturi va rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish trenerning mashg‘ulot jarayonini mashg‘ulotlarda, ish kuni, makrotsikl, mezotsikl va mikrotsikl (davr)da ratsional amalga oshirish, shuningdek, pedagogik, tibbiy-biologik va psixologik vosita va uslublarni qayta tiklanish tadbirlarini to‘g‘ri qo‘llash mahoratiga bog‘liq.

Bo‘lajak musobaqa rejasini ishlab chiqishda trener shogirdining raqibi ustidan g‘alaba qozonishi uchun eng samarali taktik harakatlarni belgilash maqsadida raqib to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Musobaqa faoliyatini nazorat qilish va keyinchalik uni tahlil qilish u yoki bu sportchi tayyorgarligidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Yunon-rim kurashchilarining musobaqa faoliyatini boshqarish malakasi bellashuvlar davomida turli texnik-taktik vaziyatlarni kuzatish va tahlil qilish, shuningdek aniq ko‘rsatmalar tarzida kerakli qarorlarni qabul qilish malakasidan hosil bo‘ladi. Shu qatorda ular o‘z texnik va taktik mahoratlarini oshirib borishlari ko‘zda tutiladi, har bir bellashuvni tahlil qilishda yunon-rim kurashchilari o‘zlariga yangi malakalar va tajribalarni egallayotganlarini bilishlari kerak.

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlash bo‘yicha ko‘p qirrali faoliyatda saralash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. U murabbiyning bilim va pedagogik tajribasi asosida iqtidorli sportchilarni aniqlash uchun turli saralash mezonlaridan foydalanish malakasi bilan belgilanadi. Murabbiy saralash vaqtida nafaqat hissiyotiga, balki kurashchining porloq kelajagini yarata olishiga o‘zida ishonch bo‘lishi kerak. Agar u o‘z vazifasini to‘liq bajara olmasligini bilsa, yoki ikki kurashchidan qay birini tanlay olmasa, murabbiy boshqa o‘zidan malakali murabbiylar bilan maslahatlashishi, kelayotgan nufuzli musobaqaga yetarli mahoratga ega bo‘lgan kurashchini tanlashi lozim.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yuqori malakali mutaxassis o‘z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi lozim.

Buning uchun u ilmiy-uslubiy faoliyat olib borish malakasini o‘zlashtirishi, tadqiqot vazifalarini oldiga qo‘ya bilishi, kerakli tadqiqot uslublari va tadqiqot usullarini tanlay olishi, oldingi ma’lumotlarni tahlil qila olishi kerak.

Amaliy faoliyatda trener turli musobaqalarni tashkillash va o‘tkazishni bilishi kerak. Buning uchun u sport turi qoidalarini bilishi, hakamlik vazifa-larini bajara olishi va musobaqalarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlarni tayyorlay olishi kerak.

Mashg‘ulotlar jarayonini yuqori darajada tashkillashtirish uchun trenerning sport zalini moddiy-texnik jihozlashi, sport zallari va tiklanish markazini asbob-anjomlar bilan jihozlash malakasi katta ahamiyatga ega.

Yunon-rim kurashi murabbiysining ko‘p qirrali kasb faoliyati jarayonida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarning samarali amalga oshirilishi uning o‘z kasbiga bo‘lgan muhabbatи va sadoqati, o‘z mutaxassisligini mukammal darajada bilishi, pedagogik qobilyat hamda yuksak shaxsiy sifatlari darajasi bilan aniqlanadi. Shu qatorda murabbiy chuqur ruhiy holatlardagi keskin harakatlari, shogirdlarining bellashuv va musobaqa oldidagi o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish qobilyatlari bilan aniqlanadi.

## 1.2. Yunon-rim kurashchilarini sport maktablarida tayyorlashning tashkiliy-uslubiy xususiyatlari

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlash maxsus sport maktablarida olib borilib, ular bolalar-o‘smirlar sport maktablari (BO‘SM), ixtisoslashgan bolalar-o‘smirlar olimpiya zaxiralari maktablar (IBO‘OZM), oly sport mahorati maktablari (OSMM), shuningdek, sportga ixtisoslashgan maktab-internatlar va yunon-rim to‘garaklariga bo‘linadi.

Sport maktablaridagi ishlar muayyan bir aniq vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan. BO‘SM sportchilarning sog‘ligini mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlantirishni ta’minlagan holda yuqori malakali o‘smir sportchilarni tayyorlashni amalga oshiradi; shug‘ullanuvchilar orasidan jamoatchi yo‘riqchilar va hakamlarni tayyorlaydi; uslubiy markaz

hisoblanadi hamda umumta'lim maktablariga sinfdan tashqari ommaviy sport ishlarini tashkillashtirishda yordam ko'rsatadi. Sport bilan shug'ullanishning o'zi yosh o'sib kelayotgan avlodni boshqa bekorchi ishlardan beri olib yurishning eng maqbul yo'lidir. Buni tushungan ota-onalar o'z farzand-larini sportga borishlarini ta'minlashmoqda, shu borada o'g'il bolalarni yunon-rim kurashiga berishlari, uni kelajakda qat'iyatli, mard, jasur, qo'rmas va qudratli kuch sohibi bo'lishlarini istashadi. Kelajakda Vatan himoyasiga shu farzandlari chiqishini ular yaxshi bilishadi.

Ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar olimpiya zaxiralari maktablari oldida yuqorida aytilgan vazifalardan tashqari yana bitta vazifa: respublika terma jamoalarini to'ldirib borish vazifasi turadi. Bu vazifa IBO'OZM uchun asosiy hisoblanadi va ularning butun faoliyatini belgilab beradi. Bu dargohda ularni yunon-rim kurashi tarixi va texnik-taktik mahoratlari oshishiga to'liq imkoniyatlar bor bo'lib, faqat ulardan talab – murabbiylari bergen bilimlarni va malakalarni to'la-to'kis egallashlaridir. Shu borada ular o'z murabbiylari bilan bo'lgan har bir uchrashuvda turli yangiliklarga ega bo'lishlari kerak.

#### ***OSMM vazifalari quydagilardan iborat:***

– xalqaro toifadagi sport ustalari, sport ustalari, respublika terma jamoalariga nomzodlarni tayyorlash; sport mashg'ulotlarining ilg'or uslublarini ishlab chiqish, takomillashtirish va murabbiy-o'qituvchilar tarkibining ish amaliyotiga tatbiq qilish ko'zda tutiladi.

Har bir musobaqa yangi bilimlarni, yangi malakalarni shakllanishiga sababchidir, lekin bundan unumli foydalanish kerak, xolos.

BO'SM, IBO'OZM, OSMM va boshqa sport tashkilotlarining o'quv-mashg'ulotlar faoliyati izchillikni amalga oshirish; shahar, viloyat va respublikada o'quv-mashg'ulotlar ishiga uslubiy rahbarlik qilishdan iborat. Sportchilarning sport maktablarida muntazam shug'ullanishi ularning katta vaqt rezervini talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida ixtisoslashgan maktab-internatlar tashkil etiladi.

OSMMning asosiy vazifasi – bиргаликда yashash sharoitida respublika terma jamoasi uchun yuqori malakali sportchilarni tayyorlashdan iborat.

#### **1.3. Yunon-rim kurash turi bo'yicha ta'lif tizimining tashkil qilinishi**

Ushbu qismda quyidagilar ochib beriladi:

- vaqt ni o'quv yillari bo'yicha tayyorgarlikning asosiy qismlariga taqsimlash;
- o'quv rejasini sxemasi.

**Tavsiyalar.** O'quv rejasini tuzish paytida bir haftalik o'quvmashq ishlari tartibi (rejimi) 46 haftalik bevosita sport maktabi sharoitidagi mashg'ulotlar va 6 haftalik sport-sog'lomlashtirish lageridagi mashg'ulotlar hamda o'quvchi-larning faol dam olish davrlaridagi individual rejalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Soatlarning umumiylilik yillik hajmi oshishi bilan tayyorgarlikning har xil turlari uchun vaqt nisbati o'zgarib boradi. Yildan-yilga sport-texnik, maxsus jismoniy, taktik va integral tayyorgarlik nagruzkalarining solishtirma og'irliklari o'sib boradi.

Sekin-asta UJTga qaratilgan nagruzkalar hajmi kamayib boradi va keyinchalik stabil (barqaror) holatga keladi. Jadvalni tuzish paytida turli sport turlarida o'quv yillari bo'yicha jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik vositalarining taxminiyl nisbatidan (%) foydalanish mumkin.

O'quv yillari bo'yicha o'quv rejasida vaqt ni tayyorgarlikning asosiy qismlariga taqsimlash ko'p yillik mashg'ulotlarning konkret vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv-mashq jarayonining vazifalari va asosiy yo'nalishlari:

- salomatlikni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni oshirish;
- jismoniy mashqlarni bajarish texnikasi asoslarini egallah;
- har xil sport turlari mashg'ulotlari asosida har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallah;
- bolalarda iste'dod va qobiliyatlarni ochish;
- sport bilan shug'ullanishga turg'un qiziqish uyg'otish;
- sport xarakteri xususiyatlarini tarbiyalash.

Vazifalar va asosiy yo‘nalishlar:

- har tomonlama jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini oshirish;
- tanlangan sport turining texnika asoslarini egallah;
- har xil sport turlari bo‘yicha musobaqlarda qatnashish orqali musobaqa tajribasiga ega bo‘lish;
- sport mutaxassisligiga aniqlik kiritish.

*O‘quv-mashq bosqichi (2 o‘quv yilidan ortiq – chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar bosqichi).* Mashg‘ulotlarning vazifalari va asosiy yo‘nalishlari:

- texnikani mukammallashtirish;
- maxsus jismoniy xususiyatlarni rivojlantrish;
- funksional tayyorgarlik darajasini oshirish;
- belgilangan mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarini egallah;
- musobaqa tajribasini to‘plash.

***Yunon-rim kurashida takomillashuv bosqichi.***

Tayyorgarlikning vazifalari va asosiy yo‘nalishlari:

- texnikani takomillashtirish;
- maxsus jismoniy xususiyatlarni rivojlantrish;
- yuqori mashg‘ulot yuklamalarini egallah;
- dastlabki katta yutuqlar zonasiga xos bo‘lgan (SUN va SU) sport natijalariga erishish.

#### **1.4. Yunon-rim kurashida yillik tayyorgarlik siklining rejasi**

Ushbu qismda quydagilar ochib beriladi:

- o‘quv dasturlarining tarkibi va haftalik sikl bo‘yicha o‘qishning ketma-ketligi;
- tayyorgarlikning asosiy parametrlari hajmi;
- yillik sikl bosqichlari bo‘yicha umumiyy va maxsus jismoniy, sport-texnik va taktik tayyorgarlikni nazorat qilish turlari.

Yillik siklining reja-sxemasi quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- yillik siklining tuzulishi (davrlar, bosqichlar va mezotsikllarning nomlanishi va muddati);
- tayyorgarlik bosqichlari bo‘yicha asosiy masalalar;

– mashg‘ulotning asosiy vositalari hajmini haftalarga taqsimlash (46 hafta);

- musobaqalarni (o‘quv, nazorat, saralash, asosiy) o‘tkazish muddatlari;

– tayyorgarlik bosqichlari bo‘yicha nazorat sinovlarining majmuasi va pedagogik nazorat o‘tkazishning muddatlari;

- chuqurlashtirilgan tekshirish o‘tkazishning muddatlari;

– tiklanish vositalarining turlari, ularni tayyorgarlikning alohida haftalari va bosqichlariga yo‘naltirilganligi.

***Tavsiyalar:*** sport maktablari shug‘ulanuvchilarining mashg‘ulotlar yillik sikli quydagilar orqali belgilanadi:

- yillik siklga belgilangan vazifalar;
- sport formasining rivojlanishi va shakllanishi qonunlari;
- alohida sport turida qabul qilingan davrlarga bo‘linish;
- sport musobaqlari jadvali va tizimi, shu jumladan, ularning asosiyalarining o‘tkazilish muddatlari.

Tayyorgarlik yillik siklining reja-sxemasi yilni oy va haftalarga bo‘lgan holda kalender jadvali asosida ishlab chiqiladi. Uning mohiyati – o‘quv-mashq jarayonini tashkillashtirish va tarkibiy qismlarining asosiy miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini, nazorat va tiklanish vositalari va metodlarini kompleks rejlashtirish. Reja-sxema – tayyorgarlikning muayyan bir bosqichida mashg‘ulotni tuzish bo‘yicha aniq ifodalangan va yaqqol ko‘rinadigan tashkiliy-metodik konsepsiyanı ifodalashi kerak.<sup>2</sup>

***Yunon-rim kurashida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi***

Yunon-rim kurashida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘quv jarayonining davrlarga bo‘linishi shartli xarakterga ega, asosiy e’tibor asosan UJT vositalaridan foydalangan holda har tomonlama jismoniy va funksional tayyorgarlikka, shuningdek, texnik elementlar va ko‘nikmalarni egallahga qaratiladi. Mashg‘ulotning yillik sikli tugashi bilan, yosh yunon-rim kurashchilar har tomonlama jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha normativ talablarni bajarishlari kerak.

<sup>2</sup> Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyas

O'quv-mashq bosqichida (2 o'quv yilgacha) yillik sikl tayyorgarlik va musobaqa davrlarini o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, funksional imkoniyatlar darajasini oshirish, maxsus jismoniy tayyorgarlik elementlariga ega bo'lgan vositalarni qo'shish, texnik-taktik ko'nikma va usullar majmuasini yanada kengaytirishga qaratilishda davom ettiriladi. Yillik sikl yakunida yosh yunon-rim kurashchilar nazorat-o'tish normativlarini bajarishlari, musobaqalarda ishtirok etishlari shart.

O'quv-mashq bosqichida (2 o'quv yildan ortiq) mashg'ulotlarni rejalashtirishda tayyorgarlik jarayonida UJT vositalari orqali har tomonlama jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini yanada oshirish va buning asosida maxsus jismoniy ish qobiliyati darajasini oshirish, maxsus jismoniy xususiyatlarni rivojlantirish, texnik ko'nikmalarni egallash masalalari yechiladi.

Musobaqa davrida o'tgan yilgi sport natijalarini yaxshilash, shuningdek nazorat-o'tish normativlarini bajarish vazifalari qo'yiladi.

### ***Yunon-rim kurashida takomillashuvi bosqichi***

Yunon-rim kurashchilarining takomillashuvi bosqichida yillik siklning tuzilishi o'quvchilarning o'quv-mashq bosqichidagi tayyorgarligidek ko'rinishga ega. Sport takomillashuvi bosqichida o'quv-mashq ishlarining asosiy prinsipi asosida yosh yunon-rim kurashining individual o'ziga xosligini hisobga olish ixtisoslashtirilgan tayyorgarlikdir.

Yunon-rim kurashi maktablari shug'ulanuvchilarini tayyorgarligining yillik sikli asosiy musobaqalar jadvalini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Umumiyo soatlar sonining oshirilishi holatida maxsus mashq yuklamalarining hajmi va musobaqalar sonini oshirish, tiklanish tadbirlari uchun ajratiladigan vaqtini ko'paytirish lozim. Yosh yunon-rim kurashchilarining ish qobiliyatini tiklashda pedagogik vositalari bilan bir qatorda fizioterapevtik vositalarni ham qo'llash o'rni.

Yunon-rim kurashi maktabi shug'ulanuvchilarining ko'p yillik tayyorgarligi jarayonida yillik mashg'ulotlarning muayyan

bosqichlari uchun ishlab chiqilgan haftalik sikllar ishlatalishi mumkin (masalan: jalb etuvchi, hajmiy mashg'ulotlar, tezlik-kuch tayyorgarligi, texnik tayyorgarlik, musobaqalardan oldingi, yengillashtirilgan va h.k.).<sup>3</sup>

### **1.5. Yunon-rim kurashchilarini nazorat mashqlar kompleksi**

Dasturning ushbu qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi: yunon-rim kurashchilarining umumiy, maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini baholash uchun nazorat mashqlari kompleksi; test sinovlarini o'tkazish uchun tashkiliy ishlar va metodik ko'rsatmalar; tibbiy ko'rikning vazifalari, usullari va uni tashkillashtirish.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruuhlarida tibbiy ko'rikning asosiy vazifalari – bu salomatlik holatini nazorat qilish, gigiyenik ko'nikmalarni va shifokor ko'rsatmalarini og'ishmay bajarish odatini singdirish. O'quv yilining boshida va oxirgida o'quvchilar chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan o'tadilar.

Bularning barchasi salomatlik, jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik darajasining boshlang'ich darajasini belgilashga imkon beradi. Ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar bu ko'rsat-kichlarning harakatini nazorat qilish imkonini beradi, joriy tekshirishlar esa musobaqa va mashg'ulot yuklamalariga chidamlilikni nazorat qilish va davolash-profilaktika choralarini ko'rish imkonini beradi.

Pedagogik nazorat, shuningdek, mashg'ulot va musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini (mashq, mashg'ulot, musobaqa, start kunlarining soni), salomatlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, funksional imkoniyatlarning boshlang'ich holatini o'z ichiga oladi va ushbu ko'rsatkichlarning harakati (dinamikasi) shug'ullanuvchilarining shaxsiy kartalariga kiritiladi.<sup>4</sup>

<sup>3</sup> Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent-2017

<sup>4</sup> Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent-2017

## **Metodik ko'rsatmalar.**

Sport maktablari shug'ullanuvchilarini UJT bo'yicha testdan o'tkazish yiliga ikki marta: o'quv yilining boshida va oxirgida amalga oshiriladi. Testdan oldin chigal yozdi mashqlari o'tkaziladi.

UJT bo'yicha namunaviy nazorat mashqlari quyidagi testlarni o'z ichiga oladi:

– 30 metrga yugurish, stadion yo'lakchasi yoki yengil atletika manejida pixsiz (ship) yugurish oyoq kiyimida bajariladi. Har bir yugurishda ikkitadan kam bo'limgan o'quvchi ishtirok etadi, natijalar soniyaning birdan o'n qismigacha aniqlikda ro'yxatga olinadi. Faqat bitta imkoniyat beriladi;

– turgan joyidan sakrash sirpanchiq bo'limgan maydonda o'tkaziladi. Sinovdan o'tkazilayotgan o'quvchi start chizig'ida boshlang'ich holatni qabul qilib, oyoqlari parallel holda turadi va ikki oyog'i bilan itarilib, qo'llarini oldingga tashlab sakrashni amalga oshiradi. Yerga qo'nish ikki oyoqda, qattiq bo'limgan yuzaga amalga oshiriladi. O'lhash po'lat ruletka orqali start chizig'iga yaqin joylashgan belgi bo'yicha amalga oshiriladi, uchta imkoniyatdan eng yaxshisi santimetrlarda yoziladi;

– 3x10 m mokisimon yugurish maksimal tezlikda amalga oshiriladi. Sinovdan o'tkazilayotgan o'quvchi start chizig'ida ustunga yuzlangan holda turadi, buyruq berilgandan so'ng to'siqlarni aylanib o'tadi. Vaqt soniyaning birdan o'n qismigacha hisoblanadi. Faqat bitta imkoniyat beriladi;

– osilib turib yuqoridan ushlagan holda turnikda eng ko'p marta tortilish. Boshlang'ich holatda: turnikda osilib, qo'llar tirsak bo'g'imlarida oxirgigacha ochilgan. Tortilish o'quvchining iyagi turnikdan balandga ko'tarilgan holdagini hisobga olinadi. Har bir keyingi tortilish boshlang'ich holatdan amalga oshiriladi. Tos-son bo'g'ini va tizza bo'g'inidagi harakatlar va qo'llarni oldinma-keyin ishlatish ta'qilanganadi;

– yotgan holda qo'llarga tayanib qo'llarni yozish (otjimanie)  
– maksimal ko'p marta bajariladi. Boshlang'ich holat: gorizontal maydonda qo'llarga tayanib yotish. Qo'llar tirsak bo'g'inlarida to'liq ochilgan, tana va oyoqlar bir chiziq bo'yicha tekislangan. Ko'tarilish o'quvchi ko'kragini polga tekkizib boshlang'ich

holatga qaytgan holda hisobga olinadi. Mashqni bajarish paytida tos-son bo'g'inidagi harakatlar taqiqilanadi;

– 1000 metrga yugurish stadion yo'lagida o'tkaziladi. Yurishga, o'tishga ruxsat etiladi. Vaqt 0,1 s aniqlikda yoziladi.

Maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik darajasini nazorat qilish uchun nazorat mashqlar majmuasi sport turiga ko'ra belgilanadi. Ushbu testlarning tavsifi va test o'tkazish uchun tavsiyalarni keltirish lozim.<sup>5</sup>

## **1.6. Yunon-rimi kurashchilarining nazariy tayyorgarligi**

Ushbu qismda yunon-rim kurashchilarining o'quv tayyorgarlik va sport tayyorgarlik bosqichlari shug'ulanuvchilarining nazariy tayyorgarligining me'yoriy rejasini keltiriladi. U faqat eng zarur bilimlarni o'z ichiga olishi kerak.

Nazariy tayyorgarlik suhbat, leksiya tarzida va to'g'ridan-to'g'ri mashq davomida o'tkazilib, amaliy bilimlar elementi sifatida jismoniy, texnik-taktik, ruhiy va iroda tayyorgarligi bilan uzviy bog'liq. Nazariy bilimlar ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak: o'quvchilarda mashg'ulotlar davomida olgan bilimlaridan amalda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quv dasturi o'quv-mashq bosqichi va sport takomillashuvi bosqichlarida, butun o'qish davri davomida taqsimlanadi. Nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish paytida o'quvchilarning yoshlarini hisobga olish lozim bo'lib, dasturni tushunarli qilib bayon etish kerak. Muayyan ish sharoitlaridan kelib chiqqan holda nazariy tayyorgarlik rejasiga tuzatishlar kiritish mumkin. Dasturning ushbu qismida nazariy mashg'ulotlarning taxminiy namunaviy ro'yxati va ularning qisqacha tafsiloti keltiriladi.

Nazariy mashg'ulotlar rejasiga sport bilan shug'ullanganda shifokor nazorati va shaxsiy nazorat, jarohat va kasalliklarning oldini olish, tiklanish tadbirlari kabi mavzularni aks ettirish kerak.

<sup>5</sup> Tursunov Sh.S., Tashnazarov D.Yu. – Yunon-rim kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarligi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2017

## 1.7. Yunon-rim kurashi murabbiysi olib boradigan tarbiyaviy jarayon

Dasturning ushbu qismida turli o'quv guruhlari shug'ulanuvchilari bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlari va psixologik tayyorgarlikning asosiy vosita, usullari, turli shakllari aks ettirilishi kerak. Quyida BO'SM va IBO'OZSM shug'ulanuvchilarinining tarbiyaviy ishlari va psixologik tayyorgarliklari haqida namunaviy o'quv dasturi keltirilgan.

1-jadval

### BO'SM, IBO'OZSM, OSMM va OZKLari shug'ulanuvchilarini yillik tayyorgarlik sikli reja-sxemasi

| T/r | Tarkibi                             |         | Sentabr – iyul |
|-----|-------------------------------------|---------|----------------|
|     |                                     |         | 1–46 hafta     |
| 1   | Jismoniy tayyorgarlik               | UJT     |                |
|     |                                     | MJT     |                |
| 2   | Texnik-taktik tayyorgarlik          |         |                |
| 3   | Nazariy tayyorgarlik                |         |                |
| 4   | Nazorat sinovlari                   |         |                |
| 5   | Tibbiy-biologik nazorat             |         |                |
| 6   | Tiklanish tadbirlari                |         |                |
| 7   | Instrukturlik va hakamlik amaliyoti |         |                |
|     | O'quv                               |         |                |
| 8   | Musobaqalar                         | Nazorat |                |
|     |                                     | Asosiy  |                |

Jismoniy madaniyatning yosh yunon-rim kurashchilarini tarbiyalash vositasi sifatidagi rolining oshishi sport mакtablarida tarbiyaviy ishlarga bo'lgan talabni oshirishni taqozo etadi. Bunda yosh yunon-rim kurashchilar bilan ishlashning muhim shartlaridan biri – bu yosh yunon-rim kurashchining shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlarning hamjihatligi bo'lmish tarbiyaning ijtimoiy tizim, shu jumladan, oila, maktab, pedagoglar jamoasidir.

Yosh yunon-rim kurashchilar bilan ishlashning asosiy vazifasi – bu yuksak ma'naviy sifatlar, Vatanga sodiqlik, kollektivizm hissi, intizom va mehnatsevarlikka o'rgatish. Yosh yunon-rim kurashchilarining ma'naviy tarbiyasida bu sifatlarni

tarbiyalashga katta imkoniyat beruvchi sport faoliyati bevosita o'rнegallaydi.

Barcha tarbiyaviy ishlarda markaziy o'rinni trener-pedagog egallaydi, u o'z tarbiyaviy funksiyalarini faqat mashg'ulot va musobaqa paytida yunon-rim kurashchisi xulqini boshqarish bilan cheklab qo'ymaydi. Yosh yunon-rim kurashchilarini tarbiyalashning samarasi ko'p jihatdan trenerning kundalik sport tayyorgarligi va umumiy tarbiya vazifalarini uyg'unlashtira olishiga bog'liq.

2-jadval

### Nazariy tayyorgarlik rejasi

| T/r | Mavzuning nomi   | Mavzuning qisqacha tafsiloti   | O'quv guruhlari o'tkazish muddat-lari |
|-----|--|--|---------------------------------------|
| 1.  | Jismoniy madaniyat va sport – inson jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustah-kamlashining muhim vositasi. | Jismoniy madaniyat va sport haqida tushuncha. Jismoniy madaniyat shakllari. Jismoniy madaniyat -- mehnatsevariik, tartibilik, iroda va hayotda zarur bo'lgan qobiliyat va ko'nik-malarni tarbiyalovchi vosita. |                                       |
| 2.  | Shaxsiy va jamoaviy gigiyena   | Sanitariya va gigiyena haqida tushuncha.   |                                       |
| 3.  | Organizmni chiniqtirish  | Chiniqtirishning o'mi va asosiy qoidalari. Havo, suv, quyosh bilan chiniqtirish.   |                                       |
| 4.  | Tanlangan sport turining yaralishi va rivojlanishi   | Tanlangan sport turining tarixi.   |                                       |
| 5.  | Tanlangan sport turi bo'yicha mamlakatimizdan chiqqan taniqli yunon-rim kurashchilar                           | Olimpiada o'yinlari, jahon va Osiyo championatlari championlari va sovrin-dorlari, jahon va Osiyo rekordchilar.  |                                       |

|    |  |  |  |
|----|--|--|--|
| 6. | Sport mashg'ulotlari ning umumiy xarakteristikasi              | Sport mashg'ulotlari, uning maqsadlari, vazifalari va asosiy qismlari haqida tushuncha. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik. Texnik-taktik tayyorgarlik. Sport rejimi va ovqatlanishning o'rni. |  |
| 7. | Sport bilan shug'ullanish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish | O'z-o'zini nazorat qilishning mohiyati va uning sport bilan shug'ullanishdagi roli. O'z-o'zini nazorat qilish kundaligi, uning shakli va tarkibi.  |  |
| 8. | Sport mashg'ulotlari ning asosiy vositalari                    | Jismoniy mashqlar. Tayyorgarlik, umumta'lim va maxsus mashqlar. Har tomonlama tayyorgarlik vositalari.   |  |
| 9. | Jismoniy tayyorgarlik  | Jismoniy tayyorgarlik haqida tushuncha. Uning tarkibi va turlari bo'yicha asosiy ma'lumotlar. Asosiy jismoniy sifatlarning qisqacha tavsifi, ular rivojlanishining o'ziga xosligi.                 |  |
| 10 | Yagona sport tasnifi   | YaST haqida asosiy ma'lumotlar. YaST talab va me'yorlarini bajarish shartlari.   |  |

Intizomri tarbiyalashni birinchi mashg'ulotlardanoq boshlash kerak. Mashg'ulot va musobaqalarga qatnashish qoidalariga jiddiy amal qilish, trener ko'rsatmalarini aniq bajarish, mashg'ulot paytida, maktabda va uyda a'lo darajadagi xulq-atvor – bularning barchasiga trener e'tibor qaratishi lozim. Sport mashg'ulotlarining boshlanishidanoq sport mehnatsevarligiga – avvalambor oshib boruvchi nagruzkalar bilan bog'liq mashq vazifalarini doimiy bajarish orqali erishiladigan o'ziga xos qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish muhimdir. Yosh yunon-rim kurashchini aniq misollar bilan zamonaviy sportda yutuqlar, avvalambor, mexnatsevarlikka bog'liq ekanligiga ishontirish lozim. Shu bilan birga bolalar bilan ishlaganda nagruzkalarni oshirishning aniq ketma-ketligiga amal qilish kerak. Yosh yunon-rim kurashchilar bilan ishlash

jarayonida, asosiy vazifalari: o'quvchilar tomonidan sport mashqlari, gigiyena va boshqa sohalarni o'zlashlashtirishda bo'lgan intellektual tarbiya muhim o'rinn tutmoqda.

Tarbiyaning samaradorligi maqsadida trener mashq jarayonini shunday ta'shkillashtirishi kerakki, unda yosh yunon-rim kurashchilar oldiga sezilarli harakat va intellektual takomillashuv vazifalari qo'yilishi kerak. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida ham asosiy yo'nalishlar bo'lmish muvaffaqiyatli ta'lim olish va asosiy qobiliyat hamda ko'nikmalarni takomillashtirish, sport mashg'ulotlari asoslarini o'rganish ta'minlanishi lozim. Tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga o'qitish vositalari va metodlarining yetarli bo'lмаган xilma-xilligi salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yosh yunon-rim kurashchilarning ma'naviy ongi shakllanishida ishon-tirish metodlari muhim o'rinn tutadi. Ishontirishlar barcha hollarda isboti bilan bo'lishi kerak, buning uchun sinchiklab tarlangan analoglar, solishtirishlar, misollar bo'lishi kerak. Umumiy axloq prinsiplarini ta'rifashni aniq ma'lumotlar va o'quvchining o'z tajribasidan olingan dalillar bilan mustahkamlash kerak.

Ma'naviy tarbiyaning muhim usullaridan biri – bu yosh yunon-rim kurashchini rag'batlantirish – uning harakatlariga ijobiy baho berish. Rag'bat-lantirish trener va jamoa ma'qo'llashi, maqtashi, minnatdorchiligi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Har qanday rag'batlantirish zarur pedagogik talablardan kelib chiqqan holda chiqarilishi va yunon-rim kurashchining haqiqiy xizmatiga loyiq bo'lishi kerak.

Tarbiyaning yana bir turi – bu yosh yunon-rim kurashchi harakatlariga tanbeh berish, salbiy baholashda ifodalangan jazolashdir. Jazolash turlari har xil: ogohlantirish, og'zaki hayfsan, buyruq orqali hayfsan, nojo'ya harakatni sport jamoasida muhokama etish, mashg'ulotlar va musobaqalardan chetlatish. Yosh yunon-rim kurashchini rag'batlantirish va jazolash tasodifiy misollarga emas, balki harakatlarning jamlanmasiga asoslanishi kerak. Xuddi ish qobiliyatining tebranishi kabi sust iroda namoyish etish, faollikning pasayishi yunon-rim kurashchilarda tabiiy holdir. Bu hollarda jazolashdan ko'ra do'stona xayrixohlik

|    |   |  |  |
|----|---|--|--|
| 6. | Sport mashg'ulotlari ning umumiy xarakteristikasi               | Sport mashg'ulotlari, uning maqsadlari, vazifalari va asosiy qismlari haqida tushuncha. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik. Texnik-taktik tayyorgarlik. Sport rejimi va ovqatlanishning o'rni. |  |
| 7. | Sport bilan shug'ullanish jarayonida o'z-o'zinii nazorat qilish | O'z-o'zinii nazorat qilishning mohiyati va uning sport bilan shug'ullanishdagi roli. O'z-o'zinii nazorat qilish kundaligi, uning shakli va tarkibi.  |  |
| 8. | Sport mashg'ulotlari ning asosiy vositalari                     | Jismoniy mashqlar. Tayyorgarlik, umumta'lim va maxsus mashqlar. Har tomonlama tayyorgarlik vositalari.   |  |
| 9. | Jismoniy tayyorgarlik   | Jismoniy tayyorgarlik haqida tushuncha. Uning tarkibi va turlari bo'yicha asosiy ma'lumotlar. Asosiy jismoniy sifatlarning qisqacha tavsifi, ular rivojlanishining o'ziga xosligi.                 |  |
| 10 | Yagona sport tasnifi  | YaST haqida asosiy ma'lumotlar. YaST talab va me'yorlarini bajarish shartlari.   |  |

Intizomni tarbiyalashni birinchi mashg'ulotlardanoq boshlash kerak. Mashg'ulot va musobaqalarga qatnashish qoidalariga jiddiy amal qilish, trener ko'rsatmalarini aniq bajarish, mashg'ulot paytida, muktabda va uyda a'lo darajadagi xulq-atvor – bularning barchasiga trener e'tibor qaratishi lozim. Sport mashg'ulotlarining boshlanishidanoq sport mehnatsevarligiga – avvalambor oshib boruvchi nagruzkalar bilan bog'liq mashq vazifalarini doimiy bajarish orqali erishiladigan o'ziga xos qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish muhimdir. Yosh yunon-rim kurashchini aniq misollar bilan zamonaviy sportda yutuqlar, avvalambor, mexnatsevarlikka bog'liq ekanligiga ishontirish lozim. Shu bilan birga bolalar bilan ishlaganda nagruzkalarni oshirishning aniq ketma-ketligiga amal qilish kerak. Yosh yunon-rim kurashchilar bilan ishlash

jarayonida, asosiy vazifalari: o'quvchilar tomonidan sport mashqlari, gigiyena va boshqa sohalarni o'zlashlashtirishda bo'lgan intellektual tarbiya muhim o'rinn tutmoqda.

Tarbiyaning samaradorligi maqsadida trener mashq jarayonini shunday tashkillashtirishi kerakki, unda yosh yunon-rim kurashchilar oldiga sezilarli harakat va intellektual takomillashuv vazifalari qo'yilishi kerak. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida ham asosiy yo'nalishlar bo'lmish muvaffaqiyatli ta'lim olish va asosiy qobiliyat hamda ko'nikmalarni takomillashtirish, sport mashg'ulotlari asoslarini o'rganish ta'minlanishi lozim. Tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga o'qitish vositalari va metodlarining yetarli bo'limgan xilma-xilligi salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yosh yunon-rim kurashchilarning ma'naviy ongi shakllanishida ishon-tirish metodlari muhim o'rinn tutadi. Ishontirishlar barcha hollarda isboti bilan bo'lishi kerak, buning uchun sinchiklab tarlangan analoglar, solishtirishlar, misollar bo'lishi kerak. Umumiyl axloq prinsiplarini ta'rifashni aniq ma'lumotlar va o'quvchining o'z tajribasidan olingan dalillar bilan mustahkamlash kerak.

Ma'naviy tarbiyaning muhim usullaridan biri – bu yosh yunon-rim kurashchini rag'batlantirish – uning harakatlariga ijobiylaho berish. Rag'bat-lantirish trener va jamoa ma'qo'llashi, maqtashi, minnatdorchiligi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Har qanday rag'batlantirish zarur pedagogik talablardan kelib chiqqan holda chiqarilishi va yunon-rim kurashchining haqiqiy xizmatiga loyiq bo'lishi kerak.

Tarbiyaning yana bir turi – bu yosh yunon-rim kurashchi harakatlariga tanbeh berish, salbiy baholashda ifodalangan jazolashdir. Jazolash turlari har xil: ogohlantirish, og'zaki hayfsan, buyruq orqali hayfsan, nojo'ya harakatni sport jamoasida muhokama etish, mashg'ulotlar va musobaqalardan chetlatish. Yosh yunon-rim kurashchini rag'batlantirish va jazolash tasodify misollarga emas, balki harakatlarning jamlanmasiga asoslanishi kerak. Xuddi ish qobiliyatining tebranishi kabi sust iroda namoyish etish, faollikning pasayishi yunon-rim kurashchilarda tabiiy holdir. Bu hollarda jazolashdan ko'ra do'stona xayrioxohlik

ko'rsatish va ma'qo'llash safarbarlik effektini ko'proq beradi. Jazolash metodiga faqat ba'zi hollardagina murojaat etish lozim, bu ham bo'lsa, yunon-rim kurashchi muntazam tarzda irodasizlikni namoyish qilsa. Irodasizlikning alohida hollarini yengishning eng zo'r usuli – bu yosh yunon-rim kurashchini ining kuchi yetadigan mashqni bajarishga jalb qilish.

Sport jamoasi yosh yunon-rim kurashchi shaxsining ma'naviy shakl-lanishining muhim jihatlaridan biridir. Jamoada yunon-rim kurashchi har tomonlama – ma'naviy, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanadi. Bu yerda turli munosabatlar yuzaga keladi va namoyon bo'ladi: yunon-rim kurashchining o'z jamoasiga, jamoa a'zolari o'rtasida, sportdagi raqiblar o'rtasida.

Sport jamoasini jipslashtirish va jamoatchilik ruhini tarbiyalash masalalarini yechishda devoriy gazeta va sport varaqalarini chiqarish, sport safarлari (poxod) va tematik kechalar, dam olish kechalari va badiiy havaskorlik ko'riklarini o'tkazish, ijtimoiy foydali faoliyat uchun yaxshi sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.<sup>6</sup>

Ioda xususiyatlarini tarbiyalash – trener-murabbiy faoliyatidagi muhim vazifalardan biridir. Ioda xususiyatlari obyektiv va subyektiv xarakterdagi qiyinchiliklarni ongli ravishda yengish jarayonida shakllanadi. Ularni yengishda yosh yunon-rim kurashchi uchun zarur bo'lgan ioda ishga qo'shiladi. Shuning uchun irodani tarbiyalashning asosiy metodi – bu mashg'ulot va musobaqa jarayonida yechiladigan sekin-asta qiyinlashib boruvchi vazifalar metodidir.

Musobaqlarda muntazam ishtirok etish yosh yunon-rim kurashchilar irodani tarbiyalashning samarali vositasidir.

Yunon-rim kurashchining shaxsi va insonlar bilan munosabatining shakllanishi, yunon-rim kurashchi intellekti, psixologik funksiyalari va psixologik xususiyatlarining rivojlanishini ko'zda tutadi. Yosh yunon-rim kurashchilar bilan ishlovchi trener kelajakda yuksak sport mahoratini ko'rsatishga qodir, ruhan bosiq, to'laqonli barkamol shaxsni shakllantirishga

kerak bo'lgan bolalarga ta'sir o'tkazishning barcha mavjud vosita va metodlaridan foydala-nishi kerak. Asosiy vazifalari – bu sport bilan shug'ullanishga barqaror qiziqishni singdirish, mashg'ulot faoliyatida ko'rsatmalarni shakllantirishdan iborat bo'lisi kerak. Psixologik tayyorgarlikning asosiy metodlari – bu suhbatlar, ishontirish, pedagogik ishontirish, psixologik mashqlar, musobaqa holatini modeliashtirish metodlaridir. Mashg'ulot dasturlariga qiyinchiliklarni yengishni talab etadigan holatlarni kiritish lozim (qo'rquvni, hayajonni, yoqimsiz tuyg'ularni yengish va h.k.). Ularni o'quv-mashq jarayonida qo'llaganda asta-sekinlik va ehtiyyotkorlik talab etiladi. Bu holatlarda, odatda, yosh yunon-rim kurashchilaridan haddan tashqari bor imkoniyatlarni ko'rsatish talab etilmaydi.

Yosh yunon-rim kurashchilar bilan ishlash paytida u yoki bu psixologo-pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari va vositalari ustunligida muayyan bir yo'naliш belgilanadi. Og'zaki ta'sir metodlariga quyidagilar kiradi: tushuntirish, tanqid qilish, ma'qo'llash, ayplash, ishontirish, obro'li insonlarning o'rnaklari va h.k. Aralash ta'sir metodlari quyidagilardan iborat: rag'batlantirish, jamoat va shaxsiy topshiriqlarni bajarish, jazolash. Xuddi shuningdek, mashg'ulotlarning kirish qismida shaxsning har xil sifatlarini rivojlanishiga qaratilgan og'zaki va aralash ta'sir metodlari qo'llaniladi, intellekt va ruhiy funksiyalarning rivoj-lanishiga yordam beruvchi ma'lumotlar keltiriladi. Tayyorlash qismida – diqqat, sensomotorika va irodani oshiruvchi usullar; mashg'ulotlarning asosiy qismida ixtisoslashtirilgan ruhiy funksiyalar va psixomotor xususiyatlar, emotsiонаl chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish mukammallashtiriladi; yakuniy bosqichda – o'z-o'zini boshqarish va asab-ruhiy tiklanish qobiliyati mukammallashtiriladi. Ta'kidlash lozimki, yakuniy bosqichda ruhiy tayyorgarlik vositalari va metodlarini taqsimlashda urg'u berish yosh yunon-rim kurashchining ruhiy jihatlariga, mashg'ulotlarning yo'naliши va vazifalariga bog'liqdir.

O'quv-mashg'ulot jarayonida tiklanish ishlari va ruhiy-pedagogik ta'sirlar samaradorligini baholash pedagogik kuzatish, yosh yunon-rim kurashchining shaxsini tavsiflovchi turli

<sup>6</sup> Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent-2017

materiallarni o'lchash, tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar boshlang'ich ko'satkichlar bilan solishtiriladi va o'quv-mashq jarayoniga tuzatishlar kiritish va yosh yunon-rim kurashchining tiklanish ishlari va psixologik tayyorgarligini rejalashtirishda ishlataladi.

### 1.8. Yunon-rim kurashchilarida tiklanish vositalari

Dasturning ushbu qismi yosh yunon-rim kurashchining yoshi, sport mutaxassisligi bo'yicha stagi va individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda sport maktablari shug'ulanuvchilarining ish qobiliyatlarini tiklash uchun keng miqyosdagi vosita va tadbirlarni (pedagogik, gigiyenik, psixologik, va tibbiy-gigiyenik), shuningdek tiklanish vositalaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak.

O'quv-mashq bosqichi (2 o'quv yilgacha) – ish qobiliyatini tiklash asosan tabiiy yo'l bilan: mashg'ulot kunlari va dam olish kunlarini almashtirib qo'yish; mashg'ulot yuklamalari hajmi va jadalligini sekin-asta oshirish; mashg'ulotlarni o'yin shaklida o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Gigiyenik vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin: dush, iliq vannalar, chiniqtiruvchi xarakterdagi suv protseduralari, toza havoda sayr qilish, ovqatlanish va kun tartibi, vitaminizatsiya.

O'quv-mashq bosqichi (2 o'quv yilidan ortiq) – asosiylari bu tiklanishning pedagogik vositalaridir, boshqacha aytganda, mashg'ulotning oqilona tuzilishi va uning hajmi va yuklamalarining yunon-rim kurashchi organizmining funksional holati jadalligiga mos kelishi; alohida bir mashg'ulotda ham, yillik sikl bosqichida ham nagruzka va dam olishning eng maqbul yonetishini qo'llash lozim. Tiklanishning gigiyenik vositalari o'quv-mashq bosqichi 1 va 2 o'quv yilidagi kabi qo'llaniladi.

Yosh yunon-rim kurashchilarini mashg'ulotlarga tayyorlash va ularning musobaqalarda qatnashishlarida ruhiy holatning barqarorligini ta'minlovchi psixologik vositalardan pedagogik metodlar qo'llaniladi: ishontirish, maxsus nafas olish mashqlari, chalg'ituvchi suhbatlar. Tiklanishning tibbiy-biologik

vositalaridan: vitaminizatsiya, fizioterapiya, gidroterapiya, massajning barcha turlari, ruscha bug' hammomi va sauna.

Sport takomillashuvi bosqichida maxsus jismoniy tayyorgarlikning hajmi va musobaqalarning soni ortishi bilan organizmning tiklanishiga ajratiladigan vaqt ham ortadi. Qo'shimcha pedagogik vositalarga bir sport faoliyati turidan boshqa sport faoliyati turiga o'zgartirish, turli hajm va jadallikdagi mashg'ulot yuklamalarini almashtirib ishlatish, dam olish pauzalari ko'rinishini va ularning davomiyligini o'zgartirish mumkin.

Tayyorgarlikning ushbu bosqichida tiklanishning barcha vositalarini (pedagogik, gigiyenik, psixologik va tibbiy-biologik) kompleks ishlatish talab etiladi. Bunda ba'zi qonuniyliklar va bu vositalarning yosh yunon-rim kurashchi organizmiga ta'sirini hisobga olish lozim.<sup>7</sup>

#### Metodik tavsiyalar.

Bir xil tiklanish vositasini doimiy qo'llash tiklanish samarasini kamaytiradi, chunki organizm mahalliy ta'sir vositalariga ko'nikib oladi. Umumiy global ta'sir vositalariga (rus bug' hammomi, suv protseduralari bilan birga sauna, umumiy qo'l massaji, suzish va b.) adaptatsiya asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Shu munosabat bilan alohida tiklanish vositalaridan ko'ra ularning kompleksini qo'llash katta samara beradi.

Tiklanish komplekslarini tuzish paytida dastlab umumiyligi global ta'sir vositalarini, keyin mahalliyalarini qo'llashni esda tutish kerak.

Turli xil tiklanish vositalaridan kompleks foydalanish (sport takomillashuvi va oliy sport mahorati bosqichlari shug'ulanuvchilari uchun) katta sport nagruzkalari va musobaqa jarayonida amalga oshirilishi lozim. Boshqa hollarda mashg'ulotning boshida yoki uning jarayonida alohida mahalliy vositalar qo'llaniladi. O'rta va kam nagruzkali mashqlarning so'ngida odatiy suv gigiyenik protseduralarini qo'llash yetarli bo'ladi. Bunday hollarda tiklanishning kompleks vositalarini qo'llash mashg'ulot samaradorligini kamaytiradi.

<sup>7</sup> Tursunov Sh.S., Tashnazarov D.Yu. – Yunon-rim kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarliklari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2017

Tiklanish vositalarini tanlashda mashg'ulot va musobaqa nagruzkalariga individual chidamlilikka alohida e'tibor qaratish lozim, bu maqsadda yosh yunon-rim kurashchilarining subyektiv hislari va obyektiv ko'rsatkichlar xizmat qilishi mumkin (yurak urishining tezligi, nafas olishning tezligi va chuqurligi, teri qoplamalarining rangi, ter chiqishi va h.k.). Dasturning ushbu qismida instruktorlik va hakamlik amaliyoti tarkibini o'quv-mashq va sport tayyorgarlik bosqichi shug'ulanuvchilariga tanishtiriladi.

Bolalar va o'smirlar sport maktablarining vazifalaridan biri – bu o'quvchi-larni trener yordamchisi va instruktor roliga tayyorlash va ularni ommaviy sport musobaqalariga hakamlar sifatida jalb etishdan iborat.

Ushbu vazifalarni bajarishni o'quv-mashq bosqichidan boshlab, instruk-torlik va hakamlik amaliyotini keyingi barcha bosqichlarda davom ettirish maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlarni suhbat, seminar, adabiyotlarni mustaqil o'qish, amaliy mashg'ulotlar tarzida o'tkazish lozim. O'quv-mashq bosqichi shug'ulanuvchilar tanlangan sport turlari bo'yicha sport terminologiyasi etib qabul qilingan va buyruq berish terminlarini o'zlashtirishi kerak. Bularidan: raport berish, saf va tartib mashqlarini bajarish. Shuningdek, mashg'ulot tuzishning asosiy metodlarini: chigal yozish, asosiy va yakunlovchi qismlarini bilishlari lozim. Guruh bo'yicha navbatchi majburiyatlarini o'rganish (mashg'ulot joyini tayyorlash, zarur anjomlarni olish, mashg'ulot tugaganidan keyin ularni topshirish). Mashg'ulot o'tkazilayotgan paytda o'quvchilarni boshqa o'quvchilar tomonidan bajarilayotgan mashqlar, texnik usullarni bajarishini kuzatib borish, ularning xatolarini topib, to'g'rilash qobiliyatlarini rivojlantirish lozim. O'quvchilar trener bilan birgalikda chigal yozdi mashqlarini bajarish, hakamlikda qatnashishni o'rganishlari kerak. Hakamlik ko'nikmalarini singdirish, musobaqa qoidalarini ular tomonidan musobaqa bayonini yuritish orqali amalga oshiriladi.

O'quv-mashg'ulot bosqichida o'qitish paytida o'quvchini mustaqil ravishda kundalik daftarini yuritishga o'rgatish zarur va unda: mashg'ulot va musobaqa nagruzkalari hisobini yuritish, test bo'yicha sport natijalarini ro'yxatga olish, musobaqalarda ishtirokini tahlil qilish lozim.

Sport takomillashuvi bosqichi shug'ulanuvchilar chigal yozish uchun asosiy mashqlarni tanlay olishlari va ularni trener buyrug'iga binoan mustaqil o'tkaza olishlari, texnik usullarni to'g'ri ko'rsatishlari, boshqa ishtirokchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rish va tuzatishlari, kichik yoshdag'i guruh shug'ulanuvchilarining alohida mashq va usullarni o'rganishlarda yordam bera olishlari lozim.

Sport tayyorgarligi bosqichi shug'ulanuvchilar mashg'ulot konspektini va darsning turli qismlari (chigal yozish, asosiy va yakuniy qismi) uchun kompleks mashg'ulot vazifalarini tuza olishlari; boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari va umumta'lim maktablarida o'quv-mashq mashg'ulotlarini o'tkaza olishlari lozim.

Bolalar va o'smirlar sport maktabları va umumta'lim maktablarida hakam, katta hakam, kotib; shahar musobaqalarida hakam, kotib rolida ishtirok eta olishlari lozim.

Sport takomillashuvi bosqichi shug'ulanuvchilar uchun yakuniy natija – bu sport bo'yicha instruktor unvonini va sport hakamligi bo'yicha hakam unvonini olish uchun talablarni bajarish.

### 1.9. Yunon-rim kurashchilarini amaliy mashg'ulotlari uchun o'quv dastur

Dasturning ushbu qismida umumiyy maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik vositalari va metodlarining asosiy ro'yxati keltiriladi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi shug'ulanuvchilar uchun eng universal mashq vositasi – bu harakat va sport o'yinlari. Ular o'quv-mashq jarayonida eng ko'p vaqtini olishlari kerak. Yosh yunon-rim kurashchilarining tayyorgarligida o'yin metodlarini qo'llash ularni sport bilan shug'ullanishga qiziqishlarini saqlaydi va sport nagruzkalarini yengillashtirishga xizmat qiladi, harakat turlarining har xilligi va standart holatlarning nisbatan kam soni esa koordinatsion

qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib beradi. Bundan tashqari, u yoki bu o‘yin shaklini tanlash orqali tezlik va tezlik-kuch xususiyatlari, chidamlilikni rivojlantirishga urg‘u bersa bo‘ladi.

Mahalliy va chet el mutaxassislari yosh yunon-rim kurashchilarni tayyor-lashning samarali metodlaridan biri – bu ma’lum yo‘nalishda ishlab mashg‘ulot vazifalarini ishlatish deb hisoblaydilar. Shuning uchun boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi va o‘quv-mashq bosqichi shug‘ulanuvchilari uchun o‘quv dasturini asosiy yo‘nalishi muhimligi bo‘yicha guruhlangan mashq vazifalari ko‘rinishida: chigal yozish uchun mashq vazifalari; ham alohida jismoniy xususiyatlar, ham xususiyatlar majmuasini rivojlantirish uchun mashq vazifalari bloki, shuningdek, jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini o‘rgatish ko‘rinishida taqdim etish tavsiya etiladi. Har bir mashq quyidagilarga ega bo‘lishi kerak: vazifasi aniq pedagogik va tarbiyaviy masalalar; mashg‘u-lotlarning tarkibi (mashqlar majmuasi va ularni bajarish ketma-ketligi); nagruzkani o‘lchash va uni bajarish rejimi (jadalligi, takrorlash soni, seriyasi, sport anjomingin og‘rligi, masofaning uzunligi); dam olish pauzalari uzoqligi va xarakteri va b.; metodik ko‘rsatmalar (o‘quv yili, mashqlarni bajarishda yuz berishi mumkin bo‘lgan xatolar, ularni bartaraf etish usullari); tashkiliy ko‘rsatmalar (mashg‘ulotlarning o‘tkazish joyi, zarur anjominlar va uskunalar). Mashg‘ulotning asosiy qismida muayyan yo‘nalishga ega mashg‘ulotlar o‘rin oladi.

O‘quv-mashq va sport tayyorgarligi bosqichlari shug‘ulanuvchilari uchun o‘quv dasturini tuzish paytida mutaxassislar va trenerlar tomonidan tavsiya etiladigan yillik siklning turli o‘quv yillari, davrlari va bosqichlari uchun ishlab chiqilgan haftalik mikrotsikllardan foydalanish mumkin. Sport takomillashuvi bosqichida haftalik mikrotsikllarni tanlashda yosh yunon-rim kurashchining individual o‘ziga xosligini inobatga olish kerak.

### 3-jadval

#### Mashq vazifalari blokining yo‘nalishi

| O‘quv bosqichi, o‘quv yili                   | Mashqlarning mazmuni va xarakteri                   | Nagruzkani o‘lchash, bajarish rejimlari   | Metodik ko‘rsatmalar  | Tashkiliy ko‘rsatmalari  |
|--|---|---|---|--|
| 1-o‘quv yili<br>2-o‘quv yili<br>3-o‘quv yili | Mashqlar maj-muasi va ularni bajarish ketma-ketligi | Mashqui bajarish jadalligi; masofa bo‘laklari uzunligi va uni o‘tish vaqtini anjomlar og‘irligi; takrorlash va seriyalar soni; dam olish pauzalari davomiyligi va xarak-teri. | Mashqlarni bajarish chog‘ida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni, va ularni bartarafe etish usullari aks ettirilsin; tar-biyaviy va psi-xologik tay-yorgarlikda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan holatlar. | Mashg‘ulotlarni o‘tkazish joyi. Zarur anjom-lar va uskunalar ko‘rsatilsin. |

#### O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Topilmalar ichida eng qadimgi deb hisoblanadigan yodgorlik taxminan qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
2. FILA qachon UWV ga o‘zgartirildi?
3. Ixtisoslashgan kurash maydonlari birinchi qayerda ochilgan?
4. Yevropada avvallari yunon-rim kurashi qaysi nom ostida rivojlangan?
5. FILA to‘liq manosini yoritib bering.
6. Kurash turlarining Fransiyadagi rivojlanishi qanday amalga oshirilgan?
7. “Yunon-rim kurashi, fransuz kurashi va klassik kurash” turlarining bir-biridan qanday farqi bor?
8. Yunon-rim kurashi bo‘yicha jahon maydonlarida yurtimiz sharafini himoya qilayotgan sportchilarimizni bilasizmi?

## II BOB. TEXNIK TAYYORGARLIK

### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar:*

Белов В.С. Строки из истории греко-римской борбы. Новосибирск: Заринск, 1999.

Игуменов В.М., Подливаев Б.А. Спортивная борба: Учебник для студентов и учащихся. М.: Просвещение, 1993.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2001.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2005.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2009.

Кун Л. Всеобщая история физической культуры и спорта. М., 1982.

Купсова А.П. Спортивная борба: Учебник для ИФК. М.: ФИС, 1978.

Миндиашвили Д.Г., Завялов А.И. Учебник тренера по борбе. Красноярск, Изд. КПГУ, 1995.

Тастанов Н., Абдиев А., Боймуродов И. Греко-римская борба. Т., 2007.

Tasatnov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2015.

Tasatnov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent 2017.

### **2.1. Kurashchilar trenirovka jarayonida texnik tayyorgarlik**

Kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta’minlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Kurashchining umumiy va maxsus texnik tayyorgarligi ajratiladi. Umumiy texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda ko’nikmalarini egallahsga, maxsus texnik tayyorgarlik sport kurashida texnik mahoratga erishishga qaratilgan.

Sport kurashida texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan:

- maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ish kuchlanishini tejash;
- musobaqa faoliyatini o‘zgaruvchan holat sharoitlarida harakatlanish tezligi, aniqligini oshirish.

Sport texnikasini takomillashtirish kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi va u tanlangan kurash turida texnik mahoratni oshirishga qaratiladi.

Texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallah tushuniladi.

Texnik mahoratni takomillashtirishning uchta bosqichi ajratiladi;

1. Izlanish.
2. Barqarorlashtirish.
3. Moslashishni takomillashtirish.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining yangi texnikasini shakllantirishga, uni amaliyotda egallah shart-sharoitlarini yaxshilashga, musobaqa harakatlari tizimiga kiruvchi ayrim harakatlarni o‘rganishga (yoki qayta o‘rganishga) qaratilgan.

Ikkinci bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining butun malakalarini chuqr o‘zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Uchinchi bosqichda texnik tayyorgarlik shakllangan malakalarni takomillashtirish, ularning asosiy musobaqlar sharoitlariga mos holda maqsadga muvofiq variantliligi, barqarorligi, ishonchliligi chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

Har bir texnik tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kurash texnikasi asosini tashkil etadigan harakat malakalarining yuqori barqarorligi hamda oqilona variantiviligiga erishish, musobaqa sharoitlarida ularning samaradorligini oshirish.

2. Harakat malakalarini qisman qayta qurish, musobaqa faoliyati talablarini hisobga olgan holda usullarning ayrim qismlarini takomillashtirish.

Birinchi vazifani hal etish uchun tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi, organizmning turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi qo'llaniladi. Ikkinci vazifani hal etish uchun texnik harakatlarni bajarish sharoitlarini yengillashtirish uslubi, birga (sopryajenniy) ta'sir ko'rsatish uslubi qo'llaniladi.

Texnik usullarni bajarishda tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi quyidagi bir qator usullarda amalga oshiriladi:

1. Shartli raqib qarshiligining uslubiy usuli sportchiga texnik harakatni bajarish tuzilmasi va maromini takomillashtirishga, barqarorlik va natijalilikka tezroq erishishga yordam beradi.

2. Qiyin dastlabki holatlar va tayyorgarlik harakatlarining uslubiy usuli. Masalan, egilab tashlashni takomillashtirishda ushlab olish joyi va kurashchilar o'rtasidagi masofani o'zgartirish lozim.

3. Usullarni bajarish uchun joyni cheklash uslubi malakani takomillashtirishda mo'ljallangan shartlarini murakkablashtirishga yordam beradi. Kurashda, kichraytirilgan o'lchamdagisi gilamlar qo'llaniladi.

Texnik harakatlarning bajarilishini qiynlashtiruvchi sportchi organizmining turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi ham turli xildagi usullarda amalga oshiriladi:

Harakatni ancha toliqqaq holda bajarishning uslubiy usuli. Bu holda katta hajm va shiddatdagi jismoniy nagruzidan keyin sportchiga texnikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar taklif qilinadi.

Nazorat o'quv-trenirovka bellashuvlari o'tkazilgandan so'ng katta emotsiyal zo'riqish holatida harakatlarni bajarishning uslubiy usuli.

Vaqti-vaqt bilan ko'rishni ta'qilash yoki cheklashishning uslubiy usuli harakatlanish malakasining retseptorli-analizatorli tarkibiga tanlab ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Musobaqa vaziyatida ayrim usullar yoki harakatlarni majburan bajarish usuli malakani takomillashtirish jarayonida kurashchi faolligini rag'batlantiradi. O'quv-trenirovka bellashuvlarida kurashchi himoyaning texnik usullari, yoki aksincha, hujum usullariga ko'proq diqqatni toplashga ko'rsatma oladi.

Texnik harakatlarni bajarish shartlarini yengillashtirish uslubi bir qator uslubiy usullardan iborat:

1. Harakat elementini ajratish uslubiy usuli. Masalan, Yunon-rim kurashida – beldan yuqori qismdan ushlab olishni amalga oshirish.

2. Mushak zo'riqishini pasaytirish uslubiy usuli kurashchiga harakatlanish malakasidagi ayrim harakatlarga yanada aniq tuzatishlarni kiritishga yordam beradi. Texnik harakatlarni takomillashtirish uchun kurashchiga ancha yengil vazn toifasidagi raqib tanlanadi.

3. Tezkor axborot uslubiy usuli zarur harakat kengligi, maromi, sur'atini tez egallab olishga yordam beradi, bajariladigan harakatni anglash jarayonini faollashtiradi.

Texnik harakat to'g'risidagi tezkor axborot uchun videokamera va videomagnitofondan foydalanish qulaydir.

Birga ta'sir ko'rsatish uslubi sport trenirovkasida o'zaro birgalikda jismoniy sisatlarni rivojlantirish va harakat malakalarini takomillashtirishga asoslangan uslubiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Bu holda usullarni takomillashtirishda kurashchiga ancha og'ir vazn toifasidagi raqib tanlanadi.<sup>8</sup>

<sup>8</sup> Tasatnov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2015.

## 2.2. Texnik harakatlarni amalga oshirishning umumiy asoslari

Yunon-rim kurashi texnikasi – bu musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalanishlar yig‘indisidir.

Usullar – bu maqsadga yo‘naltirilgan hujum harakatlari bo‘lib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismidan iborat. Birinchi qism – usul qo‘llash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqorida, pastdan, orqadan, oldindan, yon tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga bo‘linadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bog‘liq. Ikkinci qismda turli xildagi harakatlar: tik turishda – o‘tkazishlar, tashlashlar, ag‘darishlar; parterda – o‘girishlar va parterda tashlashlar bo‘lishi mumkin.

Yunon-rim kurashida – erkin kurash, sambo, dzyudo va kurashdagidek usullarni amalga oshirish paytida bir vaqtning o‘zida oyoqlar bilan turli harakatlar ham bajarishi, Ya’ni bular – chalishlar, qoqishlar, ilishlar, oldindan ilib otishlar, chirmashlar, orqadan ilib otishlar mumkin emas.

Bir xildagi ushslash bilan bir qator harakatlarni bajarish mumkin va, aksincha, bir xil harakatning o‘zi turli ushslashlar bilan bajarilishi mumkin. Masalan, qo‘ldan va gavdadan ushlab tashlashni, zarba bilan ag‘darishni amalga oshirish mumkin. Lekin raqibni egilib qo‘l, gavda, qo‘l va bo‘yindan ushlab tashlash ham mumkin.

Kurashchi har qanday usulni hujum va qarshi hujum uchun qo‘llashi mumkin. Usul yoki uning bir qismini aldamchi harakat sifatida qo‘llab, kurashchi haqiqiy niyatidan raqib diqqatini chalg‘itish va boshqa usul bilan hujumni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni tayyorlashi mumkin.

Qarshi usullar – bu raqib hujumiga javob tariqasida bajariladigan maqsadli harakatlar bo‘lib, ular yordamida kurashchi raqibi ustidan ustunlikka erishadi.

Qarshi usullar murakkab texnik harakatlarga kiradi. Qarshi hujum uyushtirayotgan kurashchi bir zumda to‘g‘ri qaror chiqarishi va raqibi usulni amalga oshirishga ulgurmasligi uchun

o‘z harakatlarini hujum qilayotgan raqib harakatlari biian aniq moslashtirishi lozim.

Himoyalanishlar – bu raqibning usullarni (qarshi usullarni) bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi maqsadli harakatlardir.

Himoyalanishlar dastlabki va bevosita himoyalanishlarga ajratiladi. Dastlabki himoyalanish oldindan, Ya’ni raqib usulni amalga oshirishdan avval bajariladi.

Bevosita himoyalanish raqib hujumini to‘xtatishga qaratilgan. Bunday himoyalanish samaradorligi uning o‘z vaqtida bajarilishiga bog‘liq. Bevosita himoyalanish usul boshida, usulni bajarish davomida yoki usulni bajarish oxirgida amalga oshirilishi mumkin.

Hamma texnik harakatlar kurashchilar tomonidan turli holatlardan turib bajariladi. Asosiy holatlar quyidagilar: tik turish, parter va ko‘prik.

Tik turish – bu kurashchining holati bo‘lib, unda u oyoqlarda tik turadi. O‘ng, chap va yalpi tik turishlar ajratiladi. Ularning har biri, o‘z navbatida, baland, o‘rta va past bo‘lishi mumkin. Tik turishda kurashish yaqin, o‘rta va uzoq masofalarda olib borilishi mumkin.

Parter – bu kurashchining dastlabki holati bo‘lib, u tizzalarida turadi. Bunda tekis yozilgan qo‘llarning kaftlari bilan gilamga tayanib turiladi, qo‘llar tizzalardan 20–25 sm uzoqlikda joylashadi.

Parterda baland holat va past holat farqlanadi. Baland holat – bu kurashchining parterdagi dastlabki holati, past holat esa – bu kurashchining tizzalarda turib, bilaklar bilan gilamga tayanish holatidir.

Parterda kurashish paytida kurashchilardan biri pastda, ikkinchisi yuqorida bo‘ladi. Parterda yuqoridagi holatda turgan kurashchi kurash boshlanishidan oldin istagan dastlabki holatni egallashi mumkin. Faqatgina qo‘l kaftlari pastdagi kurashchining yelkasida turishi lozim.

Ko‘prik – bu kurashchining quyidagi holati bo‘lib, Ya’ni bunda u, orqaga egilib, oyoq kaftlari (ular taxminan yelka kengligida yozilgan) va bosh (istagan qismi) bilan gilamga tayanadi.

Kurashchi ushbu holatga kuragini gilamga tekkizmaslik uchun o‘tadi.

Yunon-rim kurashida ko‘prik bir holatda qator hujum hamda qarshi hujum harakatlarni bajarishda asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

### 2.3. Kurashchining texnik mahoratini oshirish yo‘llari

Kurashchining texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo‘lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo‘llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kurash texnikasi kurashchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko‘p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o‘nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Sportchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanishlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Kurashchining har tomonlama texnik tayyorgarligi – turli sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga qo‘yiladigan muhim talablardan biridir. Mustahkam egallah uchun texnik harakatlarni tanlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- amaldagi musobaqa qoidalariда qaysi biri texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangan o‘sha texnik harakatlarni egallah;

- texnikaning hamma turlari ichidan sportchining alohida xususiyalariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalanishlarning variantlarini egallah;

- asosiy raqobatchilarining mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;

- avval o‘rganilgan usullar va qarshi usullarni qo‘llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo‘lgan texnik harakatlarga ko‘proq e’tibor qaratish;

- kurashchi zaxirasida mavjud bo‘lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog‘lanishlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan texnik harakatlarni o‘rganish;

- harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo‘lgan harakat texnikasiga o‘rgatish lozim; bu kelgusida qayta o‘rganishdan xalos qiladi;

- kerak bo‘lmagan harakatlар va ortiqcha mushak zo‘riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiylar harakat maromini egallah;

- usullarga o‘rgatish vaqt oralig‘ida jamlangan bo‘lishi zarur, chunki trenirovka mashg‘ulotlari orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta’sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan, bitta trenirovka darsi davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qyinchilikni engib o‘tish bilan bog‘liq;

- jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo‘lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

### I-jadval

#### Harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan xatolar tarkibi

| Harakatlanishdagi xatolar            |  |  |  |   |
|--------------------------------------|--|--|--|---|
| Harakatlarning yetishmasligi sababli | O'qitishdagi kamchimlik sababli          | Ruhiy gen                              | Sharoitlarning g'ayri-tabiuiyligi sababli              | Kutilmagan  |
| Jismoniy sifatlarning yetishmasligi  | Noto'g'ri bajarish texnikasiga o'rgatish | Qoniqarsiz o'z-o'zini nazorat qilish   | Tashqi jismoniy sharoitlar xususiyatlari               | O'z-o'zidan ixtiyoriy   |
| Koordinatsiya yetishmasligi          | O'qitishdagi uslubiy xatolar             | Ruhiy ta'sirlar                        | Sherik yoki raqib xususiyatlari                        | Kutilmagan tashqi omillardan kelib chiqqan                              |
| Gavda tuzilishi xususiyatlari        | Mos bo'lmagan malakan'i ko'chirish       | Ishonchszilik, havotirlanish, qo'rquv  | Tartibga solish xususiyatlari                          | Kutilmagan tashqi va ichki omillarning to'g'ri kelishidan paydo bo'lgan |
| Malakaning qashshoqligi              | Malakan'i qoniqarsiz nazorat qilish      | Emotsional zo'riqish va ruhiy toliqish | Rubiylar va harakatlanish ko'rsatmasidagi kamchiliklar | Muntazam bo'lmagan, kelib chiqishi noaniq                               |

Kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarish paytida harakatlanishdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo'lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish ko'p jihatdan texnik takomillashtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo'ladi. Harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan hamma harakatlanish xatolari beshta guruhga bo'linadi: harakatlanish yetishmasligi sababli xatolar; o'qitishdagi kamchiliklar sababli xatolar; sharoitlarning g'ayritabiuiyligi sababli xatolar hamda kutilmagan xatolar.

Shu bilan birga texnik takomillashtirish jarayonida yuzaga kelgan harakatlanishdagi xatolarni bartaraf etish uchun uslubiy qoidalarni ishlab chiqish zarur.

#### 2.4. Yunon-rim kurashida texnik usullarni tasniflash, tizimlashtirish va ularning atamasi.

##### Umumiy qoidalalar

Yunon-rim kurashida sportchining texnik harakatlari ko'p va turli-tumanligi sababli u boshqa sport turlaridan farq qiladi.

Yunon-rim kurashchisining texnik harakatlarini tartibga solish va ushbu sohada mutaxassislar o'rtasida muloqat qilish imkonini yaratish uchun kurash texnikasining tasnifi, tizimi hamda atamalari ishlab chiqilgan.

Tasniflash – bilimlarning u yoki bu sohasidagi bir-biriga tobe tushunchalar (sinflar, obyektlar, hodisalar) tizimidir. Tasnif obyektlarning umumiy belgilar va ular o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikni hisobga olish asosida tuziladi. Tasniflash turli-tuman obyektlarda to'g'ri yo'l tutishga yordam beradi hamda ular to'g'risidagi bilimlar manbai bo'lib hisoblanadi.

Har xil kurash usullarini ularning umumiy belgilariga qarab (tasniflarga) taqsimlash mutaxassislarga fan to'g'risidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni rivojlantirishga imkon yaratadi va bir vaqtning o'zida bu bilimlardagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Kurash usullari o'rtasidagi ichki bog'liqliklar tizimlashtirish asosida ko'rib chiqiladi. Tizimlashtirish – bu kurash texnikasini bir tizimga solish, ma'lum bir tartibda joylashtirish, ma'lum bir ketma-ketlikni belgilash demakdir.

Tizimlashtirishda, tasniflashdan farqli ravishda (chunki uning davomida ko'rib chiqilayotgan obyektlar ularning o'xshashligi va o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda u yoki bu bo'linmaga taa'lluqli bo'ladi) obyektlar ularning ketma-ketligini aniqlash, belgilash uchun bii-biri bilan taqqoslanadi. Tizimlashtirish ushbu tasnifiy sxema imkoniyatlarini ochib beradi, uning kamchiliklarini ko'rsatadi.

Yunon-rim kurashini tasniflash va tizimlashtirishning vazifasi kurash mohiyatini aks ettirish hisoblanadi. Tasniflash va tizimlashtirishni tushunchalarni (tashlash, o'tkazish, yiqitish, ag'darish va h.k.) aniqlash bo'yicha oldindan ish bajarilmasdan turib, amalgalashirilmaydi.

Yaxshi tuzilgan tasniflash ilmiy asoslangan atamalarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Kurash atamashunosligi – bu mutaxassislar o'zlarining ilmiy va pedagogik ish faoliyatlarida foydalanadigan atamalar yig'indisidir.

Mazkur ko'pgina fanlarni tasniflash va tizimlashtirish asosida tuzilgan atamashunoslik fan mohiyati to'grisida ma'lumotlar beradi hamda maqsadli ravishda takomillashtirish imkoniyati mumkin. Bunday atamashunoslik ilmiy asoslangan atamashunoslik deb ataladi.

Shunday qilib, tasniflash, tizimlashtirish va atamashunoslik to'g'risida fikr yurtilgan paytda, ularning mana shu tartibda sanab o'tilishiga e'tibor berib, undagi tasniflash bo'yicha isb ketma-ketligini ko'rish mumkin. Ya'ni avval tasniflash bajariladi, uning natijasida ma'lum bir tizim hosil bo'ladi, so'ngra esa uning asosida hamma kurash usullarining ilmiy asoslangan nomlari (atamalari) beriladi.

Bellashuvning har xil turlari umumiyligi qonuniyatlargacha (A.P. Kupsov bo'yicha) ega hamda ular quyidagilardan iborat:

1. Bellashuvda ikkita sportchi qatnashadi, ularidan har biri usullar yoki qarshi usullar yordamida o'z raqibi ustidan g'alabaga erishadi. Shunday qilib, kurashning har bir alohida daqiqalarida hujum qilayotgan va hujum qilinayotgan kurashchi, Ya'ni usul yoki kombinatsiya bajarayotgan kurashchi va ustidan usul hamda kombinatsiya uyushtirilayotgan kurashchi mavjud (qarshi hujumni bajarayotgan kurashchi qarshi hujumchi deb ataladi).

2. Har bir kurashchi harakat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – bu tanlangan holatni saqlab turishdir.

3. Hujum qilayotgan kurashchining vazifasi raqibning gilamga nisbatan holatini o'zgartirish uchun uni muvozanatdan chiqarishdan iborat. Bunda kurashchilarni bir-biriga nisbatan holatlari turli xilda o'zgarib turishi mumkin.

4. Gilamga nisbatan holatni o'zgartirish shu bilan yengilashtiriladiki, bunda kurashchilarning gilamga qaratilgan og'irlilik kuchidan foydalaniadi.

5. Raqib gavdasining ma'lum bir berilgan nuqtasiga zarur kuch berish (Ya'ni kuch momentlarini hosil qilish, kuch juftligini yaratish, og'irlilik kuchlari va inersiya momentlaridan foydalanish) har bir usulning biomexanikaviy asosini tashkil qiladi.

6. Usul kuch bo'yicha g'olib bo'lishga imkon beradi va bir nechta qismlardan iborat: tayyorgarlik harakati, ushlab olish, asosiy harakat, hujum hamda yakunlovchi holatlar.

7. Har bir usul o'zgartirilishi va dinamik vaziyat hamda raqib xususiyatlariga qarab murakkablashtirilishi mumkin.

8. Har bir usul o'zining marom – sur'at tavsiflariga ega. U bellashuvning u yoki bu vaziyatlarida yoki butun bellashuvda o'zgartirilishi mumkin.

9. Har bir usulni bajarish joyi kurash gilami o'lchamlari bilan chegaralangan.

Har xil kurash turlarining mazmuni, alohida har bir kurash turida kurashchilarning harakatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga qaramasdan, umumiy asosga ega va bir xil belgilariiga qarab tasniflangan.

Shuning asosida A.P. Kupsov tomonidan sport kurashi texnikasining yagona tasnifi va tizimi ishlab chiqilgan. Bunda faqat shu turga xos bo'lgan xususiyatlar saqlanib qolganidek, har bir turning o'ziga xos xususiyatlari to'liq saqlanib qolingga.

Yunon-rim kurashi texnikasi asosiy usullarining yagona tasnifi va tizimini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar oldinga qo'yilgan:

– kurash texnik harakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning turli-tumanligi va murakabligini ochib bergen holda uning mohiyatini aks ettirib;

– gilamda sodir etilayotganlarni kurash turiga qiyoslamagan holda aks ettirish;

– hamma kurash turlari uchun umumiyligi aniqlashga yordam berish;


– har bir kurash turining o'ziga xos hususiyatlarini saqlab qolish;

- har bir kurash turiga boshqa turlardan (shu qatorda milliy kurashdan) eng yaxshi usullarni o'zlashtirish imkonini yaratish;
- asosiy texnika usullarini "mактабдаги байарыш" ga tasniflash;
- hamma kurash turlari uchun umumiy bo'lgan texnika tushunchalari hamda ta'rifarni tuzish va har bir turning umumiy tamoyillarga asoslangan atamashu-nosligini yaratishga yordam berish.

## 2-jadval

Yunon-rim kurashida asosiy texnik usullarning tasnifiy sxemasi

| 1-daraja                     | 2-daraja                  | 3-daraja  | 4-daraja  |
|------------------------------|---------------------------|---|---|
| Sinflar                      | Kichik sinflar            | Guruuhlar   | Kichik guruuhlar  |
| Tik turgan holatdagi usullar | O'tkazishlar              | Qo'lini tortib, sho'ng'ib, qo'lini bo'yinga o'rab, oldinga chiqib-o'trib  | Turli yo'nalishlarda har xil ushlab olishlar bilan  |
|                              | Yiqitishlar               | Zarb bilan, qayirib   | bajariladigan usullar variantlarini hosil qiluvchi va boshqa yo'nalishda bajariladigan qo'l va oyoqlar bilan harakatlanish. |
|                              | Tashlashlar               | Beldan oshirib, yelkalardan oshirib, egilib, qo'lini bo'yinga o'rab, ko'krakdan oshirib.  |   |
| Parter holatidagi usullar    | To'ntarishlar             | Qayirib, aylana yugurib, o'tish bilan, aylantirib, ag'darib, bel orqali, ko'krak orqali   |   |
|                              | Tashlashlar               | Aylantirib, belini teskari ushlab egilib, beldan oshirib, ko'krakdan oshirib.   |   |
|                              | Xavfli holatda ushlashlar | Yondan, bosh tomondan, oyoq tomondan, yuqoridan, ko'ndalangiga.   |   |
|                              | Yuqoriga chiqib olish     | Cho'kkalab, ochib (oldinga, orqaga), o'tib olib, yozilib (richag), qisib olib, qayirib (tuguncha), tortib, siqib olib, oldinga chiqib-o'trib. |   |



Yunon-rim kurashidagi yagona tasniflash va tizimlashtirishning asosiy xususiyati shundan iboratki, uning hamma darajalari har qaysi sport kurashi turi (shu qatorda milliy) texnikasining bosqichma-bosqich ifodasi hisoblanadi hamda ko‘p sonli elementlarni tartibga solishga yordam beradi.

Birinchi daraja – sinflar – kurash qanday holatda amalgalashirilayotganligini ko‘rsatadi. Kurashning texnik harakatlari ham turishda, hamda parterda bajariladi.

Ikkinci daraja – kichik sinflar – kurashda nima bajarilayotganligini (tashlash, o‘tkazish, ag‘darish va h.k.) ko‘rsatadi.

Uchinchi daraja – guruhi – usul, Ya’ni hujum qilayotgan kurashchilarining usullarni bajarish paytidagi mumkin bo‘lgan asosiy harakatlari turlari qanday bajarilayotganligini ko‘rsatadi. Masalan, tashlashlar oldinga engashib, orqaga egilib, burilib va h.k. bajariladi.

To‘rtinchi daraja – kichik guruhi – mumkin bo‘lgan qo‘l bilan ushlab olishlar, oyoqlar bilan harakatlanishlar hamda usullarni bajarishning boshqa xususiyatlarini, Ya’ni guruh ichidagi usullarning o‘zining variantliliginini ko‘rsatadi.

Tizimning shunday tuzilishidan foydalanib, hamma usullar nomini hosil qilish hamda bajarish murakkabligining ortib borishiga qarab, ularni bir tartibda tizib chiqish mumkin. Bu ham tizim hisoblanadi. Gilamda bajarish mumkin bo‘lgan har qanday texnik harakat ushbu tasniflash jadvaliga kiritilgan.

Usullar nomini shakllantirishda birinchi daraja, Ya’ni tik turish yoki parterda bajarish ko‘rsatilmaydi. Bu narsa nazarda tutiladi yoki agar gap ham tik turishda, ham parterda mavjud bo‘lgan usullar (masalan, tashlashlar) to‘g‘risida borsa, ushbu hollarda qo‘srimcha tushuntiriladi. Har bir usulning nomi ikkinchi darajadan, Ya’ni kichik sinfdan shakllana boshlaydi.

Usullarning har bir to‘liq nomlanishidan uchta tasniflash darajasiga muvofiq bo‘lgan va shu tariqa ushbu usulning umumiyligi tizimdagisi o‘rnini ko‘rsatib beruvchi uchta qism bo‘lishi lozim.

Usullarni ta’rifash uchun quyidagilarni bilish zarur:

1. Gilamda nima bajarildi (tashlash, o‘tkazish, ag‘darish va h.k.), Ya’ni usul qaysi kichik guruhga taalluqli (2-daraja).

2. Usul qanday bajarildi (orqaga egilib, oldinga engashib), Ya’ni hujum qilayotgan kurashchining asosiy harakatini tavsiflovchi usul qaysi guruhga taalluqli (3-daraja).

3. Usul qanday ushlab olish va boshqa xususiyatlar bilan bajarildi, Ya’ni ushbu holda usulning qanday varianti nazarda tutiladi (4-daraja).

Masalan, qo‘llar va gavdadan ushlab olib (4-daraja) orqaga egilib (3-daraja) tashlash (2-daraja).

Shunday qilib, yagona tasniflash asosida yagona usuliyat bo‘yicha ishlab chiqilgan Yunon-rim kurashi atamashunosligi mutaxassislarining butun ilmiy-usuliy va sport-pedagogik faoliyatini uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega.

#### 2.4.1. Yunon-rim kurashining asosiy tushunchalar va atamalari

Tushunchalar va atamashunoslikda har qanday fanni o‘rganish va o‘qitish predmeti ochib beriladi, fanda to‘planayotgan bilimlar jamlanadi. Agar tushuncha to‘liq ta’rifga ega bo‘lsa, Ya’ni uni tuzish hamda ishlatish farqlari va usullari mezonlarining qisqa ifodasi berilsa, bunday tushuncha to‘liq hisoblanadi. Yunon-rim kurashida foydalaniladigan quyidagi asosiy tushunchalar va atamalarni ta’rifashda shu narsaga e’tibor qaratish lozimki, ilmiy-usuliy adabiyotlar hamda amaliyotda ularning yagona ta’rifi yo‘q.

Yunon-rim kurashchilar tayyorgarligi tizimi – yaxlit birlikni tashkil qiluvchi va maqsadga erishishga yo‘naltirilgan o‘zarobog‘liq bo‘lgan elementlar yig‘indisidir, Ya’ni bu jahonning kuchli kurashchilarining model tavsiflariga javob bera oladigan va eng yuqori natijalarini ko‘rsatishga qodir sportchilarni tayyorlashga qaratilgan tadbirlar kompleksidir.

Yunon-rim kurashchining trenirovkasasi – bu tayyorgarlik tizimining tarkibiy qismidir, yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan tizimlashtirilgan vositalar hamda uslublar yordamida

sportchi rivojlanishini boshqarishning pedagogik jihatdan tashkil etilgan jarayonidir.

Trenirovka faoliyati – trenirovka maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish bo'yicha trenerlar jamoasi hamda kurashchilarining birqalikdagi faoliyatidir.

Sport musobaqalari – kurashchi tayyorgarligi tizimining tarkibiy qismidir. Ular trenirovka maqsadlari hamda uning samaradorligi mezoni bo'lib xizmat qiladi, boshqa tomonдан esa, ular maxsus musobaqa tayyorgarligining samarali vositasi hisoblanadi.

Sportchining texnik tayyorgarligi – kurashchingning musobaqa faoliyatida yuqori ishonchlilagini ta'minlaydigan harakat malakalarini egallashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Sportchining taktik tayyorgarligi – musobaqa faoliyatida texnik harakatlarni oqilona qo'llash malakasini egallashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Yunon-rim kurashchingning jismoniy tayyorgarligi – jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish va funksional imkoniyatlarni oshirish, texnik-taktik harakatlarning samarali egallanishini ta'minlaydigan hamda musobaqa faoliyatida yuqori darajadagi ishonchlilikka yordam beradigan tayanch-harakat apparatini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Yunon-rim kurashchingning ruhiy tayyorgarligi – ma'naviy, iroda va Yunon-rim kurashining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lgan hamda musobaqa faoliyatida yuqori darajadagi ishonchlilikni ta'minlashga qodir ruhiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Yunon-rim kurashchingning nazariy tayyorgarligi – sportchini trenirovka va musobaqa faoliyati samaradorligini oshiradigan maxsus bilimlar bilan quollantirish.

Yunon-rim kurashchingning integral tayyorgarligi – samarali musobaqa faoliyatini ta'minlash maqsadida texnik, taktik, ruhiy, nazariy va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha trenirovka ta'sirlarining integratsiyalashuviga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Trenirovka nagruzkasi – mashg'ulotlar jarayonida kurashchiga trenirovka orqali ta'sir ko'rsatishning son ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi trenirovkaning tarkibiy qismidir.

Musobaqa nagruzkasi – musobaqa faoliyati hajmi va shiddatining son miqdoridir.

#### 2.4.2. Yunon-rim kurashchingning asosiy holatlari

Yunon-rim kurashchingning asosiy holatlari – sport tayyorgarligi jarayonida kurashchilar tomonidan qo'llaniladigan holatlardir.

Tik turgan holat – kurash olib borish uchun zarur bo'lgan, kurashchingning tik oyoqlarda turgan holatidir. O'ng, chap tomonlama, yalpi, past va baland tik turish ajratiladi. Ular yaqin, o'rta va uzoq masofalardan turib qo'llaniladi.

O'ng tomonlama tik turish – kurashchingning (raqibga nisbatan) o'ng oyog'ini oldinga chiqarib turgan holatidir.

Chap tomonlama tik turish – kurashchingning chap oyog'ini oldinga chiqarib turgan holatidir.

Frontal tik turish – kurashchingning tik turishdagi holati bo'lib, bunda uning oyoq kaflari gavdasining yalpi tekisligida turadi.

Baland tik turish – tik turishda butun bo'yini bilan yoki bir oz egilgan holda turgan kurashchingning holatidir.

Past tik turish – kurashchingning tos-son bo'g'imlarida bukilib (oyoqlarni tizzalardan bukkan holda) tik turishdagi holatidir.

Parter holati – kurashchingning tizzalarda va qo'llari bilan gilamga tiralib turgan holatidir.

Parterda pastdag'i va yuqorida kurashchi holatlari ajratiladi.

Ko'priklar – shunday holatki, bunda kurashchi, egilib, peshonasi hamda yelka kengligida yozilgan oyoq kaflari bilan gilamga tiraladi.

#### 2.4.3. Yunon-rim kurashchingning texnik harakatlari

Yunon-rim kurashi texnikasi – kurashchingning g'alabaga erishish uchun qo'llaniladigan, qoidalarda ruxsat berilgan harakatlar yig'indisidir.

Usul – kurashchining g‘alabaga yoki raqib ustidan ustunlikka erishish uchun hujum qilinayotgan kurashchi holatini gilamga nisbatan o‘zgartirishga qaratilgan harakatidir.

Himoyalanish – kurashchining hujum qiluvchi tomonidan amalga oshirilayotgan usulni to‘xtatib qolishga qaratilgan harakatidir.

Qarshi usul – kurashchining raqib usuliga qarshi javob usulini bajarishga qaratilgan harakatidir.

Bog‘lanish – tik turish holatidan boshlanib parter holatiga o‘tish yoki, aksincha, tartibda bajariladigan usullar uyg‘unligidir.

To‘xtatib qolish – kurashchining raqib hujumini to‘xtatib, keyin uni xavfli holatga o‘tkazishga qaratilgan harakatidir.

Bosib turishlar – kurashchining ko‘prik holatida turgan raqib kuragini gilamga tekkazishga qaratilgan harakatidir.

Tashlashlar – tik turish yoki parterda raqibni gilamdan ko‘tarish bilan bajarilgan va uni xavfli holatga tushirib qo‘yadigan usullardir.

O‘tkazish – tik turishda usulni bajarish yo‘llari, buning natijasida hujum qiluvchi raqibini parterga turg‘azadi.

Yiqitish – bu usullar natijasida kurashchi, raqibni gilamdan ko‘tarmasdan turib, uni xafli holatga tushurib qo‘yadi.

To‘ntarishlar – parterdagи usullar, ularni amalga oshirish natijasida kūrashchi raqibni gilmadan ko‘tarmagan holda uni orqasi bilan gilamga ag‘daradi.

Ushlab turishlar – kurashchiga raqibni gilamda orqasi bilan yetgan holatda ushlab turishga yordam beradigan usullar.

Yuqoriga chiqib olishlar – parterda pastdagi holatda turgan kurashchiga yuqoridagi holatga o‘tib olishga yordam beradigan usullar.

## 2.5. Yunon-rim kurashi bo‘yicha tik turgan holatdagi asosiy harakatlari

### O‘tkazishlar

Qo‘lidan tortib – harakat bo‘lib, uning natijasida kurashchi raqibni keskin burib, uning orqasiga o‘tib oladi.

Qo‘l ostidan sho‘ng‘ib – harakat bo‘lib, uning natijasida kurashchi raqibning qo‘li tagidan o‘tib, orqasiga turib oladi.

Qo‘lini bo‘yinga o‘rab – kurashchining aylanib bajaradigan harakati.

Oldinga chiqib o‘tirish bilan – harakat bo‘lib, bunda kurashchi oyoqlarini oldinga uzatib o‘tirish orqali raqib orqasiga o‘tib oladi.

### Yiqitishlar

Zarba bilan – harakat bo‘lib, uning natijasida kurashchi gavdasi va qo‘llari bilan raqibni turtadi.

Qayirib – kurashchining harakati bo‘lib, uning natijasida raqib o‘z bo‘yi o‘qi atrofida buriladi.

### Tashlashlar

Egilib – usul bo‘lib, uning natijasida raqibni gilamdan ko‘tarib, vertikal holatdan gorizontal holatga o‘tkazadi.

Yelkalardan oshirib – usul bo‘lib, bunda kurashchi raqibni qo‘llari, qo‘l va beli, boshi va qo‘li, qo‘lini ikki qo‘l bilan ushlab olib, yelkalardan oshirib tashlash.

Beldan oshirib – usul bo‘lib, bunda kurashchi raqibga orqasi bilan burilish va keyin oldinga egilib yoki oldinga yiqilish hisobiga harakatni bajaradi.

Ko‘krakdan oshirib – usul bo‘lib, bunda kurashchi gavdasini orqaga egib, keyin orqaga yiqiladi.

Qo‘lini bo‘yinga o‘rab – usul bo‘lib, bunda kurashchi gavdasini vertikal o‘q bo‘ylab aylantirib, keyin yiqiladi.

## 2.6. Yunon-rim kurashi bo‘yicha parter holatidagi asosiy harakatlari

### To‘ntarishlar

Qayirib – kurashchining harakati bo‘lib, raqibning umurtqa o‘qi atrofida burish va gilamga orqasi bilan o‘girishga yordam beradi.

Aylana yugirib – harakat bo‘lib, uning natijasida kurashchi raqib boshi atrofida navbatma-navbat qadam tashlab harakatlanib uni gilamga orqasi bilan o‘giradi.

O'tish bilan – harakat bo'lib, uning natijasida kurashchi, raqibni qo'lini kalitsimon ushlab, uning ustidan harakatlanib, gilamga orqasi bilan o'giradi.

Aylantirib – harakat bo'lib, uni bajarish paytida kurashchi, raqibni belidan yoki bel va qo'lidan ushlab "ko'pri" holatiga o'tib, uni o'zining ustidan, oldidan oshirib, o'z boshi tomonga o'giradi.

Ko'krakdan oshirib – harakat bo'lib, uning natijasida kurashchi, "ko'pri" holatiga turib, raqibni gilamga orqasi bilan o'giradi.

Ag'darib – harakat bo'lib, uning natijasida kurashchi raqibni oldinga boshdan oshirib gilamga orqasi bilan o'giradi.

### Usullar elementlari

Ushlab olishlar – qo'llar bilan bajariladigan harakatlар, ular yordamida kurashchi hujum yoki himoyalanishlarni amalgalashish maqsadida raqibning belidan yuqori qismini turishi mumkin.

Nomdosh bo'lmanan qo'lidan ushlab olish – kurashchining o'ng (chap) qo'li bilan raqibning chap (o'ng) qo'lidan ushlab olish.

Nomdosh qo'lidan ushlab olish – kurashchining o'ng (chap) qo'li bilan raqibning o'ng (chap) qo'lidan ushlab olish.

Oldindagi qo'lidan ushlab olish – parterda raqibning hujum qiluvchiga yaqin turgan qo'lidan ushlab olish.

Uzoqdagi qo'lidan ushlab olish – parterda raqibning hujum qiluvchidan uzoq turgan qo'lidan ushlab olish.

Qo'l tagidan bo'yinni ushlab olish – bunda o'ng qo'lni raqibning o'ng qo'li tagidan o'tkazib, bo'yin ustida chap qo'l bilan birlashtirish yoki, aksincha, shu harakatni chap qo'l bilan bajarish.

Qo'ltiqlar tagidan bo'yinni ushlab olish – (parterda orqadan-yondan) ikkala qo'lni raqibning mos qo'llari tagidan o'tkazib, ularni bo'yin ustida birlashtirgan holda ushlab olish.

Richagsimon shaklida ushlab olish – nomdosh bo'lmanan qo'l tagidan qo'lni ushlab olib, yuqoridan raqib bo'ynini ushlash.

Kalitsimon – hujum qiluvchi tomonidan raqibning mos qo'lining tirsakdan bukilgan joyidan tirsak bukilgan joyi bilan ushlab olish va qo'l kaftini yelkaga qo'yish.

Zarb bilan ko'tarish – raqibni tana yordamida o'z oldidan yuqoriga zorbaviy harakat bilan ko'tarish.

### 2.7. Yunon-rim kurashida taktik harakatlar

Yunon-rim kurashi taktikasi – bu bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanishdir.

Hujum uchun tayyorgarlik harakatlari – bu hujum harakatini bajarish uchun zarur bo'lgan raqibning kutilayotgan va himoyalanish harakatini keltirib chiqarish maqsadida bajariladigan kurashchining hujum harakatlaridir.

Taktik tayyorgarlik usullari – kurashchi harakatlari bo'lib, ular yordamida u hujum yoki qarshi hujum uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

Razvedka – kurashchining raqib to'g'risida ma'lumot olishga qaratilgan taktik harakatlaridir. Bunda tashqi va ichki razvedka ajratiladi. Tashqi razvedkada raqib to'g'risida bellashuvgacha davr mobaynida har xil axborot yig'iladi, ichki razvedkada esa aynan bellashuv paytidagi axborot yig'iladi, hamda shularga ko'ra kurashchi harakatini amalgalashish.

Niyatni yashirish – kurashchining taktik harakati bo'lib, uning yordamida u raqibdan o'zining asl niyatlarini yashiradi.

Xavf solish – kurashchining raqibni himoyalanishga o'tishga majbur qiluvchi taktik harakatidir.

Aldamchi harakat (aldash) – hujum qiluvchi tomonidan oxirgiga yetkazilmaydigan va raqibni himoyalanishga majbur qiladigan usullar, qarshi usullar, ushlab olishlar, siltashlar, turtishlar va boshqa harakatlar.

Qo'shaloq aldash – kurashchining taktik harakati bo'lib, haqiqiy usulni raqibga aldamchi usul sifatida ko'rsatadi.

Chorlash – kurashchining taktik harakati bo'lib, shu orqali u raqibni faol harakatlarga o'tishga majbur qiladi.

Teskari chorlash – kurashchining taktik harakati uning faol harakatlarni to'xtatib, raqibni ham shunday harakatlarga chorlash maqsadida amalgalashish.

Cheklab qo'yish – kurashchining raqib harakatlari erkinligini cheklab qo'yadigan taktik harakatlari.

Takroriy hujum – bir xil harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo'lgan taktik harakat. Ushbu ketma-ket uyuştirilgan harakatlar ichida faqat oxirgisi hal etuvchi, qolganlari esa aldamchi harakat hisoblanadi.

Muvozanatdan chiqarish – kurashchining taktik harakati bo'lib, u raqibni nomustahkam holatni egallashga majbur qilish bilan birga kurashchiga hujumni bajarish uchun qulay vaziyatni yaratadi.

Usullar kombinatsiyalari – usullar uyg'unligi bo'lib, bunda boshlang'ich usullar keyingilarini bajarish uchun qulay dinamik vaziyat yaratadi.

#### *Tik turishda amallarni bajarishda kurashchilarining o'zaro joylashuvi:*

- hujum qiluvchi baland tik turishda – hujum qilinuvchi baland, o'rta, past holatlarda;
- hujum qiluvchi o'rta holatda – hujum qilinuvchi baland, o'rta, past holatlarda;
- hujum qiluvchi past holatda – hujum qilinuvchi baland, o'rta, past holatlarda.

#### *Parterda usullar amalga oshirishda kurashchilarining o'zaro joylashuvi:*

- hujum qilinuvchi qornida – hujum qiluvchi yonboshdan, bosh tomondan, oyoq tomondan;
- hujum qilinuvchi ko'prikda – hujum qiluvchi yonboshdan, bosh tomondan, oyoq tomondan;
- hujum qilinuvchi parterda (baland, past) – hujum qiluvchi yonboshdan, bosh tomondan, oyoq tomondan.

#### *Yunon-rim kurashida manyovr elementlari:*

Tik turish holati va parterda o'zaro joylashuvni ma'lum ushlashda almashtirib manyovr qilish vazifasi bilan.

Raqibga muayyan bir ushlashni amalga oshirishiga yo'l qo'ymaslik uchun manyovr qilish vazifasi bilan.

Raqib tomonidan majbur qilingan ushlashdan ozod bo'lish uchun manyovr qilish vazifasi bilan.

O'z ushlashini amalga oshirish uchun *manyovr qilish* vazifasi bilan.

Bir ushlashdan boshqasiga o'tish uchun *manyovr qilish* vazifasi bilan.

Muayyan bir usulni oshirishni tayyorlash uchun o'ng'ay holatni egallash uchun *manyovr qilish* vazifasi bilan.

Topshirilgan usul elementlari bilan bloklovchi harakatlar va ushslashlarni, vazifa asta-sekin murakkablashib boruvchi o'yin vositasi yordamida amalga oshirish uchun *manyovr qilish* (maydonni chegaralash; gandikaplar kiritish va h.k.).

#### *Hujum va bog'lovchi harakatlar:*

Qo'llarni tanaga bosib, bloklovchi ushslash va tayanishlarni o'zlashtirish.

Ushlashlardan ozod qilish usullarini o'zlashtirish:

– *bilakdan uzoqlashganda* – ushlangan qo'l keskin o'ziga tortiladi va uni raqib qo'lining bosh barmog'i tomonga burib, shu zahoti uning bilagi ushlanadi;

– *nomdosh bilak va yelka bog'langanda* – bo'sh qo'l bilan raqibning nomdosh yelkasiga tayaniladi va qo'l tortib olib ozod qilinadi;

– *ikki qo'l bilakdan ushlanganda* – qo'llar o'ziga qaratib keskin tortiladi, ular raqibning bosh barmog'i tomon buriladi va qo'llar ozod qilinib, shu onda uning bilaklaridan ushlanadi;

– *qo'llar yuqoridan bog'langanda* – qo'llar bilan raqib tanasiga tiraladi va raqib qo'llari yuqoridan ushlanadi yoki qo'llar uning qorniga tiraladi;

– *qo'llar pastdan bog'langanda* – ushlab oldingi qo'llar yon tomonlatib pastga tushiriladi va o'tirayotib raqib qo'llari yuqoridan ushlanadi yoki ushlangan qo'l tortib olinadi;

– *nomdosh bo'lmagan qo'l va bo'yindan ushlanganda* – o'tirayotib bo'sh qo'l bilan raqibning qo'li tirsak ostidan urib, bo'yindan tushiriladi, bunda bosh pastga egilib ushlangan qo'l tortib olinadi;

– *bo'yin yelka bilan ushlanganda* (hujum qiluvchining qo'llari birlashgan) – o'tirayotib bo'sh qo'l bilan raqibning qo'li urib tushiriladi va keskin harakat bilan ushlangan qo'l pastga tushiriladi;

– *bo'yin yelka bo'yin yuqoridan ushlanganda*:

a) o'tirayotib, ushlangan qo'Ining bilagi bilan raqibning qorniga tiraladi va bo'sh qo'l bilan uning nomdosh bo'limgan bilaklari ushlab olinadi, orqaga chekinib, ushslash uziladi;

b) raqibning tanasi va o'z bo'ynidagi nomdosh bo'limgan bilagi ushlanadi, unga yaqinroq kelib rostlanadi va ushslash uziladi;

– *tana old tomondan ikki qo'llab ushlanganda* – o'tirayotib kaft bilan raqibning iyagiga tiraladi va chekinayotib ushslash uziladi;

– *tana qo'l bilan ushlanganda* – bo'sh qo'l bilan raqibning nomdosh bo'limgan bilagidan ushlab olinadi va uning qo'liga pastdan bosib ko'tariladi, bir vaqtning o'zida boshqa qo'Ining bilagi bilan hujum qiluvchining qorniga tiraladi, undan ortga chekinib ushslash uziladi;

– *nomdosh qo'l va tana yondan ushlanganda* – qo'l keskin tortilgan va raqib qadam qo'yan onda o'zi uning ortiga qadam tashlaydi va nomdosh qo'li o'z tanasidan olib, unning yonidan ketiladi.

## 2.8. Parter holatidagi usullar

*Qayirib to'ntarish.* O'ng qo'l pastdan va bel (tos) ichkaridan ushlanadi. Vaziyat: hujum qilinuvchi – baland parterda; hujum qiluvchi – yonboshdan, ko'kragi bilan raqib tomonga. Himoya: hujum qiluvchiga orqa tomon bilan yonboshlab yotib, yoziq qo'llari va oyoq chetga suriladi.

*Richag shaklida ushlab, boshni tos bilan siqish.*

Vaziyat: hujum qilinuvchi – baland parterda; hujum qiluvchi – yon tomondan, old oyog'i tayanchda. Himoya: oyoq oldinga yon tomonga chiqariladi, hujum qiluvchiga ko'krak bilan burilib, uning qo'llari bo'yindan olinadi.

*Qarshi usullar:* qo'l yelka tagidan va nomdosh bo'limgan boldir tashqaridan ushlanadi va qayrilib orqaga tashlanadi; qo'l yelka ostidan ushlanib, oyoq kafti bilan ilinib yelka oshirib tashlanadi.

Yugurib o'tib tashlashlar. *Qo'l tos bilan siqib, bo'yin uzoq yelka ostidan ushslash bilan.* Vaziyat: hujum qilinuvchi – qornida, hujum qiluvchi raqibga qarab yonboshda o'tiribdi. Himoyalari yoziq qo'l o'z tanasiga qisiladi; tana og'irligi raqib tomonga tashlanadi; qo'l tizza ostidan olinadi va tanaga siqiladi.

*Iyakdan ushlanib va yaqin tos (qaychi usulida) ilinish bilan.* Vaziyat: hujum qilinuvchi – qornida; hujum qiluvchi – yonboshda raqib tomonga ko'krak bilan. Himoya: tana og'irligi yoziq qo'l va oyoq gilamga tiralib ushlab oldingi oyoqqa ko'chiriladi.

*O'ng tos teskari ushslash bilan.* Vaziyat: hujum qilinuvchi – baland parterda. Himoya: qo'l ushlab olinib, ushlab oldingi oyoq bilan tosga yotish. Vaziyat: hujum qilinuvchi – qornida; hujum qiluvchi – tepadan, raqibga ko'krak bilan. Himoyalari chirmashishga yo'l qo'ymaslik – hujum qiluv-chining oyoq kaftini ushlab olib toslar birlashtiriladi; qo'l tanaga siqilib, ushlangan oyoq orqaga tortiladi.

Usullarning taxminiy kombinatsiyalari:

- qo'l va o'ng tos pastdan-olddan ushlanib qayirib to'ntarish bilan;
- o'z ortiga qayirib, nomdosh bo'limgan yelkani pastdan va bo'yinni olddan ushlab to'ntarish;
- bo'yinni va yoziq boldirni ushlab yumalatib to'ntarish;
- boldirlarni qayirib ushlab yumalatib to'ntarish;
- bo'yin tos bilan ushlab yumalatib to'ntarish;
- yoziq tosni teskari ushlab yumalatib to'ntarish;
- yoziq yelka ostidan bo'yinni ushlab oyoqni chirmab yozish bilan to'ntarish;
- iyakni ushlab oyoqni chirmashish bilan o'tib to'ntarish.


## 2.9. Yunon-rim kurshidagi asosiy holatlar

Yunon-rim kurshida bellashuv tik turgan holatda va parter holatida olib boriladi. Mazkur holatda kurashchilar har xil hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarini amalga oshirishi mumkin.


Tik turgan holatda – frontal, o'ng va chap tomonlama turish mumkin, hamda ularning har biri yuqori, o'rta, past holatga

bo'linadi. Kurashchilar ko'pincha o'rta va yuqori holatdagi tik turishda bellashuvni olib borishadi.

O'ng tomonlama tik turish holatida kurashching o'ng oyog'i chap oyog'iga nisbatan oldinda bo'ladi (1-rasm). Chap tomonlama tik turishda uning aksi, Ya'ni chap oyog'i o'ng oyog'iga nisbatan oldinda bo'ladi. Frontal tik turish holatida – kurashching oyoqlari raqibga nisbatan bir chiziqda bo'ladi (2-rasm).



1-rasm




2-rasm

Kurashching yuqori holatdagi tik turishi – umurtqa pog'onasini bukmasdan, boshni yuqori ko'tarib va raqib ustidan nazorat qilib, faqtgina oyoqning tizza qismi bukilishi mumkin va qo'llarning har xil harakati ko'zga tashlanadi.


Kurashching o'rta holatdagi tik turishi – umurtqa pog'onasi sezilarsiz darajada bukilib, boshni raqibga qaratib, oyoqning tizza qismini bukib va qo'lllar bilan har xil harakatlar ko'zga tashlanadi.

Kurashching past holatdagi tik turishi – umurtqa pog'onasi sezilarli darajada bukilib, boshni raqibga qaratib, oyoqning tizza qismini bukib va qo'lllar bilan har xil harakatlar ko'zga tashlanadi (3-rasm).

Tik turgan holatda quyidagi masofalar mavjud – uzoq (3-rasm), ushlamasdan (4-rasm), o'rta (2-rasm) va yaqin (1-rasm).



3-rasm



4-rasm

Kurashchi har qanday tik turish holatida bo'lgan taqdirda ham o'ziga qulay vaziyatni tanlab, o'zining og'irlik markazini nazorat qilib, oyoq va qo'lllar bilan oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun harakatlarni aniq bajarishi maqsadga muvofiqdir.

Kurashchi har xil harakatlar ta'sirida, Ya'ni gilam bo'yi harakatlanib, oldinga, orqaga va yon tomonlarga harakatlanib, shu bilan bir qatorda raqibning ta'sirida muvozanatini doimiy ravishda yo'qotishi va tiklashi mumkin. Yo'qotilgan muvozanatni raqib o'z foydasiga qo'llamaslik uchun kurashchi gilam bo'yi to'g'ri harakatlanishi lozim. Mazkur harakatlarni shug'ullanuvchilarga boshlang'ich davrda, Ya'ni bazaviy bilimlarni berish davrida o'rgatish zarur. Namuna uchun – oyoqlar bilan qadam tashlab oldinga, orqaga, yon tomonlarga harakatlanish. Bu harakatlarni raqib bilan va raqibsiz, qarshiliksiz va qarshilik bilan amalgalash mumkin.

Bellashuv tik turgan holatdan yotgan holatda davom etishi mumkin. Mazkur holatdagi bellashuv – parter holatidagi bellashuv deb ataladi. Parter holati – kurashching qo'llar va tizzalar bilan gilamga tiralib, yoki qo'llar bilan tiralib va qorinda yotishdir. Shu sababdan parter holati ikkiga bo'linadi – yuqori (5-rasm) va past (6-rasm). Parter holatida asosan past holatda bellashuv olib boriladi. Bellashuv paytida kurashchiga ogohlantirish yoki salbiy baho berilganda yuqori parter holatida turadi va hakamning hushtagidan keyin mazkur holatdan yuqoriga tik turishi yoki pastki parterga turishi mumkin.



5-rasm



6-rasm

Kurashchining xavfli holati – kurashchining ikki kuragi bo'yicha o'tkazilgan vizual chiziq gilamga nisbatan  $90^{\circ}$  dan kam burchak hosil qilgan holat. Xavfli holatdan chiqish uchun kurashchi ko'priq yoki yarim ko'priq holatida turishi mumkin. Ko'priq holatida kurashchining ikki tovoni, peshonasi va qo'llari gilamga teskari tiralib turadi (7-rasm). Yarim ko'priq holatida kurashchi yuqoridagidek holatda, lekin bunda yuzi bilan bir tomoniga qarab, yuzi bilan qaragan tomonagi yelkasi va yonboshi gilamga tegib turadi (8-rasm).



7-rasm



8-rasm

**Ushlashlar va undan chiqish**

Tik turgan va parter holatlarida har qanday texnik harakatni amalga oshirish uchun raqibni ushlash va qoidaga muvofiq ushlab muhim ahamiyat kasb etadi. Kurashchilar asosan uch xildagi qo'llarni biriktirib ushlashni amalda qo'llashadi: 1. Barmoqlarni qarama-qarshi qarmoqsimon ilish (9-rasm); 2. Panjalarni qarama-qarshi qarmoqsimon ilish; 3. Bir qo'l bilan ikkinchi qo'llning bilagini ushlash. Barcha ushlash turlarida tirsak va yelka asosiy hal etuvchi ahamiyatga ega. Ushlashda tirsakning tanaga qanchalik yaqin bo'lishi, shunchalik mahkam bo'lishini ta'minlaydi. Ushlashda barmoqlarning kuchi va chidamkorligi bellashuvda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.




9-rasm




10-rasm

Raqib bilagini, yelkasini, bo'ynini, qo'llig'idan, belidan ushslashlar har xil holatda ushlanishi uchraydi. Ayrim tana a'zolarini ikki qo'l bilan ushslash mavjud. Masalan: bilagini ikki qo'l bilan ushslash; qo'llini ikki qo'l bilan ushslash. Yoki qo'l va bo'ynini ushslash; qo'l va belini ushslash v.b. Ushlashlarni har xil tomonдан ko'rish mumkin. Masalan: oldindan, orqadan, o'ng tomonlama, chap tomonlama, ichkaridan, tashqaridan, old-tepedan va teskari ushslashlar mavjud. Shu bilan birgalikda ushslash qoidalariga zid ushslashlar ham mavjud. Bu holat kurash bilan shugullanuvchilarda faqatgina boshlang'ich davrlarida uchraydi, Ya'ni barmoqlarni qarama-qarshi orasiga kirgizib ushslash (10-rasm).

Yuqoridagi ushslashlardan chiqishning o'z yo'llari yo'q emas. Ularni ushslash turiga qarab ishlatish kerak. Masalan tik turgan holatda bilakri ushlaganda, raqibning barmoqlarining uchi tomonдан zarbaviy harakat bilan qo'llni o'ziga tortib ushslashdan chiqarish mumkin (11-rasm). Yoki parter holatida belni ushlaganda – raqib qo'llari birikkan va ushlagan qismiga qorin mushaklari bilan bosib siljish oqibatida ushslashdan ozod bo'lish mumkin. Agar raqib bir qo'llni ikki qo'l bilan ushlab olganda, uning tirsagini ushlab tortish yo'li bilan chiqish mumkin (12-rasm).




11-rasm



12-rasm

Raqib ushlashidan qutilish yo'llaridan biri bu, uning qanday ushlashiga qarab qarshi texnik harakatni amalga oshirish yo'llaridir. Masalan raqib qo'l va bo'yinni old-tepedan ushlayotganda sho'ng'ib raqib orqasiga o'tish mumkin (13-rasm).



13-rasm

Yunon-rim kurashida ushlashlar juda katta ahamiyatga ega ekanligi bellashuvlarda namoyon bo'ladi. Texnik harakatlarni ushlamasdan amalga oshirib bo'lmaydi, agarda ushlamasdan texnik ballarga ega bo'lgan taqdirda ham, unga raqibning harakatlari yordam berishi mumkin. Mazkur sababga ko'ra, kurashchi zarur ushlashni me'yoriga etkazib ushlagan holda,

raqibga ushlatmasdan o'z texnik harakatlar arsenalidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

### Ko'priq va uning qo'llanilishi

Ko'priq va yarim ko'priq holatlari yunon-rim kurashida muhim rol o'ynaydi. Sababi xavfli holatdan chiqish uchun kurashchi ko'priq va yarim ko'priq holatiga turib keyin chiqishi mumkin. Bunda albatta bosh, umurtqa pog'onasi, oyoq harakatlaridagi ko'priq holatida turish va undan chiqishda foydalilanidigan mushak guruhlarini rivojlantirish kerak. Ularni rivojlantirish uchun bir qator maxsus majmuali mashqlar mavjud:

1. Tizzada o'tirgan holatda boshni o'ng va chap tomonlarga to'rttadan almashtirib tana atrofida aylantirish.

2. Tizzada o'tirgan holatda boshni oldinga, orqaga, o'nga, chapga egiltirishlar.

3. Gilamga bosh, qo'llar va oyoqlarning uchi bilan tiralib, oldinga va orqaga, o'nga va chapga to'rttadan harakatlanishlar(14-15 rasm).



14 rasm



15 rasm

4. Gilamga bosh va qo'llar bilan tiralib turganda, tirsaklarga tizzalarni qo'yib oldinga, orqaga, o'nga va chapga harakatlanishlar.

5. Gilamga bosh va qo'llar bilan tiralib turganda, oyoqlar bilan devorga tiralib oldinga, orqaga, o'nga va chapga harakatlanishlar.

6. Gilamga bosh va qo'llar bilan tiralib tik turganda, oldinga, orqaga, o'nga va chapga harakatlanishlar. Bel, tizza va boldirpanja bo'g'lnlari bukilmasligi shart.

7. Ko'priq holatida oldinga va orqaga harakatlanish. Bunda oldinga harakatlanganda iyakni, orqaga harakatlanganda kuraklarni tekkizish kerak (18, 19, 20-rasmlar).



18-rasm



19-rasm



20-rasm

8. Ko'priq holatida o'ng va chap tomonga qarab, oldinga va orqaga harakatlanish. Bunda oldinga harakatlanganda qo'loqni, orqaga harakatlanganda kuraklarni tekkizish kerak (21-rasm).




21-rasm

9. Ko'priki statik holatda vaqtga bajarish. Iloji boricha oyoqlar bilan oldinga tiralib, iyakni tekkizib, qorinni yuqoriga yo'naltirib.

10. Ko'priq holatida boshni gilamdan ko'tarib, qo'llar va oyoqlar bilan tiralib statik holatda vaqtga bajarish. Iloji boricha oyoqlar bilan oldinga tiralib, boshni tekkizmasdan, qorinni yuqoriga yo'naltirib.

11. Ko'priq holatida sherikni qoringa o'tirg'izib oldinga va orqaga harakatlanish (22-rasm). Bunda sherik muvozanatni saqlash uchun qo'llari bilan kurashchining belini ushlaydi, oyoqlari bilan qo'ltilqlariga tirab o'tiradi.



22-rasm


12. Ko'priq holatida shtanga ko'tarish. Dastlabki holatda shtanga kurashchining ko'kragida, ko'targanda esa gilamga nisbatan perpendikulyar yuqoriga harakatni amalgaga oshiradi.

13. Yarim ko'priq holatida girni bir yondan ikkinchi yonga yuqori ko'tarib o'tkazish va qaytarishlar (23-rasm).




23-rasm

14. Ko'priq holatida bosh tomondagi girlarni bosh tomondan qoringacha olib kelish va qaytarish (24-rasm).




24-rasm

15. Sherikning bo'yinni uzoqdagi yelkani kalitsimon ushlab bosishida boshni yuqoriga ko'tarish (25-rasm).




25-rasm




26-rasm

16. Yuqori parter holatida sherik kurashchining kuragiga teskari o'tirib, oyoqlarini kurashchining oyoqlar ichkarisidan ilib, oldinga va orqaga egilish harakatlarini bajarish (26-rasm).

17. Ko'prik holatida hatlab sakrashlar (27–28-rasmlar).




27-rasm



28-rasm

18. Ko'prik holatida aylana yugurishlar (29, 30-rasmlar).



29-rasm




30-rasm

19. Tik turgan holatdan ko'prik holatiga devor yordamida tushish (31-rasm).




31-rasm

20. Tik turgan holatdan ko'prik holatiga devor yordamida tushish (32-rasm) va bosh bilan gilamga tiralib hatlab sakrab turish (33-rasm).




32-rasm



33-rasm


21. Qoringa yotgan holatda boshni yuqoriga ko'tarib, qo'llar bilan oyoqlarning boldirlaridan ushlab, qorinda statik holatda turish.

22. Ko'prik holatida qo'llar bilan oyoqlarning boldirlaridan ushlab yonga dumalash (34-rasm).




34-rasm

23. Oldinga kerilib qorin orqali dumalash (35-rasm).



35-rasm


24. Sherikning belini ichkaridan teskari ushlab tik turgan holatdan ko'prik holatiga tushish harakatini almashib bajarish (36-rasm).



36-rasm

25. Ko'prik holatida gilamdan debsinib tik turish.

26. Ko'prik holatida girni to'shga qo'yib oldinga va orqaga harakatlanish (37-rasm).



37-rasm



38-rasm

27. Ko'prik holatida girlarni yuqoriga va pastga harakatlanish.

28. Ko'priq holatida girlarni yuqorida ushlab faqat oyoqning tizza bo'g'inini bukish va yozish (38-rasm).

29. Manekenni qo'l va belini ushlab yonga aylanib to'ntarishlar.

30. Ko'priq holatida turgan sherikni old-tepadan tanasining ko'krak qismidan ushlab yon tomonga aylantirib to'ntarish harakatini bajarish.


## 2.10. Parter holatidagi texnik usullarning bajarilishi

### Parter holatidagi to'ntarishlar

To'ntarish usullari parter holatida raqibni gilamdan yuqoriga ko'tarmasdan bajariladigan usullardir. Musobaqalarda to'liq bajarilgan to'ntarishlar ikki ball, to'liqsiz bajarilgan to'ntarishlar bir ball bilan baholanadi. To'ntarishlar quyidagi guruhlarga bo'linadi – qayirib, aylana yugurib, o'tish bilan, ag'darib, aylantirib, ko'krakdan oshirib.


### Qayirib to'ntarish

*Orqa-yon tomondan uzoqdagi qo'lni ushlab qayirib to'ntarish* (39-rasm). Mazkur usulni yuqori parter holatida bajarish maqsadga muvofiqdir. Yuqori parter holatida qo'ltiqdan qo'lni o'tqazish qulay va ko'krak qismi bilan zarb berganda raqib xavfli holatga tushadi. Oxirgi holatda raqibning ikki qo'lini mahkam ushlab, kuraklarini gilamga tekkizish lozim.



39-rasm

*Himoya.* Raqib qo'lni ushlaganda zudlik bilan qayrilayotgan tomonga uzoqdagi oyoqni chiqarib, tirab yuqoriga chiqish mumkin (40-rasm).



40-rasm

*Qarshi usul.* Raqib uzoqdagi qo'lni ushlayotganda qo'ltiqdan o'tqazilgan qo'lni tortib beldan oshirib to'ntarish harakatini amalga oshirish mazkur usulga qarshi usul hisoblanadi (41-rasm). Keyingi varianti agar raqib uzoqdagi qo'lni ushlashga harakatni boshlaganda, o'tkazilayotgan qo'lni ushlab uning bo'yning ikkinchi qo'lning yelka qismining orqasi bilan zarb bilan yiqitish harakati bajariladi (42-rasm).



41-rasm



42-rasm

*Orqa-yon tomondan uzoqdagi qo'lni va bo'yinni ichkaridan ushlab qayirib to'ntarish* (43-rasm). Usulni yuqoridagi usul singari yuqori parter holatida amalga oshirish yaxshi natija beradi. Bunda qo'llarni qarmoqsimon ushlab, Ya'ni bir qo'l raqibning uzoqdagi yelkasini ikki qo'l bilan bo'ynidan mahkam ushlab, ko'krak qism bilan zarb berib amalga oshirish kerak. Bu usulning himoyasi va qarshi usuli yuqoridagi usulga o'xshash.



43-rasm

*Old-tepadan qo'lini teskari kalitsimon ushlab qayirib to'ntarish* (44-rasm).



44-rasm

*Qarshi usul.* Old-tepadan qo'lini teskari kalitsimon ushlab qayirib to'ntarish – yelkalardan oshirib tashlash usulini bajarishga urinish va yuqoriga chiqish (45-rasm). Old-tepadan qo'lini teskari kalitsimon ushlab qayirib to'ntarish – qo'l va belidan ushlab zarb bilan yiqitish (46-rasm). Old-tepadan qo'lini teskari kalitsimon ushlab qayirib to'ntarish – qo'l va bo'ynini ushlab qayirib yiqitish (47-rasm).



45-rasm



46-rasm



47-rasm

*Orqa-yon tomondan uzoqdagi bilakni ushlab yarim aylantirib to'ntarish* (48-rasm). Qarshi usul “orqa-yon tomondan uzoqdagi bilakni ushlab yarim aylantirib to'ntarish – oldinga chiqib o'tirish bilan yuqoriga chiqish” (49-rasm).



48-rasm



49-rasm

*Uzoqdagi qo'l osti-ichkarisidan bo'yingga kalitsimon tiralib qayirib to'ntarish* (50-rasm). Qarshi usul “qo'lini tortib beldan oshirib to'ntarish” (51-rasm). “Orqaga chekinib, raqibning belini ushlab parterga o'tkazish” (52-rasm). “Oldinga chiqib o'tirish bilan zarb berib yiqitish” (53-rasm).




50-rasm



51-rasm



52-rasm



53-rasm


*Bo'yinni qo'ltig'idan o'tkazib va belini pastdan ushlab ag'darib to'ntarish* (54-rasm). Kombinatsiya "uzoqdagi qo'lini va belini ushlab aylantirib to'ntarish – qo'lini teskari kalitsimon ushlab qayirib to'ntarish" (55-rasm).



54-rasm



55-rasm



56-rasm



57-rasm



58-rasm



59-rasm

*Ushlashlarni almashtirish* "qo'lini ichkaridan va belini ushslash – richagsimon ushslash" (56-rasm). "Yuqori parter holatida qo'lini ichkaridan va belini ushlab past parter holatiga tushirish" (57-rasm). "Yuqori parter holatida bilagini ichkaridan richagsimon ushlab past parter holatiga tushirish" (58-rasm). Himoya "parter holatida bilagini ichkaridan richagsimon ushslashni bartaraf etish" (59-rasm).


**Richag bilan to'ntarish** (60-rasm). Himoya “qo'lini tortib, oyoq bilan yonga tiralib yuqoriga chiqish” (61-rasm). Qarshi usul “qo'lini tortib, oyoq bilan yonga tiralib yuqoriga chiqib, zarb bilan yiqitish” (62-rasm). Qarshi usul “qo'lini qo'ltiqdan tortib, boshni yuqoriga ko'tarib aylantirish” (63-rasm). Himoya “tirsagidan tortib, ikkinchi qo'l bilan tanasini to'sish” (64-rasm).




60-rasm



61-rasm



62-rasm



63-rasm




64-rasm

**Uzoqdagi qo'lini ikki qo'l bilan ichkaridan ushlab qayirib to'ntarish** (65 rasm). Himoya “uzoqdagi qo'lni ushlatmaslik” (66-rasm).



65-rasm




66-rasm

*Uzoqdagi qo‘lni ichkaridan va yaqindagi qo‘lni tashqaridan ushlab qayirib to‘ntarish* (67-rasm). Qarshi usul “qo‘lidan tortib parterga o‘tkazish” (68-rasm).



67-rasm



68-rasm

*Old-tepadan yelkalarni yuqoridan ushlab qayirib to‘ntarish* (69-rasm). Qarshi usul “qo‘li va belidan ushlab zarb bilan yiqitish” (70-rasm).




69-rasm



70-rasm

*Qo‘lini kalitsimon va bo‘ynidan ushlab ko‘krakdan oshirib to‘ntarish* (71-rasm). Qarshi usul “qo‘lidan tortib, ikkinchi qo‘lni tirsagi bilan ko‘kragiga zarb berib yiqitish” (72-rasm).



71-rasm



72-rasm

*Belini teskari ushlab qayirib to‘ntarish* (73-rasm). Qarshi usul “raqibning bilagini ushlab oldinga chiqib o‘tirish bilan parterga o‘tkazish” (74-rasm). Qarshi usul “raqibning bilagini ushlab oldinga chiqib o‘tirish bilan beldan oshirib to‘ntarish” (75-rasm).



73-rasm



74-rasm




75-rasm

*Raqibning bilagini ichkaridan va bo'ynidan ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (76-rasm).



76-rasm

*Uzoqdagi raqibning bilagini ichkaridan va bo'ynidan ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (77-rasm).



77-rasm

*Old-tepadan bir yelkani yugoridan va ikkinchi yelkani pastdan ushlab qayirib to'ntarish* (78-rasm). Himoya "yuqoridan ushlagan qo'lini tortib bosh yordamida zarb bilan yiqitish" (79-rasm).




78-rasm



79-rasm


*Old-tepadan yelkalarni yuqoridan ushlab qayirib to'ntarish* (80, 81, 82-rasmlar). Qarshi usul "oyoq bilan tiralib, oldinga chiqib o'tirish bilan parterga o'tkazish" (83-rasm). Qarshi usul "qo'li va belidan ushlab zarb bilan yiqitish" (84-rasmlar).



80-rasm




81-rasm



82-rasm



83-rasm



84-rasm



85-rasm

*Old-tepadan uzoqdagi yelka va bo'yinni ushlab qayirib to'ntarish* (85-rasm).

*Qayirib to'ntarishlardagi oxirgi holat, Ya'ni xavfli holatga tushirish* (86-rasm).



86-rasm

*Old-tepadan yelkalarni yuqoridan va bo'yin ustidan birlashtirib ushlab qayirib to'ntarish* (87-rasm).



87-rasm



*Old-tepadan yelkani yuqoridan va bo'yin ustidan o'tkazib ushlab qayirib to'ntarish* (88-rasm).



88-rasm



*Yon tomondan yaqindagi qo'l va bo'yinni birlashtirib ushlab qayirib to'ntarish* (89-rasm).



89-rasm

*Yon tomondan uzoqdagi qo'l va bo'yinni birlashtirib ushlab qayirib to'ntarish* (90-rasm).




90-rasm

*Yon tomondan yaqindagi bilakni ichkaridan richagsimon va bo'yinni birlashdirib ushlab qayirib to'ntarish* (91-rasm).




91-rasm

*Yon tomondan uzoqdagi bilakni ichkaridan richagsimon va bo'yinni birlashdirib ushlab qayirib to'ntarish* (92-rasm).




92-rasm

*Yaqindagi yelka va belni ushlab o'tish bilan to'ntarish* (93-rasm).



93-rasm

*Yelkani kalitsimon ushlab aylana yugurib to'ntarish* (94-rasm).



94-rasm


*Yelkani kalitsimon ushlab aylana yugurib to'ntarish* (95-rasm). himoya "ushlangan yelkani tanaga yaqinlashtirib ushlashni bartaraf etish" (96-rasm). Qarshi usul "qo'lтиq orqali beldan oshirib to'ntarish" (97-rasm), "Oldinga chiqib o'tirish bilan yuqoriga chiqish" (98-rasm).



95-rasm



96-rasm




97-rasm




98-rasm

*Uzoqdagi bilakni ichkaridan va yaqin qo‘ltiq orqali bo‘yinni ushlab aylana yugurib to‘ntarish* (99-rasm).



99-rasm



100-rasm

*Yaqindagi qo‘lni kalitsimon va belni ushlab aylana yugurib to‘ntarish* (100-rasm).


*Yaqindagi qo‘lni kalitsimon ushlab va bo‘yinga tiralib aylana yugurib to‘ntarish* (101-rasm).




101-rasm

*Yaqindagi qo‘lni kalitsimon ushlab va bo‘yinga tiralib aylana yugurib to‘ntarish* (102-rasm). Qarshi usul “ushlangan


qo‘lni tortib oldinga chiqib o‘tirish bilan yuqoriga chiqish” (103-rasm), “yelka orqali beldan oshirib to‘ntarish” (104, 105-rasmlar).




102-rasm



103-rasm




104-rasm




105-rasm

*Bilak va beldan ushlab bosh bilan zarb berib aylana yugurib to‘ntarish* (106-rasm).



106-rasm

*Bilak va bo‘yindan ushlab aylana yugurib to‘ntarish* (107-rasm).



107-rasm

*Uzoqdagi bilakni ichkaridan va yaqindagi qo'lni kalitsimon ushlab aylana yugurib to'ntarish* (108-rasm). Qarshi usul "bilakni tortib, beldan oshirib to'ntarish" (109, 110-rasmlar).



108-rasm



109-rasm



110-rasm

*Qo'ltiqdan o'tkazib bo'yinga ilib va qo'lini kalitsimon ushlab aylana yugurib to'ntarish* (111-rasm).




111-rasm

*Qo'ltiqlardan o'tkazib bo'yinga ilib ushlab aylana yugurib to'ntarish* (112-rasm). Qarshi usul "qo'ltiq bilan siqib, beldan oshirib to'ntarish" (113-rasm).




112-rasm



113-rasm

*Bilaklarni ichkaridan ushlab aylana yugurib to'ntarish* (114-rasm).



114-rasm

*Yelkalarni tashqaridan biriktirib ushlab aylana yugurib to'ntarish* (115-rasm).



115-rasm

*Qo'lini kalitsimon ushlab o'tish bilan to'ntarish* (116-rasm).  
Qarshi usul "qo'ltiq bilan siqib, beldan oshirib to'ntarish" (117-rasm).



116-rasm




117-rasm

*Qo'lini kalitsimon ushlab va uzoqdagi tirsagiga tiralib o'tish bilan to'ntarish* (118-rasm).



118-rasm

*Yon-tepadan qo'l va bo'yinni biriktirib ushlab ag'darib to'ntarish* (119-rasm).




119-rasm

*Yon-tepadan belni pastdan va bo'yinni ushlab ag'darib to'ntarish* (120-rasm).



120-rasm

*Belini teskari ushlab ag‘darib to‘ntarish* (121-rasm). Himoya “belni teskari ushlaganda, belni raqibdan uzoqroqga olib qochish” (122-rasm). Qarshi usul “bilakni tortib, beldan oshirib to‘ntarish” (123-rasm), “bilakni tortib, oldinga chiqib o‘tirish bilan parterga o‘tkazish” (124-rasm), “belini teskari ushlab ag‘darib to‘ntarish” (125-rasm).



121-rasm



122-rasm



123-rasm



124-rasm



125-rasm



126-rasm

*Yon-tepadan belni pastdan va bo‘yinni qo‘ltiq orqali ushlab ag‘darib to‘ntarish* (126-rasm).

*Old-tepadan belni teskari ushlab ag‘darib to‘ntarish* (127-rasm). Qarshi usul “ikki bilagini biriktirib tortib, boshni yuqoriga ko‘tarib ag‘darib to‘ntarish” (128-rasm).



127-rasm



128-rasm

*Yaqin qo‘ltiq orqali bo‘yinni ilib va belni ushlab ag‘darib to‘ntarish* (129-rasm).




129-rasm

*Belini ushlab aylantirib to‘ntarish* (130, 131, 132-rasmlar). Himoya “aylantirish tomoniga qo‘l va oyoq bilan tiralib, boshni ko‘tarib aylantirish tomonga qarash”. Qarshi usul “bilagini ushlab, aylantirib yuqoriga chiqish” (133-rasm), “oldinga chiqish bilan parterga o‘tkazish” (134-rasm), “yopib qolish” (135-rasm).



131-rasm




132-rasm




130-rasm




133-rasm



134-rasm



135-rasm




*Qo‘li va belini ushlab yarim aylantirib to‘ntarish* (136-rasm).




136-rasm

*Bilagini ichkaridan va belini ushlab yarim aylantirib to‘ntarish* (137-rasm). Qarshi usul “bilakni tortib, beldan oshirib to‘ntarish” (138-rasm).



137-rasm



138-rasm

*Bo'yinni qo'ltiq orqali va belini ushlab yarim aylantirib to'ntarish* (139, 140-rasmlar).



139-rasm



140-rasm

*Qo'lni kalitsimon va belni ushlab yarim aylantirib to'ntarish* (141-rasm).



141-rasm

*Yon-tepadan qo'l va bo'yinni ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (142, 143-rasmlar).




142-rasm




143-rasm

*Yon-tepadan qo'lini ikki qo'l bilan ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (144-rasm).



144-rasm

*Uzoqdagi yelkani ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (145-rasm).




145-rasm

*Yaqindagi qo'lni tashqaridan va uzoqdagi qo'lni ichkaridan ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (146, 147-rasmlar).



146-rasm



147-rasm

148-rasm

*Qo'l va bo'yiqni biriktirib richagsimon ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (148-rasm).



149-rasm



150-rasm


*Qo'lni ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (149-rasm).

*Qo'lni kalitsimon va belni ushlab ko'krakdan oshirib to'ntarish* (150-rasm).


### Parter holatidagi tashlashlar

Parter holatidagi tashlashlar – raqibni gilamdan ko'tarib, Ya'ni raqib tizzalari gilamdan ko'tarilib amalga oshiriladigan usullardir. Bunda aylantirib, beldan oshirib, ko'krakdan oshirib, belni teskari ushlab va egilib tashlash mumkin.


*Qo'lni kalitsimon va belni ushlab yarim aylantirib tashlash* (151, 152, 153-rasmlar). Qarshi usul “raqibning bilagini ushlab, aylantirib yuqoriga chiqish” (154-rasm).



151-rasm



152-rasm



153-rasm



154-rasm


*Raqibning belini ushlab aylantirib tashlash* (155-rasm).




155-rasm

*Belni teskari ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (156, 157-rasmlar). Qarshi usul "bilakni tortib, oldinga chiqib o'tirish bilan parterga o'tkazish" (158-rasm), "ikki bilagini biriktirib tortib, boshni yuqoriga ko'tarib ag'darib to'ntarish" (159-rasm).

*Belni ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (160, 161-rasmlar).



156-rasm




157-rasm



158-rasm



159-rasm




160-rasm




161-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (162-rasm). Himoya "raqibning qorniga qo'l bilan tiralib ushlashni bartaraf etish" (163-rasm). Qarshi usul "bilak va belini ushlab yelkalardan oshirib tashlash" (164-rasm), "bosh va qo'llar bilan qoringa tiralib, yonga qadam tashlab yopib qolish" (165-rasm).




162-rasm



163-rasm



164-rasm




165-rasm

*Qo'lini kalitsimon va belini ushlab beldan oshirib tashlash* (166-rasm).



166-rasm

*Raqibning qo'lini va belini ushlab beldan oshirib tashlash* (167-rasm).



167-rasm

168-rasm

*Raqibning belini ushlab beldan oshirib tashlash* (168-rasm).




169-rasm

*Raqibning belini ushlab bo'yniga ikkinchi qo'lni tirab beldan oshirib tashlash* (169-rasm).


*Yon-tepadan qo'lini va bo'yinni ushlab beldan oshirib tashlash* (170-rasm).




170-rasm




171-rasm



172-rasm




173-rasm



174-rasm



175-rasm



176-rasm

*Kalitsimon ushslash* (171, 172, 173, 175, 176-rasmlar).

*Qo'lni kalitsimon va belni ushslash* (174-rasm).

*Bilakni ichkaridan ushslash* (177-rasm).

*Uzoqdagi bilakni ichkaridan richagsimon ushslash* (178-rasm).




177-rasm



178-rasm

*Belni teskari ushslash* (179-rasm).




179-rasm


## 2.11. Tik turgan holatdagi o'tkazishlar

Tik turgan holatda o'tkazishlar – raqibni tik turgan holatidan parter holatiga tushirish texnik harakatidir. Bunda raqib qo'lini tortib, qo'l ostidan sho'ng'ib, qo'lini bo'yinga o'rab va oldinga chiqib o'tirish bilan harakatlar bajariladi.


*Qo'lini ushlab tortib parterga o'tkazish* (180, 181-rasmlar). Qarshi usul "beldan ushlagan qo'lining bilagini ushlab va ikkinchi qo'lning yelka qismi bilan raqib tanasiga zarb berib o'z o'qining atrofida aylanma harakat bilan qayirib yiqitish" (182-rasm).



180-rasm




181-rasm




182-rasm


*Old-tepadan qo'l va bo'yinni ushlab tortib parterga o'tkazish* (183-rasm). Qarshi usul "bilak va beldan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash" (184-rasm). Himoya "bilakni tortib ushslashni bartaraf etish" (185-rasm).



183-rasm




184-rasm



185-rasm


*Bo'yinni ushlab qo'l ostidan sho'ng'ib parterga o'tkazish* (187-rasm). Qarshi usul "old-tepedan qo'lni pastdan va qo'ltiqni yuqoridan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash" (188-rasm). Qo'l ostidan sho'ng'ib o'tgandan keyingi varianti – "bo'yin va belini ushlab zarb bilan yiqitish" (189-rasm). Qarshi usul "raqibining qo'lini bir qo'l bilan pastdan ikkinchi qo'l bilan yuqoridan ushlab zarb bilan yiqitish" (190-rasm).




188-rasm



189-rasm



186-rasm




187-rasm




190-rasm

*Qo'l va belni biriktirib ushlab qo'l ostidan sho'ng'ib parterga o'tkazish* (191-rasm).




191-rasm

*Qo'lning tirsagini yuqoriga ko'tarib va belni ushlab qo'l ostidan sho'ng'ib parterga o'tkazish* (192-rasm).




192-rasm

*Belni ushlab qo'l ostidan sho'ng'ib parterga o'tkazish* (193-rasm).



193-rasm

*Qo'l va belni biriktirib ushlab sho'ng'ib parterga o'tkazish* (194-rasm).




194-rasm

*Qo'l va belni biriktirib ushlab, yonga qadam tashlab tortib parterga o'tkazish* (195-rasm).




195-rasm

*Qo'lни bo'yinga o'rab parterga o'tkazish* (196-rasm). Qarshi usul "bo'yni o'ralayotgan qo'lning tirsagini uzoqlashtirib, boshini ikkinchi qo'l bilan itarib, qo'lini tortib parterga o'tkazish" (197-rasm), "raqib usulni amalga oshirish uchun qo'lini qo'ltiqdan o'tkazmoqchi bo'lganda, o'sha qo'lini va belini ushlab pastga zarb bilan yiqitish" (198-rasm).




196-rasm

## Tik turgan holatdagi tashlashlar




197-rasm




198-rasm

*Qo'lini pastdan ushlab bo'yinga o'rab parterga o'tkazish*  
(199-rasm).



199-rasm

Beldan oshirib tashlash usulini amalga oshirishda – oldingi va orqadagi oyoqga e'tibor berish katta ahamiyatga ega. Usulni amalga oshirish uchun avval oldinga bir oyoq qo'yiladi, keyin orqadagi oyoqning uchi oldingi oyoqning tashqi yoniga qo'yilib, ikkala oyoq birdaniga uchlarida burilish yasaydi (200-rasm). Agar ikkala oyoq ham frontal holatda bo'lsa burilish qiyinlashadi (201-rasm).



200-rasm

201-rasm


Burilish paytida oyoqlarning tizza qismi bukiladi (taxminan  $120^{\circ}$ - $130^{\circ}$ ). Mazkur harakatni amalga oshirish paytida qo'llar harakati ham muhim rol o'ynaydi. Kurashchilar asosan o'ng tomonga usulni bajarishi sababli o'ng tomonga tashlanadigan "qo'l va bo'yindan ushlab beldan oshirib tashlash" usulini namuna tariqasida ko'rib chiqish mumkin. Bunda raqibning o'ng qo'lining tirsagidan yuqoridan chap qo'l bilan va bo'yidan o'ng qo'l bilan ushlanib usul bajariladi. Yuqoridagi burilishdan oldin kurashchingning chap qo'li raqibning o'ng qo'lini o'z tomoniga tortadi, tortilgan qo'lni iloji boricha o'zining chap qo'log'i tomonga olib, yuzini tashlanayotgan tomonga qaratish lozim. Kurashchi ikkinchi qo'l bilan raqib bo'ynini, Ya'ni tirsak bo'g'iniga ilib ushlashi va tortishi lozim. O'ng qo'l bilan ushlaganda bilak suyakni raqib bo'yning botirib ushslash maqsadga muvofiqdir. Burilib bo'lgandan keyingina raqib kurashchingning ustiga tortiladi, oyoqlarning bukilgan tizzalari tezlik bilan to'g'rilanib, bel bilan yuqoriga zarb beriladi. Havoga ko'tarilgan raqibni boshqarish uning gilamga tushirilishiga ta'sir etadi. Shu sababdan bel bilan zarb berilgandan keyin qo'l va

bo'yinni kurashchi o'zining chap oyog'i tomonga tashlashi lozim. Tashlash amalga oshgandan keyin oxirgi holat, Ya'ni raqibni xavfli holatda qo'l va bo'ynidan ushlab kuraklarini gilamga tekkizish kerak. Mazkur usulni amalga oshirish paytida har doim bir xil xatoga duch kelamiz, Ya'ni kurashchining chap qo'li o'zining qorni orqali o'tkaziladi va o'sha chap qo'lining tirsagi tanasiga yaqin ushlanadi. Kurashchi chap qo'lini iloji boricha o'zining bo'ynigacha ko'tarib, tirsagini yuqoriga ko'tarib usulni bajarishi aniqlashadi. Bu xatolarga e'tibor kuchaytirilishi – usulning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.


Beldan oshirib tashlash usullarini o'rgatish uchun bajarilishi oddiy yaqinlashtiruvchi mashqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ular asosan sherik bilan (202-rasm), imitatsiya mashqlari (203-rasm), maneken bilan (204-rasm), noqulay yiqilmaslik uchun ehtiyyotkorlik choralar (205-rasm) hisoblanadi. Mazkur amallardan keyingina kurashchilarga beldan oshirib tashlash usullarini sherik bilan bajarishga ruxsat beriladi.




202-rasm



203-rasm




204-rasm




205-rasm

*Qo'lini pastdan va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash (206-rasm).*




206-rasm

*Qo'l va bo'yinini biriktirib ushlab beldan oshirib tashlash*  
(207-rasm).



207-rasm

*Bilakni pastdan va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash*  
(208-rasm).




208-rasm

*Qo'lini yuqoridan va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash* (209, 210-rasmlar). Qarshi usul "raqibining qo'l va bo'ynidan ushlab zarb bilan yiqitish" (211-rasm), "belini ushlab sho'ng'ib parterga o'tkazish" (212-rasm).



209-rasm



210-rasm



211-rasm


212-rasm

*Raqibining qo'lini ikki qo'l bilan ushlab beldan oshirib tashlash* (213-rasm).




213-rasm

*Raqibining qo'lini ikki qo'l bilan ushlab tizzalab beldan oshirib tashlash* (214-rasm). Himoya: "tizzalarni bukib qo'l va belini ushslash" (215-rasm), "tashlayotgan tomonga qadam tashlab sakrab o'tish va uzoqlashish" (216-rasm).



214-rasm



215-rasm



218-rasm




219-rasm

*Qo'lini ushlab qo'ltiq orqali beldan oshirib tashlash* (220-rasm).



220-rasm

*Qo'lni yuqoridan va beldan ushlab beldan oshirib tashlash* (217-rasm).



217-rasm

Qarshi usul "raqibining qo'l va belidan ushlab zarb bilan yiqitish" (218-rasm), "Raqibining qo'l va belidan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash" (219-rasm).



221-rasm



222-rasm




223-rasm

*Bir qo'lini yuqoridan va ikkinchi qo'lini pastdan ushlab beldan oshirib tashlash* (224-rasmlar). Himoya: "tizzalarni bukib raqib oyoqlarining orqasidan zarb berib uzoqlashish" (225-rasm).




224rasm



225-rasm

226-rasm

*Bilakdan va beldan ushlab beldan oshirib tashlash* (226-rasm). Qarshi usul: Raqibining belini teskari ushlab ko'krakdan oshirib tashlash (227-rasm).




227-rasm

*Qo'llarni yuqoridan ushlab beldan oshirib tashlash* (228-rasm).



228-rasm

*Qo'lni ikki qo'l bilan ushlab yelkadan oshirib tashlash* (229-rasm).



229-rasm

*Qo'lni ikki qo'l bilan ushlab sho'ng'ib yelkadan oshirib tashlash* (230-rasm).




230-rasm

*Qo'l va bo'ynni biriktirib ushlab teskari tomonga beldan oshirib tashlash* (231, 232-rasmlar). Himoya: "qo'l va bo'ynni biriktirib ushlayotganda tizzalarni bukib, raqibga qo'llar bilan tirilib uzoqlashish" (233-rasm). Qarshi usul "raqibining qo'lini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash" (234-rasm).




231-rasm



232-rasm




233-rasm




234-rasm

*Qo'lni pastdan va bilakni ushlab beldan oshirib tashlash* (235-rasm).




235-rasm




236-rasm

*Bir qo'l bilan qo'lini pastdan ushlab beldan oshirib tashlash* (236-rasm).

*Illi bilagidan ushlab beldan oshirib tashlash* (237-rasm).




237-rasm




238-rasm

*Bir qo'lini yuqoridan va qo'ltiqni yuqoridan ushlab beldan oshirib tashlash* (238-rasm). Qarshi usul "raqibining qo'l va belidan ushlab zarb bilan yiqitish" (239-rasm).




239-rasm

*Qo'lini tortib beldan oshirib tashlash* (240-rasm). Qarshi usul "raqibining belini teskari ushlab ko'krakdan oshirib tashlash" (241-rasm).



240-rasm




241-rasm


*Old-tepadan qo'l va bo'yindan ushlab beldan oshirib tashlash* (242-rasm).

*Belni ushlab egilib tashlash* (243-rasm).

*Qo'l va belni biriktirib ushlab egilib tashlash* (244, 245-rasmlar).



242-rasm



243-rasm


*Qo‘lni yuqoridan va belni ushlab egilib tashlash* (246-rasm).




244-rasm




246-rasm




245-rasm



247-rasm



248-rasm




249-rasm

*Qo‘lni tortib va belni ushlab egilib tashlash* (247-rasm).

*Sho‘ng‘ib qo‘lni va belni ushlab egilib tashlash* (248-rasm).

*Sho‘ng‘ib bo‘ynini va belii ushlab egilib tashlash* (249-rasm).



250-rasm

*Bo‘ynini va belni ushlab egilib tashlash* (250-rasm).



251-rasm


*Sho‘ng‘ib bilagini va belni ushlab egilib tashlash* (251-rasm).

*Bilakni ichkaridan va yelkasini tashqaridan ushlab yelkalardan oshirib tashlash* (252-rasm).



252-rasm

*Qo‘l va belni ushlab yelkalardan oshirib tashlash* (253-rasm). Qarshi usul “bir qo‘lni yuqoridan va ikkinchi qo‘lni pastdan ushlab qadam tashlab zarb bilan yiqitish” (254-rasm).




253-rasm



254-rasm




256-rasm



257-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni biriktirib ushlab yelkalardan oshirib tashlash* (258, 259-rasmlar).



255-rasm

*Bilaklarni ushlab yelkalardan oshirib tashlash* (256, 257-rasmlar).




258-rasm




259-rasm


*Ko'krakdan oshirib tashlash usulidagi asosiy ushslash va usulni amalgalash usulidagi asosiy ushslash – qo'l va belni biriktirish* (260-rasm), *qadam tashlab qo'l va belni biriktirib ushslash* (261-rasm), *ichkariga qadam tashlab qo'l va belni biriktirib ushslash* (262-rasm).



260-rasm



261-rasm




262-rasm

*Ko'krakdan oshirib tashlash usulidagi asosiy yaqinlashtiruvchi mashqlar – sherikning ushlab qolishi bilan orqaga yiqilish* (263-rasm), *tik turgan holatdan ko'priq holatiga tushish* (264-rasm), *orqaga yiqilayotganda qoringa burilib tushish* (265-rasm), *tizzalarini bukib va qo'llarni biriktirib qorin*


*bilan yuqoriga zarb berish* (266-rasm), *ko'krakdan oshirib tashlash usulining imitatsiyasi* (267-rasm), *manekenni qo'l va belidan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (268-rasm), *manekenni qo'l va belidan ushlab qadam tashlab ko'krakdan oshirib tashlash* (269-rasm).




263-rasm




264-rasm




265-rasm




266-rasm



267-rasm




268-rasm




269-rasm

*Bilakni tortib, qo'lni bo'yinga ilib va beldan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (270-rasm).




270-rasm

*Murabbiy ehtiyyotkorligi bilan – qo'l va beldan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (271-rasm). Bunda murabbiyning harakati – hujumni qabul qiluvchining ushlanmagan qo'lini bilak va yelkasidan to'g'ri ushlab, tashlash boshlangandan keyin havodagi trayektoriyasi bo'yicha ushlab borib, gilamga tushishi yaqinlashgan paytda yuqoriga tortib qolish.



271-rasm


*Qo'l va beldan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (272-rasm). Qarshi usul "raqib inersiyasidan foydalangan holda qo'l va beldan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash" (273-rasm). Agar faqat belni ushlab usul bajarilsa, unda "qadam tashlab, qo'llar bilan tashlanayotgan tomonga tiralib yopib tushish" (274-rasm) qarshi usuli amalga oshiriladi.



272-rasm




273-rasm




274-rasm

*Qo'l va beldan ushlab yarim ko'krakdan oshirib tashlash* (278-rasm). Qarshi usul "tashlanadigan tomonga qarama-qarshi egilib, tashlanayotgan tomonga hatlab qadam tashlab yopib tushish" (279, 280-rasmlar).




275-rasm




276-rasm


*Qo'l va beldan ushlab ichkaridan qadam tashlab-osilib ko'krakdan oshirib tashlash* (277-rasm).




277-rasm



278-rasm




279-rasm




280-rasm

*Qo‘lini yuqoridan va belidan ushlab ko‘krakdan oshirib tashlash* (281-rasm).



281-rasm

*Qo‘lini yuqoridan va raqibning belidan ushlab qadam qo‘yib ko‘krakdan oshirib tashlash* (282-rasm).




282-rasm

*Illi qo‘lini yuqoridan biriktirib ushlab osilib ko‘krakdan oshirib tashlash* (283-rasm).




283-rasm

*Qo‘l ostidan sho‘ng‘ib o‘tib belini ushlab ko‘krakdan oshirib tashlash* (284-rasm). Himoya “sho‘ng‘ib orqaga o‘tgandan keyin bilaklaridan ushlab ushlashni bartaraf etish” (285-rasm).




284-rasm




285-rasm

*Qo'l ostidan sho'ng'ib bo'yin va belini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (286, 287-rasmlar).




286-rasm




287-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni biriktarib ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (288-rasm).



288-rasm



289-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (289-rasm).

*Qo'l va bo'yinni ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (290-rasm).



290-rasm

*Raqibning qo'lini tortib va belidan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (291-rasm).




291-rasm

*Raqibning qo'lini tortib va belidan ushlab yarim ko'krakdan oshirib tashlash* (292-rasm).




292-rasm

*Raqibning qo'lini ikki qo'l bilan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (293, 294, 295, 296-rasmlar). Qarshi usul "qadam tashlab yopib-tushish" (297-rasm).




293-rasm




294-rasm



295-rasm



296-rasm




297-rasm

*Qo'lini bo'yinga o'rab tashlash* (298-rasm).




298-rasm

*Sho'ng'ib bilak va belini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (299, 300-rasmlar).




299-rasm



300-rasm

*Old-tepadan bir qo'lini yuqoridan va ikkinchi qo'lini pastdan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (301-rasm).




301-rasm

*Qo'lini yuqoridan va bo'ynidan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (302-rasm).




302-rasm

*Bo'yin va belidan ushlab qadam tashlab ko'krakdan oshirib tashlash* (303-rasm).




303-rasm

*Yon tomondan uzoqdagi qo'lini pastdan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (304-rasm).




304-rasm

*Raqib qo'lini tortib va bo'ynidan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (305-rasm).




305-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni ushlab yarim ko'krakdan oshirib tashlash* (306-rasm).




306-rasm

*Old-tepadan ikki qo'lni pastdan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (307-rasm).



307-rasm

*Ikki qo'lni pastdan ushlab ko'krakdan oshirib tashlash* (308-rasm).



308-rasm


### Tik turgan holatdagи yiqitishlar

Tik turgan holatdagи yiqitishlar – raqibni gilamdan ko‘tarmasdan xavfli holatga yiqitish texnik harakatlari hisoblanadi. Bunda har xil ushlashlar yordamida zarb bilan va qayirib yiqitish mumkin.


*Qo‘l va beldan ushlab zarb bilan yiqitish* (309, 310, 311-rasmlar).



309-rasm




310-rasm




311-rasm

*Beidan ushlab zarb bilan yiqitish* (312, 313-rasmlar).




312-rasm




313-rasm

*Qo‘lni ikki qo‘l bilan ushlab zarb bilan yiqitish* (314, 315-rasmlar).




314-rasm




315-rasm

*Qo'l va bo'ynidan ushlab zarb bilan yiqitish* (316-rasm).




316-rasm

*Sho'ng'ib qo'l va belidan ushlab zarb bilan yiqitish* (317-rasm).




317-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni ushlab zarb bilan yiqitish* (318-rasm).



318-rasm

*Qo'l va bo'ynidan ushlab qayirib yiqitish* (319, 320-rasmlar).



319-rasm


320-rasm

*Sho'ng'ib bilakkardan ushlab qayirib yiqitish* (321-rasm).



321-rasm

*Old-tepadan bo'yinni va qo'lni pastdan ushlab qayirib yiqitish* (322-rasm).



322-rasm

*Ikki qo'lini pastdan biriktirib ushlab qayirib yiqitish* (323-rasm).



323-rasm

#### Xavfli holatda ushlashlar va undan chiqish yo'llari

*Yondan qo'l va bo'yinni ushlab kuragini gilamga tekkizish* (324-rasm), o'ng tomonlama yonboshlab yotgan holatda o'ng oyoq oldinda to'g'ri yozilib, son, boldir va panjaning tashqi qismi gilamga tegib turadi, chap oyoq orqada yarim bukilib, tovon bilan tiralib muvozanatni saqlab turadi.

*Yondan uzoqdagi qo'l va bo'yinni ushlab kuraklarni gilamga tekkizish holatidan ko'prik orqali yonga chiqish* (325-rasm), qo'llarni biriktirib raqib ushlagan tomonga qarama-qarshi tomonga ko'prik yordamida burilib, oyoqlar bilan tezkor harakatlanib qorin tomonga ag'darilish lozim.



324-rasm


325-rasm

*Yondan qoringa yotib qo'l va belni ushlab kuraklarni gilamga tekkizish* (326-rasm), oyoqlar ikki tomonga yoyilib muvozanatni ushlab turadi, raqib belini va qo'lini qo'lтиq va ko'krakka tortib bosiladi.

*Yondan qo'l va belini ushlab kuragini gilamga tekkizish* (327-rasm), yonboshlab ushlangan holatda o'ng oyoq oldinda to'g'ri yozilib, son, boldir va panjaning tashqi qismi gilamga tegib turadi, chap oyoq orqada yarim bukilib, tovon bilan tiralib muvozanatni saqlab turadi.




326-rasm



327-rasm

*Yondan qo'l va belni ushlab kuraklarni gilamga tekkizish holatida – bir hil ushlab ko'prikdan oldinga zarb berib chiqish* (328-rasm), bir xil ushlab va ko'prik holatiga oldinga

tortishganda, raqib boshini yuqoriga ko'tarib tanasini orqaroqda ushslashga harakat qiladi, fursatdan foydalanib, Ya'ni raqib tanasini orqaga tortayotgan paytda chap oyoqni yonga qo'yib tirilib zarb berib raqini xavfli holatga tushirish kerak. Agar raqib mazkur zARBga yiqlmasa, unda yon tononga yotib ko'prik yordamida xavfli holatdan chiqish lozim (329-rasm).



328-rasm



329-rasm

*Yondan qoringa yotib qo'l va belni biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish* (330-rasm), mazkur holatda ushslash ko'proq ko'krakdan oshirib tashlash, zarb bilan yiqtish va to'ntarish usullarini bajarganda vujudga keladi. Bunda oyoqlar ikki tomonga yoyilib muvozanatni ushlab turadi, raqib belini va qo'lini qo'ltiq va ko'krakka tortib bosiladi.



330-rasm



331-rasm

*Yondan qo'l va belni biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish* (331-rasm), bu ushslash qo'l va belni ushlab bajariladigan usullarning oxirgi holati. Asosiy harakat – qo'lni tortib yonbosh va qo'ltiq bilan bosish, hamda oyoqlar bilan gilamga tiralishdir.

*Yondan qo'lni pastdan va belni ushlab kuraklarni gilamga tekkizish* (332-rasm), qo'lni mahkam ushlab pastga tortib bosish va raqibning ag'darilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.




332-rasm




333-rasm

*Yondan qo'lni pastdan va belni ushlab kuraklarni gilamga tekkizish holatidan ko'prik orgali yonga chiqish* (333-rasm), raqibning qo'li va bo'ynidan ushlab yarim ko'prik orgali, oyoqlarga tirilib to'ntarilib harakatni amalga oshirish mumkin.

*Yondan teskari o'tirib bilak va belini ushlab kuraklarni gilamga tekkizish* (334-rasm), kurashchi ikki qo'lini bir-biriga yaqinlashtirib, boshini raqibning oyoqlari tomonga yaqinlashtiradi, oyoqlari bilan yoyib muvozanatni saqlaydi. Mazkur xavfli holatni ushslash ko'pincha qarshi usullarni amalga oshirish paytida vujudga keladi (335,336-rasmlar).



334-rasm




335-rasm



336-rasm

*Old-tepadan orqada qo'llarni pastdan biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish (341-rasm).*



341-rasm

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish (337-rasm).*

*Old-tepadan qo'l va bo'yinni biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish holatidan ko'prik orqali yonga chiqish (338-rasm), raqibni bir xil ushlab yonga ko'prik orqali ag'darilib yuqoriga chiqiladi.*



337-rasm



342-rasm



343-rasm

*Yondan qo'llarni yuqoridan biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish (342-rasm)*

*Old-yondan va tashqaridan qo'llarni pastdan biriktirib ushlab kuraklarni gilamga tekkizish (343-rasm).*



338-rasm



339-rasm

*Old-tepadan qo'lni richagsimon va belni ushlab kuraklarni gilamga tekkizish (339-rasm), oyoqlarni kengaytirib, qorinni gilamga tekkizib va ko'krak bilan bosish maqsadga muvofiqdir.*

*Old-tepadan qo'lni ikki qo'l bilan ushlab kuraklarni gilamga tekkizish (340-rasm).*



340-rasm

### Kombinatsiyalarni amalga oshirish


Parter va tik turgan holatlarda kombinatsiyalarni bajarishda hujumchi avval birinchi usul qo'llashi, birinchi usulga raqib tomonidan himoya, undan keyin raqib tomonidan birinchi usulga himoyasi asosida hujumchi ikkinchi usulni amalga oshiradi. Ya'ni, bunda hujumchi tomonidan bajarilmochi bo'lgan birinchi usulning himoyasi ikkinchi usulni amalga oshirishda qulay vaziyat yaratadi. Mazkur kombinatsiya – ikkita pog'onali kombinatsiya deb hisoblanadi. Bundan tashqari uchta pog'onali, to'rtta pog'onali va undan ko'p pog'onali kombinatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Kombinatsiyalarning ko'p pog'onali bo'lishi kurashchining tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Kurashchi qanchalik yuqori darajali tayyorgarlikga ega bo'lsa, shunchalik darajada ko'p pog'onali kombinatsiyalarni amalga oshiradi. Quyida uch pog'onali kombinatsiyani amalga oshirish grafigi ko'rsatilgan. Bunda vaqt(sekund) va pedagogik baholar nisbatida

beshta harakat, Ya'ni birinchi harakatda hujumchining birinchi texnik usulga kirishi, ikkinchi harakatda hujumni qabul qiluvchining birinchi usulga himoyasi, uchinchi harakatda hujumchining ikkinchi texnik usulga kirishi, to'rtinchi harakatda hujumni qabul qiluvchining ikkinchi usulga himoyasi, beshinchi harakatda hujumchining hal qiluvchi uchinchi texnik usulni amalga oshirishi mujassam etilgan.


Pedagogik baholardan ko'rilib turibdiki, beshinchi hal qiluvchi harakatda hujumchi iloji boricha yuqori darajada ham texnik, ham jismoniy imkoniyatlarini ishlatalishga va raqibga hech qanday imkoniyat qoldirmaslikga uringan.

*Bilakni ushlab qayirib to'ntarish – bilak va belini ushlab yarim aylantirib to'ntarish* (344-rasm).

*Yaqindagi bilakni richagsimon ushlab aylantirib to'ntarish – qo'lini kalitsimon ushlab o'tish bilan to'ntarish* (345-rasm).



344-rasm



345-rasm

### *O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:*

1. Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligiga ta'rif bering.
2. Yunon-rim kurashchilarining umumiylari maxsus jismoniy tayyorgarliklari o'rtasidagi farq nimada?
3. Yunon-rim kurashchilarida texnik mahoratni egallash deganda nima tushuniladi?
4. Sport kurashida "tiklanish" deganda nimani tushunasiz?
5. Yunon-rim kurashida texnik usullar bilan texnik harakatlarni o'zaro farqi nimada?
6. "Usul" deb nimaga aytildi?
7. Harakatlanishdagi xatolar nechtaga bo'linadi va ularni aytib bering?
8. Yunon-rim kurashida tasniflash, tizimlashtirish va atamalar nima uchun zarur?
9. Yunon-rim kurashida tasniflash deganda nimani tushunasiz?
10. Yunon-rim kurashida tizimlashtirish deganda nimani tushunasiz?
11. Yunon-rim kurashida atamala deganda nimani tushunasiz?
12. Yunon-rim kurashida asosiy texnik usullarning tasnifiy sxemasi yordamida nimani o'rganish mumkin?
13. Tik turgan holatdagi texnik usullar qanday guruhlarga ajratiladi?
14. Parter holatdagi texnik usullar qanday guruhlarga ajratiladi?
15. Usul, himoya, qarshi usul va kombinatsiyalarga ta'rif bering.

### *Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

- Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2001.  
 Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2005.  
 Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2009.  
 Кожарский В.П., Сорокин Н.Н. Техника классической борьбы. М.: ФИС, 1978.

Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999.

Петрунев А.А. и др. Подготовка квалифицированных борцов классического стиля. Красноярск, 1988.

Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.

Современная система спортивной подготовки. Под. ред. Суслова Ф.П. и др. -М., 1995.

Tasatnov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2015.

Tasatnov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent, 2017.

Атаев А.К. Средства и методы подготовки подростков и юношней по борбе кураш. Т., 1982.

Галковский Н.М., Катулин А.З., Чионов Н.Г. Борба классическая и волная. М., 1952.

Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Волная борба. Т., 1987.

Кожарский В.П., Сорокин Н.Н. Техника классической борбы. М., ФИС, 1978.

Купсов А.П. Эволюсия и применение классификации, систематики и терминологии спортивной борьбы. М., 1980.

Петров Р., Добрев Д., Берберов Н., Макавеев О. Свободна и классическа борба. София, 1977.

Спортивная борба. Учебник для ИФК. Под ред. Н.М. Галковского и А.З. Катулина. М., 1968.

Спортивная борба. Учебник для ИФК. Под ред. А.П. Купсова. М., 1978.

Тастанов Н., Абдиев А., Боймуродов И. Греко-римская борба. Т., 2007.

### III BOB. YUNON-RIM KURASHCHILARNING TEHNİK-TAKTIK MAHORATLARINI OSHIRISH USLUBIYATI

#### 3.1. Yunon-rim kurashchilarining umumiy va maxsus

##### jismoniy tayyorgarliklari

##### Amaliy mashg‘ulotlar

Saflanish va tartib mashqlari: saf komandalar haqida umumiyl tushuncha, turgan joyida va harakat vaqtida burilishlar, saf orasi ochilishi va birlashuvchi, harakat kuchi o‘zgarishlari, harakat vaqtida to‘xtash.

Gimnastika tipidagi umum o‘siruvchi mashqlar: turgan joyda va harakat vaqtida buyumlar bilan va buyumlarsiz mashqlar, qarshilik ko‘rsatish mashqlari, arqon tortish, sherik bilan mashq qilish. Gimnastik zaryadka va razminkalar: gimnastika devorida, skameykada, arqonda, xoda ustida, yakka-cho‘pda turli xil qo‘sishimcha moslamalarda mashq qilish, sakrash mashqlarini bajarish.

Akrobatik mashqlari: oldinga va orqaga umbaloq oshmoq, uzunlikka, balandlikka, qo‘sishimcha to‘siqlar yoki sherigi ustidan umbaloq oshmoq, o‘ng va chap yelka orqali umbaloq oshishlar. Yon tomon bilan ag‘darilish, boshdan o‘zini to‘g‘irlab turmoq, oldinga ag‘darilish. Juft bo‘lib oldinga va orqaga umbaloq oshishlar va shu kabilar. Pastdan va yuqorida qo‘llarga tayanib ustidan ag‘darilish, oldinga va orqaga salto.

Yunon-rim kurashchining maxsus mashqlari: bo‘yin muskullarini mustahkamlash mashqlari, boshni aylantirib va aylantirmasdan ko‘prik holatida turib harakatlar qilish; og‘irlashtirgich (qop, taskara, sherik, toshlar, shtangalar bilan ko‘prik holatida mashqlar bajarish; ko‘prik holatida boshga tayanib aylanish; tik turgan joyda ko‘prik holatini egallash; bosh bilan ag‘darilib xuddi shu mashqni bajarish; ehtiyyot chorasini ko‘rib yiqilish; yiqilishni mashq qilish; orqaga yiqilish; umbaloq oshish uchun orqaga yiqilish; oldinga umbaloq oshish; o‘ng va chap yelka orqali umbaloq oshish; qo‘l panjalariga tayangan holda ko‘krak bilan yiqilish; o‘tirgan holda, to‘liq cho‘kkalagan holda orqaga yiqilish, tokcha ortidan va o‘tirgan sherik ustidan chap va o‘ng tomonga orqa bilan yiqilish; xuddi shunday qilib yog‘och

tomonga yuz bilan – qo'lllar bilan ehtiyot chorasi ko'rib yarim salto qilish; sherik yordamida yon tomonga yiqilish.

Texnik usullarni bajarishda tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi quyidagi bir qator usullarda amalgalashiriladi:

- shartli raqib qarshiliginining uslubiy usuli sportchiga texnik harakatni bajarish tuzilmasi va maromini takomillashtirishga, barqarorlik va natijalilikka tezroq erishishga yordam beradi;

- qiyin dastlabki holatlar va tayyorgarlik harakatlarining uslubiy usuli. Masalan, egilib tashlashni takomillashtirishda ushlab olish joyi va kurashchilar o'rtasidagi masofani o'zgartirish lozim;

- usullarni bajarish uchun joyni cheklash uslubi malakani takomillashtirishda mo'ljallangan shartlarini murakkablashtirishga yordam beradi. Kurashda kichraytirilgan o'lchamdagisi gilamlar qo'llaniladi.

Texnik harakatlarning bajarilishini qiyinlashtiruvchi sportchi organizmining turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubni ham turli xildagi usullarda amalgalashiriladi.

Harakatni ancha toliqqan holda bajarishning uslubiy usuli. Bu holda katta hajm va shiddatdagi jismoniy nagruzkadan keyin sportchiga texnikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar taklif qilinadi.

Nazorat o'quv-mashg'ulotlar bellashuvlari o'tkazilgandan so'ng katta emotsiyal zo'riqish holatida harakatlarni bajarishning uslubiy usuli.

Vaqti-vaqt bilan ko'rishni ta'qilash yoki cheklashning uslubiy usuli harakatlanish malakasining retseptorli-analizatorli tarkibiga tanlab ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Musobaqa vaziyatida ayrim usullar yoki harakatlarni majburan bajarish uslubi malakani takomillashtirish jarayonida kurashchi faolligini rag'batlantiradi. O'quv-mashg'ulotlar bellashuvlarida kurashchi himoyaning texnik usullari, yoki aksincha, hujum usullariga ko'proq diqqatni toplashga ko'rsatma oladi.

Kurashchining jismoniy tayyorgarligi sport trenirovkasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.

Jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Sportchilar sog'lig'i darajasi va ular organizmi turli tizimlarning funksional imkoniyatlarini oshirish.

Jismoniy sifatlarni sport kurashining o'ziga xos xususiyatiga javob beradigan birlikda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy, yordamchi va maxsus tayyorgarlikka bo'linadi.

Yunon-rim kurashchisining umumiy jismoniy tayyorgarligi yuqori natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U asosan quyidagi vazifalarni hal etilishini ta'minlaydi:

Yunon-rim kurashchisining organizmini har tomonlama garmonik rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Salomatlik darajasini oshirish.

Shiddatli trenirovka va musobaqa nagruzkalari davrida faol dam olishdan to'g'ri foydalanimish.

### **3.2. Sport kurashida texnik tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy nazariy va amaliy tavsiyalarning ahamiyati**

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlashda maqsadga muvofiq rejalashtirilgan texnik tayyorgarlik texnik-taktik mahoratini shakllantirishda va musobaqa davomida yuksak natijaga erishishda nihoyatda muhim omillardan biridir. Lekin, sport amaliyotida har doim ham rejalashtirilgan kutilgan natijani bermaslik holatlari tez-tez uchrab turadi. Buning asosiy sabablaridan biri mashg'ulotlarda qo'llanilgan u yoki bu texnik mashqlarning hajmi va muddati hamda ushbu ko'rsatkichlarni shug'ullanuvchilar organizmiga ta'sir etish darajasi obyektiv ravishda baholanmasligidadir.

Yunon-rim kurashida sportchining texnik harakatlari ko'p va turli-tumanligi sababli u boshqa sport turlaridan farq qiladi. Yunon-rim kurashchisining texnik harakatlarini tartibga solish va ushbu sohada mutaxassislar o'rtasida muloqot qilish imkonini yaratish uchun kurash texnikasining tasnifi, tizimi hamda atamalari ishlab chiqilgan. Sport sohasiga oid ilmiy uslubiy adabiyotlarda ushbu muammoga alohida e'tibor qaratilgan

(G.S.Tumanyan 1985; A.N.Lens 1964; N.N.Sorokin 1969; A.P.Kupsov 1978; A.A.Novikov; V.S.Daxnovskiy va boshqalar, 1991-yil, F.A.Kerimov 1993, 2001, A.A.Ruziyev 1999, N.A.Tastanov 2015, 2017 va boshqalar).

So'ngi yillarga kelib olimlar o'rtasida yuqori malakali sportchilarini tayyorlashda texnik tayyorgarlikni o'rni, jumladan ag'darish, to'ntarish, ushslash texnikasining taogarlik mashqlarining bir biriga uzviy bog'likligini hamda ularni sport mahoratiga bo'lgan ta'siri haqidagi muammolar tobora katta qiziqish uyg'otib bormoqda(V.M.Dyachkov 1976; V.M.Zatsiorskiy 1970; YU.V.Verxoshanskiy 1988; Platonov 1986; M.A.Godik, V.P.Filin 1987; F.A.Kerimov 2001, N.A.Tastanov 2015, 2017 va boshqalar). Avvaldan isbot qilinganki texnik harakatlarni bajarishni takomitlashtirib, shakllantira borish sportchining tayyorgarligiga ijobiy ta'sir etadi. A.V.Zinkin 1974; A.V.Korobkov 1961; A.B.Gandelsmak, K.M.Smirnov 1966; V.S.Farfel 1975; V.P.Filin 1987; M.A.Godik 1977 va boshqalar.

So'z texnik tayyorgarlik va xususan sportchilarini tayyorlashda texnik harakatlarni bajarishning bir biriga bog'lab shakllantirish muhimligi haqida borar ekan, bu borada texnik harakatlardan yunon rim kurashidagi hali ushslashlarga alohida urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa yunon-rim kurashiga oid hali ushslashlarning o'rni beqiyos. Bu borada taniqli tadqiqotchi olim YU.V. Verxoshanskiy (1985) diqqatni jalb qiluvchi o'ta muhim ma'lumotlarni keltiradi. Chunonchi, sportning yakkakurash turlarida texnik mahoratning nisbatan farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bu o'zgaruvchan musobaqa vaziyatida texnik harakatlar asosida ijro etiluvchi murakkab harakat malakalaridir. Aynan shu harakat hal qiluvchi vaziyatlarda o'z yetakchiligini namoyish etadi. Shu bilan bir qatorda uzoq muddat davom etadigan musobaqa jarayonida texnik malakalarni yuqori samarada ijro etish birinchi navbatda maxsus chidamkorlik sifatiga bevosita kuzatuvlarga qaraganda yunon-rim kurashi bo'yicha jahon championati ishtirokchilarining musobaqa davomida ijro etgan texnik malakalari olishuvchining 3-davrida

o'z samarasini keskin susaytirgan. Ushbu vaziyat ana shu kurashchilarining maxsus texnik tayorgarligining yuqori darajada shakllanmaganligiga e'tibor qaratadi. Demak, bundan ko'rinish turibdiki, texnik mahorat samarasini musobaqalar davomida uzoq vaqt saqlab turishda maxsus chidamkorlik sifati o'rinni egallaydi. Ma'lumki, maxsus chidamkorlik umumiyligi chidamkorlik yaxshi rivojlangan holda samarali shakllanishi isbot qilingan.

A.N.Lens (1960) ning fikricha maxsus chidamkorlikni rivojlantirish uchun kurashchi maxsus texnik mashqlarni uzoq vaqt davomida hatto charchash asoratlari mavjud bo'lganda ham, ijro etishi kerak bo'ladi. Umumiy chidamkorlik o'rtacha shiddatda ko'p hajmli mashqlarni (uzoq masofaga chopish, eshkak eshish, suzish, velosiped xaydash va xakozo) surunkasiga bajarish asosida shakllantiradi.

N.N. Sorokin(1969.) – yunon-rim kurashchisining maxsus chidamkorligi samarali rivojlantirishda asosiy vositalardan biri gilam ustida ijro etiladigan olishuv usullari texnik malakalardir deb e'tirof etadi.

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlashda va texnik mahoratni shakllantirish egiluvchanlik sifati ham zarur omillardan biridir, yuqori darajada rivojlangan egiluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan kurashchi "most" holatidan keskin xafli vaziyatdan xolos bo'lish, egilib ko'tarib tashlash kabi texnik malakalarni mohirona ijro etishga tuyassar bo'ladi.

Egiluvchanlik asta-sekin, uzoq muddatli mashg'ulotlar evaziga shakllanadi,. Agar egiluvchanlikni rivojlantirishga oid mashg'ulotlar biroz to'xtatib qo'yilsa, bu sifat keskin yo'qolib ketishi yoki susayishi mumkin.

Yunon-rim kurash kurashida qo'llanadigan usullar (texnik) malakalarni o'zi egiluvchanlik shakllantirib boradi. Lekin, buning o'zi ushbu sifatni to'liqli rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Bu sifat samarali takomillashtirish uchun mushak, pay, bo'g'imlarni cho'zish, egish, yoyish, siqish, burash kabi maxsus mashqlarni sekin-asta muntazam qo'llash kerak bo'ladi.

Egiluvchanlikni yoshlikdan boshlab shallantirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda bu sifatni rivojlantirish

ehtiyojkorlikni talab qiladi. Shiddat va keskin tarzda qo'llaniladigan mashqlarni – mushak, pay, bo'g' imlami cho'zish, egish, yoyish, siqish, burash. Maxsus mashqlarni sekin-asta muntazam qo'llash kerak bo'ladi.

Egiluvchanlikni yoshlikdan boshlab shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda bu sifatni rivojlantirish ehtiyojkorlikni talab qiladi. Zo'rma-zo'raki va keskin tarzda qo'llangan mashqlar mushak, pay, bo'g' imlarni shikastlanishiga, hatto og'ir jarohatga olib kelish mumkin (V. N. Platonov, 1986).

Bernshteyn Y.U.L.(1947,1966,), Faygenberg V.N.(1991) fikricha texnik tayyorgarlikdagi boshqa sifatlar – chidamlilikni va tezlikni sekundda, kuchni kilogramda, egiluvchanlikni gradusda yoki pedagogik baholarda o'lhash mumkin, lekin shu bilan birga chaqqonlik sifatining o'lhash birligi mavjud emas deb ta'kidlaydi. Mazkur sifatni boshqa sifatlar aralashmasida aniqlash mumkin. Ya'ni, murakkab harakatlarni ma'lum vaqt mobaynida yoki ma'lum marotaba bajarish mumkinligi to'g'risida fikr beradi.

Yunon-rim kurashchilarini tayyorlashda va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Ta'kidlab o'tish joizki, o'quv-trenirovka jarayonida barcha texnik sifatlarni garmonik ravishda rivojlantirish mahoratli kurashchilarini tayyorlash garovidir.

Sport texnikasini o'rgatish usullari harakat unsurlarini (bosqichlar, bo'g'imlar harakati) tahlil natijasida alchida ayirib ko'rsatishiga imkon beradigan kinematik va dinamik xususiyatlari harakatlar tavsifining qayd etishning xilma-xil yo'llarini o'z ichiga oladi. Sport texnikasi unsurlarini zarur hollarda qo'llanadigan boshqa usullar (elektromiografiya, tonometriya, pnevmografiya va.b.) bilan o'zaro aloqada tekshirish harakatlarining tuzilishining sintetik jihatdan qayta tiklash, yaxlit harakatda texnika usullarining tutgan o'rni va o'zaro bog'lanishlarini ochib berish, harakatlari bajarilayotgan shart-sharoitlar ahamiyatini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Sport texnikasini o'rganishning muhim yo'llaridan biri qiyosiy usul bo'lib, u sport-texnik mahoratni tarkibiy qismlarini (sport ustasi va boshlochi sportchining texnikasi), sport

takomillashuvi dinamikasini (texnik mahoratini takomillashtirish bosqichlari bo'yicha darajasi), alohida xususiyatlarni jismoniy rivojlanish darajasi va jismoniy tayyorganlikning model ko'rsatkichlari bilan taqqoslash texnikasining tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon beradi<sup>9</sup>.

Kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Kurashchining umumiyligi va maxsus texnik tayyorgarligi ajratiladi. Umumiyligi texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda ko'nkmalarini egallahsga, maxsus texnik tayyorgarlik sport kurashida texnik mahoratga erishishga qaratilgan.

Sport kurashida texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan:

Sport texnikasini takomillashtirish kurashchilarining ko'p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi va u tanlangan kurash turida texnik mahoratni oshirishga qaratiladi.

Texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallah tushuniladi.<sup>10</sup>

Texnik tayyorgarlik sport turi xususiyatlarga xos va yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi harakat tizimlarini sportchi tomonidan o'zlashtirilishidir. Texnik tayyorgarlikka yuzaki yondashib bo'lmaydi. Uni sportchining jismoniy, ruhiy, taktik va boshqa imkoniyatlar hamda sport faoliyatida bajariladigan tashqi muhitning aniq sharoitlari bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butunlik sifatida qabul qilish lozim (V.N.Platonov).<sup>11</sup>

Yunon-rim kurashi texnikasi – bu musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalananishlar yig'indisidir.<sup>12</sup>

<sup>9</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқикотлар. : Тошкент – “ЗАРҚАЛАМ” -2004 й 120 бет

<sup>10</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 9 bet

<sup>11</sup> Ахмадова Н.И. -- Теннис – спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2014 й. Ўқув-услубий кўлланма. 6 бет

<sup>12</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 9 bet

Kurash taktikasi – bu musobaqlarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to‘g‘ri olib borishda ma’lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan.

Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchida musobaqada g‘alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko‘rsatish maqsadida sport bellashuvini to‘g‘ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Sport taktikasini egallash jarayonida bir qator xususiy vazifalar hal qilinadi.

Sportchi:

- musobaqa vaziyatini shunday qabul qilishi va tahlil qilishi lozimki, ushbu vaziyatdan kelib chiqadigan taktik vazifalarni tushuna bilishi hamda qisqa vaqt ichida uni xayolan va harakat bilan hal etishi zarur;

- musobaqada o‘z kuchidan shunday foydalanishi kerakki, raqib ustidan g‘alaba qozonish maqsadida, uni oxirgigacha safarbar qila olishi lozim;

- to‘satdan o‘zgarib qolgan vaziyatlarda bellashuv rejasini mustaqil o‘zgartira olishi kerak.

N.M.Galkovskiy (1972) fikricha, kurashda ko‘pincha oddiy hujum harakatlari emas, balki murakkablar muvaffaqiyat keltiradi. U o‘tkazgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, usul tuzilmasidan darhol boshlanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum kamdan-kam maqsadga erishadi. Odatda, qulay dinamik vaziyatni tayyorlash uslubi hamda hujum usuli tuzilmasi yaxlit harakatga, Ya’ni harakat ansambliga qo‘shilib ketadigan hujum harakatlari muvaffaqiyat keltiradi.

Usulni amalga oshirish uchun taktik tayyorgarlik usullarini guruhlarga tasniflashni birinchi bor A.N.Lens (1967) ishlab chiqqan. Tasnifga muvofiq usullar (ular yordamida texnik harakatlarni amalga oshirish uchun qulay bo‘lgan sharoitlar yaratiladi) uchta guruhga bo‘linadi:

Asosiy usulni samarali bajarishda tayyorlov harakatlari katta ahamiyatga ega, shuning uchun ular uzviy bog‘liqlikda takomillashtirilishi lozim. Takomillashtirishda asosiy qiyinchilik harakatning bir turidan ikkinchisiga o‘tish tarzda yuzaga keladi (A.A.Novikov, 1966). Mahorat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, bunday bog‘liqliklar kam ko‘zga tashlanadi (A.V.Rodionov, 1971).<sup>13</sup>

O‘z vaqtida ilmiy texnik rivojlanishni amaliyotga kiritish, ko‘pincha sportchini tayyorlashni natijasiga ta’sir ko‘rsatadi.<sup>14</sup>

Takidlash joizki, har bir sport turiga oid harakat malakalari ham o‘z texnik ko‘rsatkichlari, o‘lchamlari va ularni ijro etishda o‘ziga xos texnik tartibga asoslangan. Boshqacha qilib aytganda, sportchi muntazam shug‘ullanish natijasida musobaqada ishtrok etadi va o‘zining texnik mahorati darajasi tufayli ma’lum o‘rinni egallaydi, texnik pasportini esa sekin-asta yangilab boradi.<sup>15</sup>

Qo‘yilgan maqsadga erishmoq uchun bellashuvda xilma xil tarzda uyg‘unlashtirib qo‘llaniladigan maxsus usullar to‘plami sport texnikasini tashkil etadi.

Texnik usullar yuksak sport natijalariga erishish, ko‘pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda bellashuv faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan, samaraliy qo‘llay bilishiga bog‘liq.<sup>16</sup>

Yosh sportchilarning texnik malakalarining rivojlantirish amaliy mashg‘ulotlar davomida muhim o‘rin egallaydi. Amaliyotdan malumki, yosh sportchilarni texnik usullarga o‘rgatish natijalari bir xil emas. Tafovut texnik usullarning sportchilar tomonidan qay tarzda egallanishi va faollanilishida namoyon bo‘ladi.<sup>17</sup>

<sup>13</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2015 y. 193 bet

<sup>14</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Ташкент 2005 й. Ўқув кўлланма. 234 бет.

<sup>15</sup> Пўлатов А.Л.- Ташкент 2009 й. Ўқув-услубий кўлланма. 12 бет

<sup>16</sup> Акромов Р.А. – Футбол. Ташкент 2006 й. Дарслик. 27 бет

<sup>17</sup> Нуримов Р.И., Абидов Ш.У., Нуримов З.Р., Давлетмуротов С.Р. – Спорт ва миллий ўйинлар (футбол). – Ташкент 2015 й. Дарслик. 73 бет

Yuqori malakaliy sportchilarni tayyorlash yuqori darajada ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi samaradorligiga bog‘liq.<sup>18</sup>

Malakaliy sportchini tarbiyalash, sportchilar har tomollama tayyorgarligining murakkab va ko‘p mexnat talab etiladigan jarayoni hisoblanadi. Sportda yuqori natijaga erishish uchun oqilona texnikani egallash va uni harakat malakalarida mustahkamlash birinchi darajaliy ahamiyatga ega.

Sport texnikasi – bu jangni muvaffaqiyatlari olib borish uchun sportchiga zarur bo‘lgan maxsus usullar majmuasi. U sportchiga turli jangovor vaziyatlarda muayyan taktik vazifalarni jang olib borish qoidalari vazifasida xal etish imkonini beradi.<sup>19</sup>

Sport musobaqalarida kechadigan har bir bellashuv jarayoni o‘zining provard maqsadiga ega bo‘lishi shart. Ushbu maqsad o‘z navbatida avvaldan belgilab olingen muayyan taktik strategik vazifalar asosida amalga oshiriladi. Albatta, bunday maqsad va vazifalarni qo‘yish hamda ularni amalda samaraliy xal qilish sportchida shakillangan texnik va taktik mahorat, jismoniy, funksional va psixologik tayyorgarlikni talab qildi. Maskur sifatlar esa ko‘p yillik trenirovka jarayonida sayqal topadi. Ammo, takidlash joizki, musobaqalarda qo‘yiladigan yuksak taktik strategik vazifalarni muvaffaqiyatlari xal qilish faqat to‘g‘ri tashkil qilingan mashg‘ulotlar evaziga va, albatta, o‘yin tajribasi hisobiga amalga oshirilishi mumkin.<sup>20</sup>

Yuksak sport natijalariga erishish ko‘p jihatdan sportchining ana shu xilma-xil vositalarini qanchalik to‘liq bilishiga, raqib jamoa o‘yinchilari qarshilik ko‘rsatayotgan, qo‘pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda o‘yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan, samaraliy qo‘llay bilishiga bog‘liq. Sport texnikasini yaxshi bilish sportchilarning

har tomonlama tayyorgarlik ko‘rishi va mutanosib kamol torishi jarayonining ajralmas qismidir.<sup>21</sup>

Sportchilarning musobaqalarda ishtrok etishi faoliyati ularni muayyan sport turiga xos bo‘lgan harakat malakalarini maromiga yetkazib bajarishlarini taqozo etadi. Harakat malakalarini ijro etish texnikasi qanchalik takomillashgan bo‘lsa, musobaqa qada g‘alabaga erishish imkoniyati shunchalik keng bo‘ladi.

G‘alabaga erishish bu musobaqaning asosiy maqsadidir. Lekin bunday maqsad cho‘qqisini zabit etish imkonni faqat o‘rgatish va texnik tayyorgarlik jarayonlarining samarasiga bog‘liq.

O‘rgatish va umuman sport tayyorgarligi jarayoni sport o‘yinlari turlarida o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, sport o‘yinlariga o‘rgatishni zamонавиъ nazariy va uslubiy asoslariga tayangan holda amalga oshirilishi zarur.<sup>22</sup>

3 razryad olgan sportchi musobaqalarda muntazam qatnashishini boshlaydi va jangovor tajriba orttira boradi. Sport takomillashuvining bu bosqichida u o‘quv-mashg‘ulot ishi va musobaqalarni birga qo‘shib olib boradi, sport faoliyatini esa shunday rejalshtiradiki, sport mahoratini doimo oshirib borib, har doim musobaqalarga tayyor turish lozim.<sup>23</sup>

Texnik tayyorgarlik sport turi xususiyatlari xos va yuqori natijalarga erishishni ta‘minlovchi harakat tizimlarini sportchi tomonidan o‘zlashtirilishidir. Texnik tayyorgarlikka yuzaki yondashib bo‘lmaydi. Uni sportchining jismoniy, ruhiy, taktik va boshqa imkoniyatlar hamda sport faoliyatida bajariladigan tashqi muhitning aniq sharoitlari bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir butunlik sifatida qabul qilish lozim (V.N.Platonov).<sup>24</sup>

Zamonaviy sportda texnik usullar va harakatlar xilma-xil bo‘lib, uning hajmi asta-sekin kengayib bormoqda. Bu albatta

<sup>18</sup> Бакиев З.А. – Эркин кураш назарияси ва услубияти. – Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма. 10 бет

<sup>19</sup> Каримов М.А. Халмухаммедов Р.Д. Шамсематов И.Ю. Тажибаев С.С. – Боксчиларнинг спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма. 114 бет

<sup>20</sup> Пўлатов А.А.- Теннис. - Тошкент 2009 й. Ўкув-услубий кўлланма. 24 бет

<sup>21</sup> Футбол назарияси ва услубияти. – Тошкент 2015 й. Дарслик. 77 бет

<sup>22</sup> Пўлатов Ш.А. – Тенисга ўргатишнинг анъанавий ва ноанъанавий

технолоѓиялари. – Тошкент 2007 й. Ўкув кўлланма. 15 бет

<sup>23</sup> Каримов М.А. Халмухаммедов Р.Д. Шамсематов И.Ю. Тажибаев С.С. – Боксчиларнинг спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма. 355 бет

<sup>24</sup> Ахмедова Н.И. – Тенис – спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2014 й. Ўкув-услубий кўлланма. 6 бет

tabiiy, chunki sportchi egallagan usul va harakatlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shunchalik musobaqa jarayonida vujudga keladigan murakkab taktik vazifalarni yechishga tayyor bo‘ladi hamda o‘yin davomida raqibning hujum harakatlariga qarshi turib, uni qiyin ahvolga tushurish imkoniyatiga ega bo‘ladi.<sup>25</sup>

Bellashuv olib borish vositalarining muayyan tarkibining o‘zgartirish, ularni bajarishning harakat komponentlarini takomillashtirish sportchilar texnik tayyorgarlikning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu jarayonda, shunindek, taktik va psixologik tayyorgarlik vositalari va uslublarini samarali qo‘llash uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ixtsoslashgan harakatlarni takomillashtirish harakatlanish hislatlari darajasini oshirish bilan paralel ravishda boradi.<sup>26</sup>

Ko‘p yillik tayyorgarlikning tuzilish vaqtি ko‘pgina faktorlarga; sportning yo‘nalishiga; sportchining rivojlanish individualligiga; mashg‘ulot jarayonini xususiyatlari bog‘liq.<sup>27</sup>

### 3.3. Sport kurashida taktik tayyorgarlikning ahamiti

Taktika – sport nazariyasi bo‘limi bo‘lib, unda jang olib borish uslubi turli xil bo‘lgan raqiblar bilan olishish shakllari, turlari, uslublari va variantlari o‘rganiladi. sportchining taktik mahorati jangning to‘g‘ri tashkil qilinishi va uning boshqarilishi bilan belgilanadi.

Sportchining taktik mahorati raqibning kuchli tomonlarini bartaraf etish, unung bo‘sh tomonlaridan foydalanish va shu bilan bir vaqtida individual jang olib borish uslubini qo‘llay bilishida nomoyon bo‘ladi. Jangni boshqarish, uni olib borish san’ati jang rejasini amalda qo‘llay olish, unga aniqlik kiritish, zarur hollarda esa jang davomida uni o‘zgartira olishdan iborat. Janni boshqarish

ko‘nikmasi sportchining jangovor tez fikrlashiga, uning irodaviy sifatlariga bog‘liq.

Jang rejasini tuzish sportchining chuqur fikrlash, raqib harakatlarini tahlil qilish va sintezlash qobiliyatiga, shunindek, texnik-taktik vositalarning egallaganlik darajasiga bog‘liq. Ular qancha turli-tuman bo‘lsa, jangni rejalashtirish variantlari shuncha ko‘p bo‘ladi.<sup>28</sup>

Taktika deganda o‘yinchilarning raqib ustidan g‘alaba qozonishiga qaratilgan individual va jamoaviy harakatlarni tashkil qilishi, Ya’ni sportchilarining muayyan rejaga binoan aynan shu mayyan raqib bilan muvaffaqiyatliy kurash olib borishiga imkon beradigan birlilikdagi harakatlarini tushunish kerak.

Taktikadagi asosiy vazifa hujum va himoya harakatlarining maqsadga erishtira oladigan en qulay vosita, usul va shakillarini belgalashdan iboratdir.<sup>29,30</sup>

Taktik tizim – bu har bir o‘yinchining alohida xususiyatlari asosida sport maydanida to‘g‘ri joylashtirilgan holda jamoa bo‘lib raqibga qarshi kurashish harakatlarini uysushtirish.

Xar taktik tizimning ozmi-ko‘pmi doimiy alomatlari bo‘lib, o‘yinchilarning joylashtirilishi va o‘yining qanday usul hamda shaklda olib borilishi, shunindek, o‘yinchilarning vazifalari shular jumlasiga kiradi.

Xujum bilan himoya o‘rtasidagi kurash har qanday sport o‘yining rivojlana borishiga ta’sir qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Xuddi shu sport kurash taktikasi doimo taraqqiy etib turishini rag‘batlantirib boradi.<sup>31</sup>

Taktika har doim ham muhim ahamiyatga ega. Sport texnikasi arsenalining ko‘payishi, o‘yinchilar jismoniy tayyorgarligining o‘sishi, o‘yin qoydalari hamda tizimining o‘zgarishi, yanada takomillashib borayotgan o‘quv-mashg‘ulot jarayoni sikli

<sup>25</sup> Ахмедова Н.И. – Теннис – спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент – 2014 й. Ўкув-услубий кўлланма. 6 бет

<sup>26</sup> Фетисова Н.А. – Қиличбозлик назарияси ва услубияти. – Тошкент – 2011 й. Ўкув кўлланма 2 қисм. 17 бет

<sup>27</sup> Саломов Р.С. – Спорт машғулотларининг назарий асослари.- Тошкент – 2005 й. Ўкув кўлланма. 220 бет.

<sup>28</sup> Каиримов М.А. Халмухамедов Р.Д. Шамсематов И.Ю. Тажибаев С.С. – Бокешибарининг спорт педагогик маҳоратини ошириш. Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма. 332 бет

<sup>29</sup> Акромов Р.А. – Футбол. Тошкент 2006 й. Дарслик. 99 бет

<sup>30</sup> Футбол назарияси ва услубияти. – Тошкент 2015 й. Дарслик. 133 бет

<sup>31</sup> Футбол назарияси ва услубияти. – Тошкент 2015 й. Дарслик. 133 бет

bellashuvni ongli ravishda tashkil qilishda amaliy rejalar, izlanishlar, yangilanishlarga keng yo'l ochib beradi. Bellashuvda kechadigan strategik kurash, hujum va himoya o'rtasidagi olishuv, yanada yangi va kutilmagan taktik fikrlarni, yangiliklarni yuzaga keltiridi. Ular, o'z navbatida, texnik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, o'yin qoidalari hamda tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy-ruhiy qobilyatlar singari, texnik va taktik qobilyatlar o'rtasida o'zoro bog'liqlik, albatta, sportdagi yangi izlanishlarga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatib kelmoqda.<sup>32</sup>

Sport taktikasini qisqa qilib sportda baxslashish san'ati deb ta'riflash mumkin.<sup>33</sup>

Xozirgi sport taktikasi sportchilardan texnik jihatdan mohir bo'lishni va ularning taktik tafakkuri rivojlangan bo'lishigina emas, balki funsional imkoniyatlari ortiq bo'lishini ham talab qiladi.

Sportchilar harakatchangligini, universalligini oshirish va o'yinni yanada aniqroq uyuştirish hisobiga jamoaning hujum qudratini kuchaytirish tendensiyasi zamonaviy kurash taraqqiyotiga bosh yo'nalishlardan biri hisoblanadi.<sup>34</sup>

Sportchilarda ko'nikma va malaka sport tayyorgarligi jarayonida hosil qilinadi. Bunga esa mashqlarni qayta-qayta takrorlash orqali erishiladi, takroriylik, o'z navbatida, butun a'zo va tizimlar faoliyatiga ta'sir etadi. Sport tayyorgarligi – bu barcha omil (vosita, uslub, sharoit) lardan birgalikda izchil foydalanish bo'lib, sportchilarning sport muvaffaqiyatlariga erishishdagi tayyorgarligi ta'minlanadi.

Sport tayyorgarligining butun jarayonini shartli ravishda ta'lim va mashg'ulot qismlariga bo'lish mumkin.<sup>35</sup>

Sport trenirovka nazariyasi va amaliyotida taktik tayyorgarlik deganda tashqi muhit sharoitida vujudga keladigan va

sportchilarning o'z individual xususiyatlari, raqib imkoniyatlari sport turi xususiyatlarini hisobga olib, sportchining to'g'ri kurash olib borishi tushuniladi (V.N.Platonov).

Sportchining taktik tayyorgarlik darajasi, foydalanadigan texnik usullar xilma – xilligiga va takomillashganligiga, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasiga hamda tahlil qila olish qobilyatiga, oldindan his qilish, musobaqa o'yinlar jarayonida, shuningdek, tayyorgarlikka yo'naltirilgan trenirovka vaqtida maydonda taktik harakatlarni rejalashtirish va yaratish qobilyatiga bog'liq.

Taktika asosan statistik vazifalar bilan aniqlanadi: musobaqalar seriyasida sportchilarning ishtrok etishi. Taktik vazifalar statistik vazifalarni yechish uchun samaraliy o'yinlarni topib, ularni qo'llash bilan bog'liq.<sup>36</sup>

Dunyoning yetakchi sportchilarining doimiy o'sib boruvchi mahorat darajasi erta yoshdan va sportga qo'yilgan birinchi qadamlardanoq har bir sportchining individual imkoniyatlarini to'liq ochib berish uchun tayyorgarlikni optimallashtirish zaruriyatini yaratmoqda. Shuning uchun bizning nazariyamizda kelajakda sportni elitasiga chiqishni xohlovchi yosh sportchilar boshlang'ich trenirovkalarida maxsus ishlab chiqilgan istiqbolli individual rejaga tayanishlari lozim. Istiqbolli individual reja – bu trenirovka jarayonining hajmi va intensivligi bilan sport natijasini o'sish dinamikasining o'zaro bog'liqligini aniqlovchi hujjatdir.<sup>37</sup>

### *Hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi*

Hujum harakatini ma'lum bir usul bilan taktik tayyorlash murakkab usulning bir qismi bo'lishi lozim. Bunda u hujum usuli bilan uzlusiz ravishda bajariladi. Aldamchi harakatdan (shaxsan hujum bajarishni taktik tayyorlashdan) murakkab hujum harakatining (MHH) hal etuvchi yakuniy harakatiga o'tish paytiga alohida e'tibor qaratish lozim. Turli hujum usullariga eng maqsadga muvofiq bo'lgan taktik tayyorgarlik usullarini tanlash

<sup>32</sup> Нуриев Р.И., Абидов Ш.У., Нуриев З.Р., Давлетмуротов С.Р. – Спорт ва миллий ўйинлар (футбол). – Тошкент 2015 й. Дарслик. 72 бет

<sup>33</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулатларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўкув кўлланма. 70 бет.

<sup>34</sup> Футбол назарияси ва услубияти. – Тошкент 2015 й. Дарслик. 134 бет

<sup>35</sup> Футбол назарияси ва услубияти. – Тошкент 2015 й. Дарслик. 190 бет

<sup>36</sup> Ахмедова Н.И. – Тенис – спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2014 й. Ўкув-услубий кўлланма. 21 бет

<sup>37</sup> Ахмедова Н.И. – Тенис – спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2014 й. Ўкув-услубий кўлланма. 81 бет

lozim. Shu maqsadda kurashchilar taxminiy MHH bilan tanishgandan so'ng quyidagi topshiriqni oladilar: ma'lum bir usulga mustaqil ravishda taktik tayyorgarlik usullarini tanlash va ularni hujum usullari bilan MHH ga birlashtirish (yangi MHH ni o'ylab topish).<sup>38</sup>

### *Bellashuvni tuzish taktikasi*

Sport kurashi taktikasi texnika rivojalanishi, musobaqa qoidalari va hakamlik tiziminining o'zgarishiga muvofiq holda muntazam rivojlanib kelmoqda.

Hozirgi paytda kurashchi tomonidan to'xtovsiz hujum bajariladigan taktika avfzal hisoblanadi. Ushbu holda, hattoki agar u ballar bilan baholanadigan hech qanday hujum uyuştirmagan, uning raqibi esa faqat himoyalangan bo'lsa ham, unga ustunlik beriladi, raqib esa sustkashligi uchun ogohlantirish oladi.<sup>39</sup>

Sportdag'i har bir bellashuv, xoh u turnir bo'lsin, xoh jahon championati u shu soha taraqqiyotini ko'rsatuvchi ko'zgudir.<sup>40</sup>

Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish har bir soha taraqqiyotining kalitidir.<sup>41</sup>

Sportchilar tayyorgarligini boshqarish bellashuv faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bellashuv faoliyati uchun standart holatlarning kam sonli bo'lishi, yakkakurashning doimiy ziddiyat vaziyatlari jarayonida raqiblarning tez va turlicha o'zgarib turuvchi o'zaro ta'sirlarni ustunligi xos.<sup>42</sup>

Sport musobaqalarida g'alaba qozonishning eng asosiy tarkiblaridan biri – bu sportchi tomonidan sport texnikasining

egallanganlik darajasidir. Sport texnikasi bellashuvini muvaffaqiyatli olib borish uchun mo'ljallangan maxsus hujumlar va himoyalanishlar usullari hamda uslublari kompleksidan iborat. Sportchining hujumlari va himoyalanishlari jamlanmasi qancha keng bo'lsa, u bellashuvda shuncha muvaffaqiyatli qatnashishi mumkin.<sup>43</sup>

Jangovar tik turish, jangovar holat, jang olib borish masofasi va siljib yurishlar xuddi boshqa sportdagiga o'xshash, faqat oyoqlarni ishlatishga taalluqli ba'zi qo'shimchalar hamda o'zgarishlar mavjud. Shuni hisobga olish kerakki, oyoqlar juda keng tursa, oyoqlar bilan hujumga o'tishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, kuchni to'plab zarba berish imkoniyati yo'qoladi va himoyada muammolar kelib chiqadi.<sup>44</sup>

### *Musobaqalarda qatnashish taktikasi*

Butun musobaqani o'tkazish taktikasi tortilishdan so'ng, Ya'ni raqiblar tarkibi aniqlangandan va yaqin orada bo'lib o'tadigan bellashuvlar juftliklari tuzilgandan keyin belgilanadi. Shundan keyin ikkita mashg'ulotdan so'ng chiqib ketish yo'li bilan o'tkaziladigan musobaqalarda ma'lum bir o'rinni egallah uchun o'tish lozim bo'lgan davrlar (uchrashuvlar) sonini taxminan bilish maqsadida har bir uchrashuv maqsadi aniqlanadi.<sup>45</sup>

Sport musobaqalari o'ziga xos faoliyat bo'lib raqiblarning harakatini tartibga solishda katta ro'l o'ynaydi, ularning ayrim qobiliyatlarini obyektiv ravishda solishtirib ko'rishga va jismoniy sifatlarini maksimal darajada namoyon bo'lishini musobaqa davomida harakatlanishni maksimal darajada ta'minlashga imkoniyat yaratadi.<sup>46</sup>

<sup>38</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RJM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 197 bet

<sup>39</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 199 bet

<sup>40</sup> Исаев X., Ҳакимжанов У. – Жаҳон ва осиёй йўлбарслари. Токент 2000 й. 7 бет

<sup>41</sup> Исаев X., Ҳакимжанов У. – Жаҳон ва осиёй йўлбарслари. Токент 2000 й. 9 бет

<sup>42</sup> Фетисова Н.А. – Қиличбозлик назарияси ва услубияти. – Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма 2 кисм. 94 бет

<sup>43</sup> Қосимбеков З.Т. – Ёш спортчиларни тайёрлаш (Бокс, кикбоксинг, муайтай). – Тошкент 2008 й. Ўкув кўлланма. 67 бет

<sup>44</sup> Қосимбеков З.Т. – Ёш спортчиларни тайёрлаш (Бокс, кикбоксинг, муайтай). – Тошкент 2008 й. Ўкув кўлланма. 90 бет

<sup>45</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y 210 bet

<sup>46</sup> Саломов Р.С. – Спорт машғулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўкув кўлланма. 17 бет.

Musobaqa faoliyatini sportchilar tomonidan shu sport turi uchun maxsus bo‘lgan harakat ko‘nikma va malakalari turi bajara oladigan holatdagina amalga oshirish mumkin. Shu sababli harakat texnikasini o‘rganishda harakat ko‘nikinasini malakaga aylanishi sport turi uchun eng kerakdir.<sup>47</sup>

Musobaqlarda kurashchilarning tayyorgarligini ijobiy va salbiy tomonlari yaqqol ko‘rinadi.<sup>48</sup>

Taktik tayyorgarlik sportchilar malakasini oshirish jarayonida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, musobaqlarda ularning faoliyati samaradorligini oshirishga yonaltirilgan. Sportchilar faoliyati samaradorligi, shuningdek, janglar davomida erishgan tayyorgarlik (texnik, jismoniy, psixologik) darajasini turli komponentlari qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Taktik takomillashuv jarayoni – tayyorgarlik va muayyan tartibdagi harakatlar usullarini o‘rganish, musobaqlardagi aniq vaziyatlarda taktik rejalarini amalga oshirishdan iborat. Taktik bilimlarni egallash va sportchilarning ruhiy xislatlari (idrok etish, ideomotorik fikrlash, tafakkur, xotira, harakatlanish reaksiysi, shaxsning individual – psixologik xususiyatlari) namoyon bo‘lishini ixtisoslashtiruvchi taktik takomillashuv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning natijada sportchida taktik qobiliyatlar va taktik xislatlar shakillanadi.<sup>49</sup>

Yosh sportchilardan tortib mahoratli sportchilargacha musobaqa juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musobaqaga qatnashmay turib sport faoliyati xaqida gapirmasa ham bo‘ladi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra asosiy hisoblangan, mashqlarning yakuniy nuqtasi bo‘lgan bosh musobaqalar soni ko‘p bo‘lmasligi kerak ( yiliga 3 – 4 marta, sport o‘yinlari mundan mustasno).

<sup>47</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўкув кўлланма. 67 бет.

<sup>48</sup> Юсупов К. – Кураш халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Тошкент 2005 й. 127 бет

<sup>49</sup> Фетисова Н.А. – Қиличбозлик назарияси ва услубияти. – Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма 2 қисм. 42 бет

Bosh musobaqalar oddiydan murakkabga va qiyinchiliga qarab joylashtirilishi lozim.<sup>50</sup>

### 3.4. Sport kurashida psixologik tayorgarlikning ahamiti

Psixologik tayyorgarlik jarayonida agar sport murabbisi sportchini o‘z-o‘zini takomillashishini rivojlantirishga intilsa, musobaqlarga tayyorgarlik va mashg‘ulotlar vazifalarini hal qilishda uning mustaqilligini kuchaytirsa, kurashchi shaxsini shakllantirishi muvaffaqiyatli bo‘ladi.<sup>51</sup>

Sportchining psixologik imkoniyatlarini musobaqa sharoitlarida har qanday raqibga qarshi samarali harakatlanishda maksimal amalga oshirishning doimiy maqsadga yonaltirilgan jarayoni: sportchi shaxsining axloqiy – irodali hislatlarini shakillantirish.<sup>52</sup>

Kurashchining musobaqlarga psixologik tayyorgarligi uning musobaqlarda qatnashayotganini bilgan vaqtidan boshlanadi. Musobaqlarga psixologik tayyorgarlikning muhim vazifasi – bu bellashuv vaqtida ham saqlanib qoladigan chiqishlarga tayyorgarlikni yaratishdir.<sup>53</sup>

Mashg‘ulotdagi muvaffaqiyat optimal yuklamadan iborat. Kundan – kun shu narsa tushunarli bo‘lib boradiki, mashg‘ulotlarda bajariladigan yuklamali mashqlar organizmning zo‘riqishini keltirib chiqaradi.

Kurashchining psixologik tayyorlashda, aynan shaxsini shakillantirishda kollektivning ahamiyati juda katta.<sup>54</sup>

<sup>50</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўкув кўлланма. 24 бет.

<sup>51</sup> Гаппаров З.Г. – Яккаурашчиларнинг психологияк тайёргарлиги. Тошкент 2010 й. Ўкув кўлланма. 11 бет

<sup>52</sup> Фетисова Н.Л. – Қиличбозлик назарияси ва услубияти. – Тошкент 2011 й. Ўкув кўлланма 2 қисм. 60 бет

<sup>53</sup> Гаппаров З.Г. – Яккаурашчиларнинг психологияк тайёргарлиги. Тошкент 2010 й. Ўкув кўлланма. 45 бет

<sup>54</sup> Гаппаров З.Г. – Яккаурашчиларнинг психологияк тайёргарлиги. Тошкент 2010 й. Ўкув кўлланма. 14 бет

Sportdagи natija yaxshilanishi uchun organizmning moslashuvchanligini oshirishga yordam beruvchi to'g'ri mashg'ulot yuklamasi kerak.<sup>55</sup>

Dunyo mamlakatlarida o'tkaziladigan katta musobaqalar ob-havosi, geografik sharoiti, sportchilarni musobaqaga tayyorlashiga maxsus ixtsoslashgan vazifalarni qo'yadi.<sup>56</sup>

Insonning xayot faoliyatini to'laqonliy havo haroratini optimal darajasi 18–20 s tashril etadi. Shiddatli jismoniy faoliyat, havoni optimal haroratini pasaytirish bilan bog'liq.<sup>57</sup>

Katta musobaqalarga qatnashish uchun sportchi qit'adan – qit'aga boradi. Shunga nisbatan yangi sharoitga geografik poyasda soat vaqtining o'zgarib qolishigi organizmni moslashtirish zarur.<sup>58</sup>

Mashg'ulotni davrlashga butun yil davomida sport musobaqalarining taqsimlash tizimi, shuningdek, (sportning "mavsumiy" deb atalgan turlarida) yil fasllariga qarab iqlim sharoitlarining almashinishi ancha ta'sir etadi. Biroq musobaqalar taqvimi ham, yil fasllari ham mashg'ulot jarayonining mohiyatini belgilay olmaydi va shuning uchun ham uni davrlashga bosh asos bo'lib xizmat qila olmaydi.<sup>59</sup>

Ruhiy tayyorgarlik deganda ruhiy-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga mos sharoitlar yig'indisini tushunish kerak.<sup>60</sup>

<sup>55</sup> Қосимбеков З.Т. – Ёш спортчиларни тайёрлаш (Бокс, кикбоксинг, муайтай). – Тошкент 2008 й. Ўқув кўлланма. 17 бет

<sup>56</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўқув кўлланма. 220 бет.

<sup>57</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўқув кўлланма. 221 бет.

<sup>58</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўқув кўлланма. 222 бет.

<sup>59</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўқув кўлланма. 230 бет.

<sup>60</sup> Бакиев З.А. – Эркин кураш назарияси ва услубияти. Тошкент 2011 й. Ўқув кўлланма. 158 бет

Tanlash va mo'ljal olish asosiy bajarilishi talab qilingan ishlarning biri sifatida o'z tarkibiga oldindan bashorat qilishni ham qamrab olishi bilan bog'liq holatdir.<sup>61</sup>

Har bir kishini harakatlantiruvchi kuch bu – uning nimagadir extiyoj sezishidir. Faoliyat maqsadi extiyojlardan kelib chiqadi.<sup>62</sup>

### 3.5. O'smir yoshdagи kurashchilarining sport faoliyati

Inson dunyoga kelgandan boshiab harakat qilish uchun asab mushak mexanizmiga ega bo'ladi. Odamning tug'ma harakat imkoniyatlari (bukish, yoyish, imo qilish, yutish va boshqalar) juda cheklangan bo'ladi. Ular tug'ma yoki shartsiz refleks deyiladi. Shu reflekslar asosida xayot faoliyati jarayonida shartli reflekslar shu jumladan harakat ko'nikmalari shakillanadi, hosil bo'ladi. Harakatlarni egallash jarayoni bosh miyada harakat dinamika andozasi hosil bo'lish qonuniyati bo'yicha amalga oshiriladi. Bu harakatning ayrim davrlari navbatma – navbat amalga oshiriladigan davriy harakatlarga xos xususiyatdir. Shuning uchun dinamik andozaning hosil bo'lishi faqat davriy harakatlar uchun xosdir.

Insonning harakat faoliyati juda ko'p xilma – xillikka (o'zgartirishga) egadir. Ya'ni tartibdagи harakatlarning anchagini qismi MAS (markaziy asab sistemasi) ning yuqori egiluvchanligi ekstrapolyasiya, Ya'ni yo'l-yo'lakay hosil bo'ladi. Odamning xayotida uchraydigan turli tuman harakat turlarining barchasiga o'rgatib bo'lmaydi. Shu paytning o'zida biz qancha harakat ko'nikmalarini egallab borsak, yangi harakatlarni o'rganish imkoniyatlarimiz ortib boraveradi.<sup>63</sup>

<sup>61</sup> Холмухаммедов Р.Д., Шин В.Н. – Ёш якка курашчилар кўп йиллик тайёргарлик жараёнининг турли босқичларида саралашнинг меёrlари. Тошкент 2013 й. Ўқув-услубий кўлланма. 158 бет Холмухаммедов Р.Д., Шин В.Н. – Ёш якка курашчилар кўп йиллик тайёргарлик жараёнининг турли босқичларида саралашнинг меёrlари. Тошкент 2013 й. Ўқув-услубий кўлланма. 36 бет

<sup>62</sup> Гапиаров З.Г. – Яккакурашчиларнинг психологик тайёргарлиги. Тошкент 2010 й. Ўқув кўлланма. 12 бет

<sup>63</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тошкент 2005 й. Ўқув кўлланма. 62 бет.

O'smir yoshdagi jismoniy tayyorgarlik to'g'ri qaddi-qomatni, harakatlanish malakalarini shakllantirish, har tomonlama jismonan takomillashtirish, kurashda texnik harakatlarni egallash uchun zarur bo'lган jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Sportchining o'rgatish va takomillashtirishning asosiy shakli mashg'ulot hisoblanadi.<sup>64,65</sup>

Mashg'ulotlar fiskultura va sport komitetining Ilmiy – metodik kengashi tasdiqlagan programma asosida olib boriladi.<sup>66</sup>

Sport seksiyasi ishini mofaqiyati ko'proq mohirona planlashtirilishiga bog'liq.<sup>67</sup>

12–14 yoshda tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqliр. 15–16 yoshdagi o'smirlarda kuch rivojiana boshlaydi va tezkorlik-kuch mashqlarini bajarishga qobiliyat namoyon bo'ladi. 16–18 yoshda ko'p kuch va tezlik talab etiladigan mashqlar osonroq o'zlashtiriladi, chidamlilikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. O'smir kurashchilarini tayyorlashda shularni e'tiborga olish juda muhimdir.

Chidamlilikni boshqa jismoniy sifatlar bilan birga rivojlantirish zarur. Professor V.P. Filinning (1980) ta'kidlashicha, bu yoshda chidamlilikka qaratilgan uzoq vaqt davom etadigan va bir tomonli trenirovka o'smirlarga xos bo'lган tezkorlik nagruzkalariga moslashishni pasaytiradi.

12–15 yoshda kuchni rivojlantirish asosan o'z massasi og'irligi, to'ldirma to'plar, gantellar, gimnastika tayoqchalari, sherik (turli og'irlikdagi) bilan hamda turli gimnastika sport anjomlarida mashqlar bajarish yordamida amalga oshirilishi lozim.

16–18 yoshdagi kurashchilarda kuchni rivojlantiruvchi mashqlar sport anjomi og'irligini oshirish, dastlabki holatni o'zgartirish, mashq bajarish vaqtini uzaytirish, mashqlar orasidagi dam olish vaqtini kamaytirish hisobiga murakkablashtiriladi.

<sup>64</sup> Акрамов Р.А. – Футбол. Тошкент 2006 й. Дарслик. 284 бет

<sup>65</sup> Футбол назарияси ва услубияти. – Тошкент 2015 й. Дарслик. 229 бет

<sup>66</sup> Абдулсатторов А.А., Истомин А.А. – Дзюдо кураши. Тошкент 1993 й. 9 бет

<sup>67</sup> Абдулсатторов А.А., Истомин А.А. – Дзюдо кураши. Тошкент 1993 й. 15 бет

Maxsus mashqlar orqaliy mushaklar kuchini, bo'g'imdardagi harakatchanglikni, egiluvchanglikni, harakat tezligini va chidamkorlikni rivojlantirish mumkin.<sup>68</sup>

Kurashchilar mashg'ulotlarda ularnin yoshi, jinsi, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olish talab qilinadi.<sup>69</sup>

Yosh sportchilar bilan ishlaydigan musobaqada yuzaga keladigan harakatlarni bajarish usullarini yaxshi egallagan bo'lishlari lozim. Sport kurashi texnikasining o'ziga xos xususiyatlari, boshqa sport turlaridan farqi, o'ziga xos bo'lган qirralari va harakatlanish malakalarini bilimiga murabbiy sport musobaqasi texnikasiga muvaffaqiyatli o'rgatishga qodir emas.

Sport musobaqa texnikasi, harakat malakalarining umumiyligi o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, bir qator o'ta iqtisoslashgan malakalarga ega.

O'yin xususiyati va harakatlarining o'ziga xos tuzilmasi, o'yinchilarining individual jismoniy hamda ruhiy xususiyatlaridan tashqari, texnikaga o'rgatish va uni mustahkamlashni belgilab beradi.

Harakatlarga o'rgatishni alohida qismlarga bo'lingan va parchalangan holda amalga oshirish mumkin emas.<sup>70</sup>

Ammo o'smirlar bilan kurash mashg'ulotini o'tkazayotgan trenerlar bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu qiyinchiliklar avvalo maxsus yo'l-yo'riq beruvchi adabiyotlar yo'qligi tufayli tug'ilmoqda. Yosh polvonlar bilan mashg'ulotlar xuddi kattalar darajasidagi kabi o'tkazilmoqda.<sup>71</sup>

Yosh o'smirlarning chidamliligini rivojlantirishda ehtiyyotkor bo'lish lozim (o'rtacha nagruzkalar, kichik me'yor yoki dam olish uchun tanaffusli o'quv-trenirovka bellashuvlaridan iborat mashqlar). Nagruzkalarga moslashib borgan sari dam olish mashqlar).

<sup>68</sup> Кудратов Р., Фанибоев И.Д., Салиев И.Р., Баратов А.М., - Енгил атлетикачиларнинг маҳсус машқлари. – Тошкент 2011 й. Услубий қўлланма. З бет

<sup>69</sup> Гашаров З.Г. – Яккакурашчиларнинг психологик тайёргарлиги. Тошкент 2010 й. Ўкув қўлланма. 16 бет

<sup>70</sup> Нуримов Р.И., Абидов Ш.У., Нуримов З.Р., Давлетмуротов С.Р. – Спорт ва милийий ўйинлар (футбол). – Тошкент 2015 й. Дарслик. 13 бет

<sup>71</sup> Керимов Ф.А. – Кураш тушаман. Тошкент 1990 й. 9 бет.

tanaffuslari qisqartiriladi. Masalan, tik turishda 2x2 kurashida (navbatma-navbat hujumlar va himoyalar)

3 minutlik tanaffus asta-sekin 1 minutgacha qisqartiriladi. Parterda 2x2 bo‘lib 1 minut tanaffus bilan navbatma-navbat kurashishda trenirovka vaqtini 3x3 gacha uzaytiriladi. Keyinchalik kurash sur’atini kuchaytirish mumkin. Chidamlilikni rivojlanтирish uchun chegaralangan joyda bir tomonlama qarshilik bilan (biri faqat hujum qiladi, ikkichiisi faqat himoyalanadi), parterdan yuqori yoki tik turishga chiqish bilan kurash o’tkaziladi. Bu mashqlar qiyin holatlardan chiqib ketish yo‘lini topishga o’rgatadi.

Professor V.P. Filin tadqiqotlarining ko‘rsatishicha 13 yoshda bo‘g‘imlarda harakatchanlik yangidan oshadi, 15 yoshda u eng katta hajmga ega bo‘ladi, 16–17 yoshda harakatchanlik ko‘rsatkichlari kamayadi. Shu sababli o‘smirlik yoshida egiluvchanlik va bo‘g‘imdagи harakatchanlik mashqlari majburiydir.

12–18 yoshda egiluvchanlik va bo‘g‘imlardagi harakatchanlik buyumlarsiz hamda kichik og‘riqlar bilan (gimnastika tayoqlari, gantellar, to‘ldirma to‘plar) bajariladigan faol-sust xususiyatiga ega mashqlar orqali yoki asta-sekin harakat amplitudasini kuchaytiruvchi va kengaytiruvchi sherik yordamida rivojlanтирiladi. Shuningdek qaddi-qomatni shakllantirish mashqlari kattalarga nisbatan ko‘p qo‘llaniladi.

Sportga tayyorlash vazifalari, unung takomillashish xususiyatlariga qarab turli xarakterdagi individual darslar maqsadga muvofiq – obzorli, repertuarli, razminka qildiruvchi, ko‘rgazmaliy va boshqalar.<sup>72</sup>

Mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri rejalshtirish musobaqaga texnik, jismoniy taktik va irodaviy tayyorgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan barcha vazifalarni samarali yechish imkoniyatini beradi.<sup>73</sup>

Shunday qilib, o‘smirlarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligi ko‘pgina vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Har bir kishini harakatlantiruvchi kuch bu – uning nimagadir extiyoj sezishidir. Faoliyat maqsadi extiyojlardan kelib chiqadi.<sup>74</sup>

Yosh o‘smirlar bilan ko‘proq o‘yin uslubi qo‘llaniladi, mashg‘ulotlar turlicha va ehtirosli o‘tkaziladi. Hamma mashqlar asosiy mashg‘ulot shakli – darsda bajariladi.

O‘smir kurashchining jismoniy tayyorgarligini maqsadli amalga oshirish uchun kurashdagi o‘quv-trenirovka jarayonida saf (tartibli) mashqlar (saflanish, buyruqlarni bajarish, qadam tashlab va yugurib harakatlanishlar) qo‘llaniladi. Ularning maqsadi – kurash mashg‘ulotini tashkil etish, to‘g‘ri qaddi-qomatni shakllantirish, intizom, o‘zaro munosabat va tartibni tarbiyalashdir. Saf mashqlari darsning kirish, tayyorlov va yakuniy qismida mashqlarni bajarish uchun guruhlarni tashkil qilish, saflantirish va qayta saflanish uchun, shuningdek nagruzkadidan so‘ng zo‘riqishni bartaraf etish maqsadida bajariladi.

Umumiy rivojlanтирuvchi mashqlar qatoriga oddiy gimnastika (qo‘llar, oyoqlar, gavda, og‘irliklar bilan, og‘irliklarsiz, buyumlar bilan va buyumlarsiz hamda sheriklar bilan) mashqlari va og‘ir atletika, eshkak eshish, sport o‘yinlari kabi sport turlaridagi ba‘zi mashqlar kiradi. Bunday mashqlar kurashchining jismoniy rivojlanishini yaxshilaydi, harakat malakalari zahirasini kengaytiradi, organizmning funksional imkoniyatlarini oshiradi, ish qobiliyatining tiklanishiga yordam beradi. Umumiy rivojlanтирuvchi mashqlar bilan bir vaqtda asab-mushak kuchlanishlari xususiyati va o‘smir organizmining ish tartibiga ko‘ra o‘xhash bo‘lgan mashqlarni ko‘proq qo‘llash zarur. Turli sport turlaridan olingan mashqlar, ularni bajarish xususiyati va shartlariga qarab, jismoniy sifatlarni rivojlanтирishda turli pedagogik vazifalarni hal etishga imkon berdi. Asosan kuch, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik va chaqqonlikni tarbiyalashga qaratilgan mashqlarni ajratish qabul qilingan. Og‘irliklar bilan (tayoqlar, gantellar, to‘ldirma to‘plar va h.k.) gimnastika mashqlarini ko‘p marta bajarish kuch chidamliliginini

<sup>72</sup> Фетисова Н.А. – Қиличбозлик назарияси ва услубияти. – Тошкент 2011 й. Ўқув кўлланма 2 кисм. 68 бет

<sup>73</sup> Ахмедова Н.И. – Теннис – спорт педагогик маҳоратини ошириш. – Тошкент 2014 й. Ўқув-услубий кўлланма. 81 бет

<sup>74</sup> Гаппаров З.Г. – Яккаурашчиларнинг психологик тайёргарлиги. Тошкент 2010 й. Ўқув кўлланма. 12 бет

rivojlantiradi. Ushbu mashqlarni katta tezlikda qisqa vaqt ichida bajarish tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir mashq ma'lum bir sifatni yoki bir guruh sifatlarni rivojlantiradi. Masalan, sherik qarshiligidan yoki shtanga bilan bajariladigan mashqlar, o'z og'irligi bilan tortilish hamda qo'llarni bukib-yozish mashqlari kuchni; kesishgan joyda yugurish – chidamlilikni; katta tezlik bilan bajariladigan gimnastika mashqlari, qisqa masofalarga yugurish – kurashda harakat tezligini tarbiyalashga yordam beradi. Basketbol o'yini chaqqonlik, chidamlilik va tezkorlikni kompleks holda tarbiyalashga imkon yaratadi.

Yuqori emotsiyonal qo'zg'alishda katta bo'limgan shiddat bilan bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar organizm ish qobiliyatini, ayniqsa shiddatli mashg'ulotlar o'tkazilgandan so'ng asab tizimini tiklashga yordam beradi. Ular ertalabki badan tarbiya vaqtida va trenirovka mashg'ulotlarida darsning bиринчи bo'lagida (tayyorlov qismida) hamda asosiy qism oxirgida qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'rmonda, dalada, daryo bo'yida (suzish, eshkak eshish va to'p o'ynash bilan) jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni tashkil qilib turish shart.

Kurash mashg'ulotlarida katta jismoniy nagruzkadan so'ng organizmni nisbatan tinch holatga keltirish uchun o'smirlarni mushaklarni bo'shashtirishga, nafas olishni tinchlantirishga (o'ta bo'shashtirilgan mushaklarni silkitish harakatlari, chuqur nafas olish uchun o'pka qafasini kengaytiruvchi mashqlar va h.k.) qaratilgan mashqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish zarur.

Mushaklarni bo'shashtirishga qaratilgan mashqlar hatto bellashuv jarayonida ushslash va zo'riqishdan holi bo'lgan qisqa vaqt ichida kuchning yanada tez tiklanishiga yordam beradi<sup>75</sup>.

Zamonaviy sport kurashi sportchidan yaxshi jismoniy texnik-taktik, funksional va ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Sport turlari tasnifi bo'yicha sport kurashi, uchinchi guruhga kiradi (S.V. Farfel, 1969; YU.V. Verxoshanskiy, 1985). Uning uchun kompensator toliqish va o'zgaruvchan ish shiddati

sharoitlarida harakatlarning yuqori variantliligi xosdir. Musobaqa faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlili sport kurashi turlari (Yunon-rim, erkin kurash, sambo, dzyudo) ichida tasniflarni ishlab chiqish zarurligi to'g'risida guvohlik beradi. Bitta guruhga taalluqli bo'lgan sport turlaridagi trenirovka uslublarini ko'rko'rona ko'chirib olish samara bermaydi, ba'zi hollarda esa sport natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (A.A. Novikov, 1986 va boshq.).

Yunon-rim va erkin kurash bo'yicha musobaqalar qoidalari, umuman olganda, bir xil, faqat texnik harakatlarning baholanishida ba'zi farqlar bor. Musobaqa uch kun ichida aylanma tizim bo'yicha o'tkaziladi. G'olib eng kamida 6–7 ta bellashuvni 6 min. davomida o'tkazishi lozim (kuniga 2–3 ta).

Bu sportchilardan yaxshi tezkorlik-kuch tayyorgarligi hamda maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Bundan tashqari, yangi harakatlarni egallah, improvizatsiya qilish, harakat faoliyati jarayonida kombinatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat, turli harakat tavsiflarini tabaqaqlash hamda ularni boshqarish malakasi talab qilinadi (V.N. Platonov, 1986)<sup>76</sup>.

Yildan yilga sport va sportchilarni tayyorlash to'g'risidagi axborotlar hajmi o'sib bormoqda. Biz juda ko'p narsa bilamiz, ammo bilimlarimiz tarqoq va uzuq – yuluqdir. Egallanayotgan yangi bilimlarni mavjudlari bilan birlashtirib yuborish ko'pincha oson kechmaydi va shuning uchun ular, odatda, amaliyotga tatbiq etilmay qolib ketadi. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishga hozirgidek tartibsiz yondashuv tufayli sport to'g'risidagi fanning va ayniqsa, sport amaliyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'pdan ko'p faktlarni keltirish mumkin.

Sport, hozirgi dunyoda inson faoliyatining har qanday boshqa soha kabi, shiddatli kurashlar maydoniga aylandi va shunday bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi obro'-e'tibori va ustuvorligi haqidagi masala nihoyatda dolzarbdir. Mamlakatimizning madaniy qurilish

<sup>75</sup> Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati Darslik 2015 y 81 bet.

doirasi sohalaridan biridagi ustunlikning eng yaxshi isboti o'zbek sportchilarining yorqin, qat'iy va mutloq g'alabalari hisoblanadi.

Yuqori malakaliy sportchilarni tayyorlashning sifat jihatdan yangi usuliga bo'lgan extiyoji bu yangi vazifalar darajasida turadigan ishonchli nazariyani ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi<sup>77</sup>.

Sportchining muvaffaqiyati uning qobiliyatiga, mashg'ulot usuliyatining mukammalligiga, trenerning malakaliy darajasiga hamda mashg'ulot va musobaqalarni o'tgazish uchun shart-sharoitlarning mavjudligiga bog'liq. Tizimli yondashuv talablaridan kelib chiqib, prof.A.A.Novikov (1983) rahbarligida yuqori malakali sportchilar sport mashg'ulotlari jarayonini boshqarishning iyerarxik xususiyatiga ega bo'lgan tizimi ishlab chiqildi<sup>78</sup>.

Hozirgi davrda olimlar sport nazariyasining integrativ muammolarini yaxlit holda tasavvur etishga harakat qilmoqdalar. Muammolarni xal etishda yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy ishlannmalar: umumiy sport nazariyasi, sport turlari bo'yicha xususiy predmetli nazariyasi-usuliy fanlar, gumanitar hamda tabiiy bilimlarning oraliq sohalari munosabatlari sxemasiga (L.P.Matveev bo'yicha), sport mashg'ulotlari jarayoning boshqarishning uch darajaliy tizimga (A.A.Novikov bo'yicha), shuningdek, ko'p yillik tayyorgarlikni boshqarishda darajalar ahamiyatining o'zgarishi modeliga (F.A.Kerimov bo'yicha) tayanish zarur.

L.P.Matveev bo'yicha (1997) sport fanning asosiy muammolari 3 asosiy blokka taqsimlanadi<sup>79</sup>.

O'z shaxsini, mahoratini namoyish qilish uchun u va bu toifaga sportda murabbiyning professional ko'magi kerak<sup>80</sup>.

<sup>77</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАРҚАЛАМ” -2004 й. 11 бет

<sup>78</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент -- “ЗАРҚАЛАМ” -2004 й. 32 бет

<sup>79</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАРҚАЛАМ” -2004 й. 39 бет

<sup>80</sup> Азаматова Н.И. – Тенинсда чапдан икки кўллаб зарб беришга ўргатиш. – Тошкент 2013 й. Услубий кўлланма. 3бет

Sportchining iroda tayyorgarligi o'zining pedagogik mohiyati jihatidan sport faoliyati sharoitga moslab amalga oshiriladigan axloqiy tarbiya, jumladan, irodani tarbiyalash jarayonidir.<sup>81</sup>

### 3.6. Kurashchilarning texnik – taktik mahorat to‘g‘risida tushunchalar

Sport kurashi sport faoliyatini shunday turlari sirasiga kiradiki, bunda muvaffaqiyat asosan bo'lmasa ham ko'proq texnik harakatlarga, xilma-xil texnik harakatlarni bilishga, qo'yilgan sport maqsadlarini samaraliy xal etishning eng maqbul taktik va strategik yo'llarini tanlab amalga oshira olishga bog'liq bo'ladi. So'ngi paytlarda sport kurashi amaliyotida va adabiyotida “texnik-taktik mahorat” atamasi keng qo'llanilmoqda. Sport kurashi texnikasi deganda tor ma'noda kurashchiga g'alaba keltiradigan harakatlarni bajarishning eng oqilona uslublari tushuniladi. Bunda kurashchilarning alohida xususiyatlaridan qat'i nazar, ularga xos bo'lgan biomexanik va fiziologik qonuniyatlarga tayanadigan harakatlar texnika asosini tashkil qiladi. Sportda taktika deganda yuqori sport natijasiga erishish va raqib ustidan g'alaba qozonishning hamma usullari hamda shakllari tushuniladi. Taktika bir qator omillar kompleksidan tashkil topadi: tayyorgarlikning kuchli tomonlari va raqib kamchiliklaridan foydalanish, texnikani egallashdagi alohida xususiyatlar, chalg'ituvchi harakatlar bilan raqibni aldash, bellashuvdagagi qulay vaziyatlarda ta'sirli usullarni qo'llash, kuchni tejamkorlik bilan sarflash, qoidalarda belgilangan imkoniyatlarni, gilam maydonini, o'zining morfologik hamda fiziologik qobiliyatlarini aniq yuzaga chiqarish va h.k.

Yakkakurash sport turlarida, ayniqsa, sport kurashida, texnika va taktika bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ba'zi mutaxassislar kurashchi harakatlarini tabaqlashgan holda ko'rib chiqishda qaysi bir harakatlarni texnik, qaysilarini esa taktik

<sup>81</sup> Саломов Р.С. – Спорт машгулотларининг назарий асослари.- Тонкент 2005 й. Ўкув кўлланма. 71 бет.

harakatga ajratishda bir xil fikrga ega emaslar. Aslida esa ular dinamik butunlikni tashkil etadi.<sup>82</sup>

Sport kurashi rivojlanishining boshida kurashchilar tomonidan qo'llaniladigan texnikaga qarab texnik-taktik harakatlarni belgilab beradigan qoidalalar yaratilgan edi. Shu tariqa har xil kurash turlari vujudga kelgan. Qoidalalar keyinchalik har bir kurash turi uchun o'zgartirilgan. Ularning yordamida ma'lum harakatlarni cheklash va boshqalarini rag'batlantirishga urunilgan. Qo'llaniladigan texnik-taktik harakatlarning soni va sifatiga qarab, kurash turiga ta'sir ko'rsatish, uning sport hamda tomoshabop xususiyatini yaxshilash maqsadida, qoidalarni o'zgartirishga intilishgan.

Yuqori malakali kurashchilar har doim o'zgaradigan qoidalarga qarab, texnik-taktik harakatlardan optimal ravishda foydalanishi mumkin. Yangi qoidalarning yetakchi kurashchilar mahoratiga qanday ta'sir etishini taxmin qilish mumkin. Ularda ko'proq hujum harakatlarini qo'llash malakasi oshib boradi.<sup>83</sup>

Sport kurashining o'rghanish jarayonini planlashtirish vaqtida texnik-taktik tayyorgarlik masalalariga ko'proq e'tibor berish kerak va darhol texnik harakatlarning to'g'ri biodinamik strukturasiga o'rgatishga kirishish kerak.<sup>84</sup>

Bunda trener – pedagog hamda kurash sirlarini o'r ganilayotgan sportchi oldida TTTni (texnik – taktik tayyorgarlik) samaraliy rejalshtirish hamda sport mahoratining o'sish dinamikasini nazorat qilish va tahlil etish, shuningdek, sport mashg'ulotlariga unumli o'zgartirishlar kiritish maqsadida TTT xususiyatlariga tizimli asosda baho berish zarurati paydo bo'ladi.

Sport kurashining ko'pgina mutaxasislari fikricha, TTT bugungi kunda muammoliy masalaligicha qolmoqda, shuning uchun ham THni ko'p miqtorda qo'llaydigan kurashchilar, xullas, "texnikachilar" borgan sayin kamayib borayotir.

TTTni boholash tizimi hamda yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish yo'lida ularni qo'llash usullarining ishlab chiqilishi sportchilar TTT darajali chegaralarini miqdoriy tekislash hamda sport tayyorgarligi pedagogik jarayoniga muhim taxrirlar kiritish uchun imkon beradi<sup>85</sup>.

TTT ko'rsatkichlariga ko'pgina tadqiqotchilar va pedagog – trenerlar tomonidan ta'rif berilgan. Matbuotda muntazam paydo bo'lib turgan axborotlar shundan dalolat beradi. Lekin bunda maskur ko'rsatkichlar turli talqin qilinadi, ularni tushuntirishda har xil usullardan foydalaniлади. TTT ko'rsatkichlarini tasniflash usullarni qo'llashning umumiy xususiyati shuki, tayyorgarlikning turli tomonlarini alohida ko'rsatkichlarga qarab ham, ko'rsatkichlar majmuyi asosida ham baholash mumkin. Ko'rsatkichlar majmuyini vujudga keltirishda turli xil matematik amallardan foydalaniлади<sup>86</sup>.

TTT ko'rsatkichlari yordamida kurashchilar tayyorgarligi darajasini miqdoriy jihatdan aniqlash uchun musobaqa faoliyatini qayd etish va kuzatishning har xil usullaridan foydalanish zarur. Bunday usullarga: kinoga olish, videomagnitofonga yozib olish va turli rasmlar yordamida stenografiya usulida qayd etish va boshqalar kiradi.

Kinoga olish va videomagnitofon yozuvlari qimmatga tushadigan usullar bo'lganligi uchun ham doim ulardan foydalanishning iloji bo'lavermaydi. Shuning uchun bellashuv bayonnomalarida turli texnik – taktik harakatlarni xil –xil belgilar – ramzlardan foydalanib qayd etish qo'l keladi.

Kurashda texnik – taktik harakatlarni qayd etish uchun qo'llaniladigan ramzlar tizimi ishlab chiqilgan<sup>87</sup>.

<sup>82</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 й. 213 бет

<sup>83</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 й. 214 бет

<sup>84</sup> Керимов Ф.А. – Кураш тушаман. Тошкент 1990 й. 161 бет.

<sup>85</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛДАМ” -2004 й 128 бет

<sup>86</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛДАМ” -2004 й 130 бет

<sup>87</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛДАМ” -2004 й 139 бет

Oqilona hujum harakatlari tuzilmasini egallash va takomillashtirish hali kurashchiga yuqori sport mahoratini ta'minlamaydi.<sup>88</sup>

Yuqori malakali kurashchilar kurashda mustahkamlikni mohirlik bilan saqlab turadilar, shuning uchun usulni bajarish uchun qulay dinamik vaziyat paytini tutib olish qiyin.<sup>89</sup>

Kurashchilarning TTT darajalaridagi o'sish baholari, yuqorida ayrib o'tilganidek, TTT ko'rsatkichlarini mos ravishda bazaviy (asosiy) ko'rsatkichlar bilan taqqoslash yo'li orqali aniqlanadi.

Tadqiq etilayotgan masalalarning xususiyatlariga qarab darajalar o'shining baholashning quydagi usullari qo'llaniladi:

- differensial;
- majmuali;
- aralash.<sup>90</sup>

Maskur usulning mohiyati bir kurashchining TTT dagi alohida ko'rsatkichlarni boshqa kurashchining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan yoki muvofiq bazaviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslashdan iborat.

Bu usul asosida quydagi savollarga javob topish mumkin:

- muayyan kurashchining TTT dagi har bir ko'rsatkich bo'yicha rejalashtirilgan darajaga (bazaviy ko'rsatkichlar darajasiga) ko'ra erishildimi?
- agar erishilmagan bo'lsa, TTT ning qanday ko'rsatkichlariga erishildi, qaysilariga esa erishilmadi?
- qaysi ko'rsatkichlar rejalashtirilgan (bazaviy) darajadan ko'p farq qiladi?
- muayyan ko'rsatkichning dinamikasi (vaqt birligidagi o'zgarishi) qanday va.x.k.<sup>91</sup>

<sup>88</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 218 bet

<sup>89</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 219 bet

<sup>90</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛАМ” -2004 й 141 бет

<sup>91</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛАМ” -2004 й 144 бет

So'ngi paytlarda sport kurashi amaliyotida va adabiyotida “texnik-taktik mahorat” atamasi keng qo'llanilmoqda. Sport kurashi texnikasi deganda tor ma'noda kurashchiga g'alaba keltiradigan harakatlarni bajarishning eng oqilona uslublari tushuniladi.<sup>92</sup>

TTT darajasini baholashning majmuali usuli chiqariladigan qarorlarni asoslash uchun TTT darajasini birgina ko'rsatkich orqali tavsiflash zarurati paydo bo'lganda qo'llanadi.

TTT ning bunday ko'rsatkichi umumlashtirilgan ko'rsatkich deb, TTT darajasining shunga muofiq bahosi majmuali bahо deb ataladi.

TTT ning umumlashtirilgan ko'rsatkichi majmuali TTT barcha xususiyatlarini yoki muayyan xususiyatlari guruhini, yani hujum yoki himoya harakatlarining, hajm va xilma – xillikning va.x.k., qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanadi.<sup>93</sup>

TTT darajasini baholashda o'rta ga qo'yiladigan masalalar doim ham yuqorida ko'rib chiqilgan bir yoki ikki usul: differensial yoki majmuali usullar yordamida xal etilavermaydi.<sup>94</sup>

Sportda olib boriladigan bellashuvlardan tayyorlovchi harakatlar – razvetka, niqoblash (maskirovka), sakrashlar taktik vazifalarni tadbiq etish muhim xususiyatlarga ega.<sup>95</sup>

Zamonaviy sport o'ta tezkor sportchidan mahorat, g'ayrat talab qiladi. Yuqori texnik-taktik “san'atga” erishish uchun birinchi navbatda sportchi yetarli darajada rivojlangan maxsus jismoniy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Maskur sifatlarni va sport malakalarini ijrosi maqsadga muvofiq o'yin fikrlovchi asosida boshqarilishi musobaqa taqdirini belgilaydi.<sup>96</sup>

<sup>92</sup> Керимов Ф.А. – Спорт кураши назарияси ва услубияти. Тошкент 2001 й. Дарслик. 73 бет

<sup>93</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛАМ” -2004 й 145 бет

<sup>94</sup> Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. : Тошкент – “ЗАР ҚАЛАМ” -2004 й 146 бет

<sup>95</sup> Фетисова Н.А. – Қиличбозлик назарияси ва услубияти. – Тошкент 2011 й. Ўқув кўлланма I кисм. 116 бет

<sup>96</sup> Пўлатов Ш.А. – Тенисга ўргатишнинг анъанавий ва ноанъанавий технологиялари. – Тошкент 2007 й. Ўқув кўлланма. 6 бет

Yuqori malakali ustalarning sport tayyorgarligi tizimida alohidalash tamoyili bajarilayotgan texnik-taktik harakatlarning kurashchi alohida xususiyatlariga qat’iy mos kelishini taqazo etadi. Texnik-taktik harakatlар tuzilmasi uning morfologik xossalari, jismoniy rivojlanganligi, funksional imkoniyatlari, ruhiy tayyorgarligiga javob berishi lozim. Sport morfologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar (E.G.Martirosov, 1968; YU.A.Morgunov, 1974) shuni aniqladiki, gavdaning ma'lum bir total o'chamlari va nisbatlariga ega bo'lgan kurashchilar ba'zi usullarni muvaffaqiyatliroq bajaradilar.<sup>97</sup>

Sport kurashining xususiyatlarini, sportchining individual qobiliyatlarini va ularning texnik-taktik tayyorgarliklarini hisobga olgan holda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini maqsadga muvofiq qo'shib olib borish yuksak sport mahoratini ta'minlaydi.<sup>98</sup>

Yuqori malakali kurashchilar kurashda mustahkamlikni mohirlik bilan saqlab turadilar. Shuning uchun usulni bajarish uchun qulay dinamik vaziyat paytini tutib olish qiyin.<sup>99</sup>

Sport kurashi sohasida nazariy ishlar va ilmiy izlanishlar olib borilgan, lekin ayni soniyada bajariladigan vazifalarga chuqurroq kirish vazifalari kam uchraydi.

Sport mashg'ulotlari tuzilishi muammolari ahvolini tahlil qilishdan ma'lum bo'ldiki, sport kurashi harakat qobiliyatlarining turli, Ya'ni jismoniy va texnik – taktik tomonlarini dinamik va proporsional – prinsipga muofiq takomillashtirish hamda rivojlantirish muammolarini yechish bo'yicha hozirgi davrga kelib katta nazariy zamin yaratildi.

Endi sport kurashi murabbilarini amaliy bilimlarini nazariy bilimlar bilan solishtirib o'zları uchun kerakli yangi ma'lumotlarga, Ya'ni o'rgatish uslublariga ega bo'lishlari mumkin.

<sup>97</sup> Tastanov N.A. – YUNON-RIM KURASHI NAZARIYASI VA USLUBIYATI Toshkent 2014 y. 215 bet

<sup>98</sup> Атаев А.К. – Ёш - ўсмурларга ўзбек курашини ўргатиш услубияти. Тошкент 2005. Ўкув кўйланма. 24 бет

<sup>99</sup> Керимов Ф.А. – Спорт кураши назарияси ва услубияти. Тошкент 2001 й. Дарслик. 80 бет

Keyingi paytlarda asosiy harakat qobiliyatlarini texnik mahorat darajasiga qarab baholash, Ya'ni kuch, tezkor – kuch, chidamkorlik sifatlarining miqdori ko'rsatkichlari ishlab chiqildi va ilmiy tarzda asoslab berildi.

Asoslangan har bir ilmiy ish zamirida albatda amaliy tajriba yotadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu ilmiy – amaliy ko'rsatmalardan sport kurashchilarini mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va boshqarishda foydalanish sportda yuqori natijalarga erishishda katta samara beradi.

Kurash sohasidagi adabiyotlar o'z ichiga juda ko'p nazariy va amaliy o'rgatish uslublarini oladi, bu shu soxadagi qilingan ishlarning ko'pligini bildiradi.

Adabiyot manbalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, shuncha ko'p ilmiy uslubiy zamin bo'lishiga qaramasdan, hozirga qadar mashg'ulotni yangi boshlagan past malakaliy sportchilar uchun nagrutzkalarning hajmi va shiddati nisbatlari darajasi yetarlicha o'rganilmagan.

Mashg'ulot jarayonini haqiqatdan jadallashtirishda mashg'ulotlarning turli bosqichlarda nagrutzkalar hajmi va shiddat darajalarini bilish bilan chegaralanmasdan, kurashchilar harakatini turli nisbatlarini inobatga olgan holda asosiy mashg'ulot o'chovlarini qo'llashning usuli va san'atini bilish juda ham muhimdir.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, kurashchilarini natijalari va harakat qobiliyatlarini nisbatlari bo'yicha tajribalar o'tkazilmagan. Ushbu dolzarb masalalarni jiddiy tarzda o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish bolalar va o'smirlar sport mifiktablarida kurashchilarini tayyorlashda o'z samarasini beradi.

### 3.6.1. Yunon-rim kurashchisining texnik-taktik mahoratini oshirish yo'llari

Yunon-rim kurashchisining texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo'ladi.

Yunon-rim kurashi texnikasi – kurashchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab hisoblanadi.

beradi. Kurashda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Yunon-rim kurashchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanishlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatlari bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Yunon-rim kurashchisining har tomonlama texnik tayyorgarligi – turli sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Mustahkam egallah uchun texnik harakatlarni tanishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- amaldagi musobaqa qoidalarida qaysi bir texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblansa, o'sha texnik harakatlarni egallah;
- texnikaning hamma turlari ichidan sportchinining alohida xususiyatlariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalanishlarning variantlarini egallah;
- asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;
- avval o'rganilgan usullar va qarshi usullarni qo'llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo'lgan texnik harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish;
- kurashchi zahirasida mavjud bo'lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog'lanishlarda qo'llash mumkin bo'lgan texnik harakatlarni o'rganish;
- harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo'lgan harakat texnikasiga o'rgatish lozim; bu kelgusida qayta o'rganishdan xolis qiladi;
- kerak bo'lmanган harakatlar va ortiqcha mushak zo'riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallah;
- usullarga o'rgatish vaqt oralig'ida jamlangan bo'lishi zarur, chunki mashg'ulotlar mashg'ulotlari orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta'sirini pasaytiradi. Boshqa tomonдан, bitta mashg'ulotlar

darsi davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiyinchilikni yengib o'tish bilan bog'liq;

– jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo'lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

Kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarish paytda harakatlanishdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo'lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish ko'p jihatdan texnik takomillashtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo'ladi.

Tasavvur qilingan raqib bilan olishuvda yunon-rim kurashi amallarini yoki tananing ayrim qismlarini ushlab olishni bajarishning taqlidiy mashqlari.

Umumo'siruvchi mashqlarning, texnik-taktik mashqlarini, jismoniy sifatlarni o'stirish mashqlarini, harakatli o'yinlarni bajarish: bir-biriga qarama-qarshi turib qo'llarni itarish; belbog'dan foydalanib har xil holatdan turlicha tortib olish; oyoq yordamisiz va oyoq bilan tashlanmasdan doira ichidan tortib chiqarish; turli jismoniy sifatlardan va irg'itishning eng oddiy turlaridan foydalanib komanda estafetasining turli variantlarini o'tkazish; qorin ustida yotgan holda qo'llar bilan tiz cho'kkani holda yunon-rim kurashchi, ichi to'ldirilgan to'pni egallah uchun, bir-birini ushlab olish uchun "xo'rozlar jangi" va boshqalar.

### 3.6.2. Yunon-rim kurashida tik turish holatidagi usullar.

Yunon-rim kurashida bellashuv tik turgan holatda va parter holatida olib boriladi. Mazkur holatda kurashchilar har xil hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarini amalga oshirishlari mumkin.

Tik turgan holatda – frontal, o'ng va chap tomonlama turish mumkin hamda ularning har biri yuqori, o'rta, past holatga bo'linadi. Kurashchilar ko'pincha o'rta va yuqori holatdagi tik turishda bellashuvni olib borishadi.

O'ng tomonlama tik turish holatida kurashching o'ng oyog'i chap oyog'iga nisbatan oldinda bo'ladi. Chap tomonlama tik turishda uning aksi, Ya'ni chap oyog'i o'ng oyog'iga nisbatan oldinda bo'ladi. Frontal tik turish holatida – kurashching oyoqlari raqibga nisbatan bir chiziqda bo'ladi.

Bunda kurashchi raqibiga nisbatan yaqinlashgach har tomonga burilish mumkin bo'lgan holatni shakllantiradi. Raqibni o'ngga, chapga, yelka ustidan oshirib ag'darish holatini shakllantirishi mumkin. Unda kurashchi raqibiga nisbatan  $90^{\circ}$  yoki  $270^{\circ}$  burilishni tez harakat bilan amalga oshiradi. Uriish tezlik bilan amalga oshirilib, raqibni o'z oldiga tashlaydi. Unday burilib tashlashni amalga oshirishda asosiy holatlardan biri – bu kurashchi o'z boshining holatini va o'z og'irligini raqibini ag'darayotgan tomonga qaratishi kerak bo'ladi. Burilish orqali raqibini ag'darmoqchi bo'lgan kurashchi raqibi bilan yaqinlashib ushslashni amalga oshirishgacha raqibiga nisbatan  $270^{\circ}$  burilishni amalga oshirgan bo'lishi kerak. Bunday harakatni amalga oshirish kurashchidan oddiy turgan holatdan burilish orqali raqibni ag'darish holatiga o'tishi uchun katta tezkorlikni talab qiladi.

O'rta masofada ag'darish holatini vujudga keltirishda kurashchi raqibiga yaqinlashib usulni amalga oshirishda  $180^{\circ}$  burilishni amalga oshirish orqali hujum qilib, raqibga nisbatan tik turgan holatda bo'ynini o'ng qo'l bilan qisib olib yelkadan oshirib tashlash, raqibni yerdan to'liq uzib amalga oshirishi yoki raqib bilan birga ag'darilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

#### ***Yunon-rim kurashida egilib tashlash usullari***

Bu usulni bajarishda kurashchi egilgan holatni qabul qiladi. Bu holatdan turib hujum qiluvchi kurashchi raqibini oldi va orqa tomoniga uloqtirishi mumkin. Bu holatda hujum qiluvchi egilib, Ya'ni bel orqali egilib umurtqa pog'onasining umumiyl holatini egilgan darajada ushslash orqali raqibga nisbatan hujumni amalga oshirish.

Bunday usulni qo'llash orqali g'alabaga erishishda raqibga nisbatan tezkor bo'lishni va usulni qo'llash uchun butun diqqatni qaratish, Ya'ni gavda holatini, usulni qo'lashga tez moslashtira olish, ushslashni tezlik bilan amalga oshirishni talab qiladi.

Egilib yiqitishni amalga oshirishda raqibning bo'ynini, qo'lini, gavdasini, qo'lni yelkasidan oshirib ushslash orqali amalga oshirish mumkin..

Bu holatdagi tashlashlarni gilamni ichida amalga oshiriladi. Unday usulni qo'lash uchun kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi talab darajasigi yetgan bo'lishi kerak.

#### **3.7. Yunon-rim kurashi taktikasi haqida asosiy tushunchalar**

Yunon-rim kurashchisining taktikasi – bu yunon-rim kurashida paydo bo'layotgan vaziyatni to'gri baholash va ushbu vaziyat munosabati bilan galabaga erishishi uchun eng samarali vositalar va usullarni tanlab olish qobiliyatidir. Buning uchun yunon-rim kurashi nazariyasi bo'yicha asosli bilim boyligiga; texnik amallar, kombinatsiyalarga ega bo'lish; jismoniy sifatlarni mukammallashtirish; fikrlar barqarorligi va tezkorligini egallash va doimo o'stirib borish. O'z ma'naviy iroda hamda psixologik sifatlardan to'gri foydalanishdir.

Umuman olganda, taktik mahorat o'ylangan rejani aniq bajarishga, kutilayotgan yoki nazarda tutilmagan chetga chiqish hollarida vaziyatni tezda baholash va eng samarali qaror va harakat topishga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning boy xazinasiga asoslanadi.

Taktik tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- taktika haqidagi umumiyl tushunchani o'rganish. Taktika bo'yicha bilimga ega bo'lish maxsus adabiyotlarni o'qish, leksiyalar eshitish, suhbatlar o'tkazish, musobaqalarni kuzatib, borish yo'li bilan va shuningdek taktik mashg'ulotlar va tahlillar, topshiriqlar, olishuvlar jarayonida amalga oshadi;

- sport musobaqaqlari va qonuniyatlarini o'rganish. Buning uchun taktika usullarini, vositalarini va imkoniyatlarini bilish, eng kuchli yunon-rim kurashchilar tajribasini bilib borish va takomillashtirish zarur;

- mashq mashg'ulotlarida va musobaqalarda taktikaning elementlarini, usullarini, amallarini, variantlarini taktik qo'llashni o'rgatish.

Nazariy bilimlarni amalda qo'llash – taktik mahoratni takomillashtirishda eng muhim maslakdir.

– raqib kuchlarini, uning texnik, jismoniy, irodaviy tayyorgarligini, taktik arsenalini, musobaqalar o'tkazish variantlari va sistemasi texnik boyliklarini o'rganib chiqish;

– bo'lajak raqib kuchi va imkoniyatlarini hisobga olib, kelgusi musobaqa taktikasini ishlab chiqish.

Olingan aniq ma'lumotlar munosabati bilan taktik harakatlar olib borishning ma'lum javob sxemasi tuziladi.

– o'tgan musobaqa yoki olishuv tahlilini o'tkazish.

Mazkur musobaqalarga qo'yilgan taktik vazifalarni tuzilishi va amalga oshirilishi samaradorligini tahlil qilish va kelgusi uchun xulosa chiqarish.

Amalda asosan taktik harakatlar hujum harakatlarining ikki xil ko'rinishiga ega:

– oddiy hujum harakatlari; bunda hujum harakatlari darhol asosiy amalda boshlanadi

– murakkab hujum harakatlari – bunda yunon-rim kurashchi turli-tuman harakatlardan foydalanadi, Ya'ni birinchi harakatlar keyin keladigan harakatlar bilan hujum qilish uchun dinamik vaziyat yaratadi, ammo bularning hammasi yagona yaxlit usul sifatida uzlusiz bajariladi. Odatda murakkab hujum harakatlarining ikki xil ko'rinishi mavjud deb hisoblanadi: birinchisi qulay dinamik vaziyatni tayyorlashni maxsus usulini o'z ichiga oluvchi hujum harakatlari; ikkinchisi – avvallar kombinatsiyalaridan iborat bo'lgan hujum harakatlari.

Amaliy ishda murakkab hujum harakatlari tez-tez uchrab turadi. Ko'p mutaxasislar taktik tayyorgarlikni takomillashtirishga qanday va qancha vaqt kerakligi haqida savollar beradilar.

Texnik va taktik tayyorgarlikka vaqtning umumiylar sarflanishi yunon-rim kurashchilar malakasi ortishi bilan oshib boradi, biroq mashq qilishning umumiylar hajmi foiz hisobida kamayadi. Bunga sabab yunon-rim kurashching atletik tayyorgarligi va tezkorlikka chidamliligi darajasini oshirish zarurlidir.

Texnik-taktik tayyorgarlik holatini nazorat qilishning asosi quyidagilardir:

– hujum qilish va himoya harakatlari samaradorligini belgilash;

– hujumlar va himoya harakatlari faolligi;

– hujum va himoya harakatlari hajmi;

– hujumlar va himoya harakatlarining xilma-xilligi (turli tumanligi);

– paydo bo'lgan yoki endi bo'ladigan vaziyatni olib borish kengligi, harakatlarni bajarish uchun fikrlab tushinish tezligi, shuningdek, o'ziga xos qulay payt (vaziyat)lar yaratish.

Ko'p yunon-rim kurashchilar va trenerlari yunon-rim kurashining tez o'tishi va taktik vazifalarni tadbiq etish va bajarish uchun yunon-rim kurashchilarning emotsiyal holatdan noliydlilar. Shuni hamma vaqt esda saqlash kerakki, yunon-rim kurashchilar va trenerlarning yunon-rim kurashi vaqtida va umuman musobaqalarda qatnashuv vaqtida emotsiyal holatini boshqarish (o'z ifodasiga bo'ysundirish) ko'nikmasi salbiy emotsiyalarni jangovarlik qobiliyatiga ta'sirini pasaytiradi va ancha yuksakroq sport natijalariga erishish imkonini beradi.

Bunda asosiy vositalar o'ziga-o'zi buyruq berishlar, o'zini ishontirishlar, ideomotor tasavvurlar, umumiylar mashg'ulotlar (vazifalar)dir.

Tiklanish orqali raqibning belidan ushslash oqali uni muvozanatdan chiqarish orqali o'ng va chap tomonga ag'darishni amalga oshirish. Bunday usullarni amalga oshirishda ag'darilayotgan raqib yerdan to'liq ko'tarilish va tiklanish hisobiga yon tomonga ag'darilishi kerak bo'ladi. Bunday holatdagi tashlashni amalga oshirish uchun qo'l iloji boricha raqibning bel qismini to'liq qisib ushslash bilan orqali amalga oshiriladi. Bunday usllarni qo'llashni raqib gavdasining turli qismlarini ushslash orqali amalga oshirilishi mumkin.

### 3.7.1. Yunon-rim kurashida taktik tayyorgarlik

Yunon-rim kurashi taktikasi – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to'g'ri olib

borishda ma'lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan.

Yunon-rim kurashi taktik tayyorgarligining asosiy maqsadi sportchida musobaqada g'alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko'rsatish maqsadida sport bellashuvini to'g'ri tashkil qilish hamda clib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Sport taktikasini egallash jarayonida bir qator xususiy vazifalar hal qilinadi. Sportchi:

- musobaqa vaziyatini shunday qabul qilishi va tahlil qilishi lozimki, ushu hujum vaziyatdan kelib chiqadigan taktik vazifalarni tushuna bilishi hamda qisqa vaqt ichida uni xayolan va harakat bilan hal etishi zarur;

- musobaqada o'z kuchidan shunday foydalanishi kerakki, raqib ustidan g'alaba qozonish maqsadida, uni oxirgigacha safarbar qila olishi lozim;

- to'satdan o'zgarib qolgan vaziyatlarda bellashuv rejasini mustaqil o'zgartira olishi kerak.

Taktik tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

- taktik bilimlarga ega bo'lish;
- taktik ko'nikmalarни egallash;
- taktik malakalarga ega bo'lish.

Taktika vositalariga qat'iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan sportchilar harakatlari kiradi.

Kurashda taktika uchta asosiy bo'limlardan tashkil topadi:

- hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi;
- bellashuvni tuzish taktikasi;
- musobaqlarda qatnashish taktikasi.

Kurashda musobaqa faoliyatining tahlili hujumning ikkita turini aniqlab berdi: oddiy, qachonki hujum darhol asosiy usuldan so'ng boshlanadi, va murakkab, qachonki kurashchi ikkita yoki uchta turli xil harakatlarni qo'llaydi (birinchisi keyingi harakatlar bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratadi). Ularning ikkalasi to'xtovsiz, bir butun harakat sifatida bajariladi (N.M. Galkovskiy, 1971).

Murakkab hujum harakatlarining ikkita turini ajratish qabul qilingan:

- qulay dinamik vaziyatni tayyorlashning maxsus usuli va (u bilan o'zaro bog'liqlikda) hal qiluvchi usulni o'z ichiga oluvchi hujum;

- bir nechta usullardan iborat kombinatsiyali hujum. Ushbu hujum mantiqan bitta, sifat jihatdan yangi tuzilgan usul bo'lib, qulay dinamik vaziyat yaratuvchi boshlang'ich harakatni hamda bu vaziyatdan foydalaniladigan boshqa usulning yakuniy qismini o'z ichiga oladi.

### 3.7.2. Yunon-rim kurashida hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi

Hujum harakatini ma'lum bir usul bilan taktik tayyorlash murakkab usulning bir qismi bo'lishi lozim. Bunda u hujum usuli bilan uzlusiz ravishda bajariladi. Aldamchi harakatdan (shaxsan hujum bajarishni taktik tayyorlash-dan) murakkab hujum harakatining (MHH) hal etuvchi yakuniy harakatiga o'tish paytiga alohida e'tibor qaratish lozim. Turli hujum usullariga eng maqsadga muvofiq bo'lgan taktik tayyorgarlik usullarini tanlash lozim. Shu maqsadda kurashchilar taxminiy MHH bilan tanishgandan so'ng quyidagi topshiriqni oladilar: ma'lum bir usulga mustaqil ravishda taktik tayyorgarlik usullarini tanlash va ularni hujum usullari bilan MHHga birlashtirish (yangi MHHni o'ylab topish).

#### *Yunon-rim kurashida bellashuvni tuzish taktikasi*

Hozirgi paytda kurashchi tomonidan to'xtovsiz hujum bajariladigan taktika afzal hisoblanadi. Ushbu holda, hattoki agar u ballar bilan baholanadigan hech qanday hujum uyushtirmagan, uning raqibi esa faqat himoyalangan bo'lsa ham, unga ustunlik beriladi, raqib esa sustkashligi uchun ogohlantirish oladi.

Kurashchi to'xtovsiz hujumlar taktikasini qo'llash uchun o'z jamg'armasida taktik tayyorgarlikning turli usullari, ko'p sonli oddiy hujum harakatlari va MHHga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, bunday taktika yuqori darajada chidamlilikka ega bo'lishni taqozo etadi. Shu bilan birga u nisbatan tinch hamda

raqibni hujumga chorlash davrlari bilan almashtirib turilishi mumkin. Bunda kurashchi raqib hujumini qaytarishga tayyor turishi lozim.

Texnika taktikaning asosiy vositasi hisoblanadi. Muayyan taktikani tanlash ham usullar jamg' armasiga bog'liq. Ko'pincha u kurashchining jismoniy qobiliyatları: kuchi, tezkorligi, chaqqonligi bilan aniqlanadi. Ushbu sifatlardan biron birining yuqori darajada rivojlanganligi shu jismoniy sifatga urg'u bergen holda (hal etuvchi harakat bilan) taktikani tuzishga imkon yaratadi.

Bellashuvni olib borish taktikasi, asosan, raqib tayyorgarligi darajasiga bog'liq. Bellashuv taktikasini to'g'ri tuzish uchun, birinchi navbatda, raqibning qanday hujum harakatlarini qo'llashi, qanday himoyalanishi, uning jismoniy tayyorgarligi qandayligini bilish lozim.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida (R.A. Piloyan, V.T. Djaparaliyev, 1984) birinchi marta kurash bellashuvi tuzilmasini tashkil etuvchi va muayyan vazifalarni hal etishning turli usullari hamda vositalarini tavsiflovchi taktik harakatlar ajratildi:

– razvedka qilish – harakat kurashchilarining katta “aldamchi” faolligi bilan tavsiflanadi. Bellashuvning birinchi minutlarida manyovr olib borish aldamchi harakatalar, siltashlar, chorlash hisobiga amalga oshiriladi. Sifat tavsiflari (ro'yobga chiqish yoki chiqmaslik) keyingi harakatning amalga oshirilish darajasi bo'yicha aniqlanadi;

– hujumni amalga oshirish – ushbu harakat uchun oldindan aniq tayyorgarlik ko'rmasdan hujumning texnik usulini o'tkazish xosdir. Usulni bajarish vaqtin, aks holda – shunday tayyorgarlik vaqtin ham qayd qilinadi. Ikkala holda ham usulning tugash vaqtini yoki maqsadli ko'rsatmaning o'zgarish vaqtini qayd etiladi;

– qarshi hujumni amalga oshirish – maqsad bellashuvda raqibning hujum harakatlari paytida singari maxsus yaratiladigan sharoitlar vaqtida yuzaga keladi. Birinchi holatda kurashchi avval himoyalanish harakatini amalga oshiradi, so'ngra qarshi hujumni bajaradi. Ikkinci holatda kurashchi raqibni ma'lum bir ushlab olishga chorlaydi va keyin qarshi hujum harakatlari amalga oshiriladi. Birinchi holda himoyalanish harakatini tugallash-

vaqtidan boshlab to qarshi hujumning texnik usulini yakunlashga qadar, ikkinchi holda – chorlashni qo'llash paytidan boshlab to usulni yakunlash yoki maqsadli ko'rsatmani o'zgartirishga qadar bo'lgan vaqt oraliqlari hisobga olinadi;

– himoyalanishni amalga oshirish – himoyalanish harakatlari raqib tomonidan ma'lum bir hujum harakatini amalga oshirish uchun ushlab olish paytidan boshlanadi va himoyalanishni amalga oshirish yoki raqib tomonidan hujumni amalga oshirish bilan yakunlanadi;

– faollikni namoyish qilish – ushbu harakatni hal etish boshi va oxirgi birmuncha qo'shilib ketgan hamda kurashchining o'zidan tuzatish kiritishni talab qiladi. Lekin diqqat bilan tahlil qilganda ularni yetaricha aniq ko'rish mumkin. Faollik bilan siltashlar, itarishlar, aldamchi harakatlarning ko'pligi bilan tavsiflanadi.

Kurashchilar hujum usullarining boshlang'ich harakatlarini bajarayotgan paytlarida, odatda, usulni oxirigacha etkazmaydilar:

– ustunlikni ushlab qolish, Ya'ni kurashchi yutilgan ballar orqali ustunlikka erishgandan so'ng uni ushlab qolishi lozim. Bu taktik harakat shu bilan tavsiflanadiki, sportchi imkon qadar uzoq vaqt ichida raqibiga yutqazib qo'yilgan ballarni kamaytirishga xalaqit berishi zarur. Ushbu harakatni amalga oshirishda manyovr olib borish va hujum harakatlari keng qo'llaniladi, buning ustiga kurashchi asosan ushlab olishni amalga oshiradi hamda hakam bellashuvni to'xtatgunga qadar raqib harakatini cheklab qo'yadigan holatda turadi;

– kuchni tiklash – kurashchi, turtishlardan foydalanib, harakatlarni cheklab, manyovr olib borib, nafas olishni tiklashga va mushaklarni to'liq bo'shashtirib, ulardagi qon oqimlarini kuchaytirishga harakat qiladi. Bu holda ushlab olishlarga yo'll qo'ymasdan, raqibni uzoq masofada ushlashga intiladi;

– gilam chetida ushlab olishni amalga oshirish – hujum usuli bilan bajariladi, bunda usulni amalga oshirish uchun faqat ushlab olish bajariladi va bu ushlab olishda sportchi raqibni gilam tashqarisiga itarib chiqaradi. Qoidalarda o'zgarishlar bo'lganligi sababli bu harakatlarni qo'llash mumkin bo'ldi. Bu yerda, agar kurashchi raqibni ushlab olib, gilam tashqarisiga chiqsa, unga bu

harakati uchun yutuq balli yoziladi, raqib esa ogohlantiriladi. Bu topshiriqning boshlanishi usulni amalga oshirish uchun ushlab olish paytidan boshlab to uni tamomlagunga yoki hakam hushtagi chalinguncha qadar qayd qilinadi;

– xavfli holatni amalga oshirish – ushbu harakatni hal qilish boshlanishi va oxirgi bellashuvda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu xavfli holat paydo bo‘lish paytidan boshlab belgilanadi va “tushe” holati yoki raqib tomonidan xavfli holat bartaraf etilishi bilan tugullanadi;

– xavfli holatni bartaraf etish – vazifaning vaqt paramertlari (xavfli holatni amalga oshirilishidan oldin bartaraf etish) oldingi harakatdagi kabi yengil qayd qilinadi.

Musobaqa bellashuvining umumiyligi vaqtida ichida hisobga olinmaydigan va ma’lum bir maqsadli ko‘rsatmaning yo‘qligi bilan tavsiflanadigan maqsadsiz sarflangan (kurashchi sustkashligi va kutib turish holati bilan ifodalangan) vaqt oraliqlari ko‘p sonli ortiqcha harakatlar bilan ajralib turadi. Odatta, bu paytda sportchilar, raqibidan faol harakatlarni kutayotib, uning texnik rejasiga bog‘liq holda bo‘ladi.

Trenirovka jarayoni mazmunining tahlili shuni ko‘rsatadi, kurash bellashuvi tuzilmasini tashkil etuvchi taktik harakatalarga yetarlicha ahamiyat berilmaydi. Trenirovkalarda hujum, qarshi hujum va himoyalanish harakatlariga katta qiziqish borligiga qaramasdan, ularning musobaqalardagi samaradorligi katta emas. Buning sababi shundaki, sportchilar trenirovkalarda taktik tayyorgarlik usullaridan ajralgan holda, o‘tkazilgan usuldan so‘ng xavfli holatni amalga oshirish sifatida taktik harakatni kiritmasdan hujum, himoyalanish va qarshi hujumlarni amalga oshirish malakalari hamda ko‘nikmalarini takomillashtiradilar.

Turli malakali kurashchilar tomonidan olib boriladigan kurash xususiyatlarini tavsiflovchi va alohida harakatlarning bellashuv minutlari bo‘yicha taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkich bellashuv davomida kuchning to‘g‘ri taqsimlanganligi to‘g‘risida fikr yuritishga imkon beradi.

Yanada yuqori malakaga ega bo‘lgan kurashchilarda alohida harakatlarning minutlar bo‘yicha taqsimlanishida ma’lum bir

qonuniyat kuzatiladi. Bellashuvning birinchi minutlarida – razvedka, hujum, himoyalanish; ikkinchi minutida – hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish qilish; uchinchisida – kuchni tiklash, gilam chetida ushlab olishlar, himoyalanish, qarshi hujum; to‘rtinchisida – hujum, qarshi hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish qilish, himoyalanish; besinchisida – hujum, qarshi hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish qilish, himoyalanish; oltinchisida – ustunlikni ushlab turish, qarshi hujum.

Yunon-rim kurashidagi musobaqa bellashuvlari yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, yuqori malakali sportchilarga qo‘llaniladigan usullarning turli-tumanligi hamda ularni bellashuv davomida oqilona almashtirib turilishi yuqori malakali sportchilar uchun xosdir.

Ushbu aytilgan fikr kurashchilar taktik tayyorgarligini individuallashtirish muammosiga boshqacha yondashishga imkon beradi. Buning uchun sportchining jismoniy va ma’naviy kuch sarflab g‘alabaga erishishga yordam beradigan hamma harakatlar to‘plamini egallashi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yunon-rim kurashchisining hamma o‘nta harakatlarni hal eta olish va ularni bellashuv davomida to‘g‘ri joylashtira olish malakasi uning bazaviy individual tayyorgarligi bo‘lib hisoblanadi.

Shuning uchun taktik tayyorgarlikni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni uchta yo‘nalishda olib borish lozim:

– kurashchilarni ular avval egallamagan harakatlarga o‘rgatish;

– kurashchining ruhiy, morfologik va jismoniy xususiyatlarini hisobga olib, har bir harakatni amalga oshirishning eng oqilona vositalari hamda usullarini tanlash (harakatning operatsiya tarkibi);

– raqib xususiyatlariga qarab, bellashuv davomida taktik harakatlarning turli kombinatsiyalarini shakllantirish.

Birinchi ikkita vazifani hal etish uchun quyidagi uslubiy usullarni qo‘llash mumkin:

– darsning tayyorlov qismiga, umumiyligi rivojlantiruvchi mashqlardan tashqari, kurashchining tez o‘zgaradigan o‘yin vaziyatida taktik vazifalarni o‘z vaqtida hal etish qobiliyatini

rivojlantirishga yordam beradigan ishorali va o‘yin mashqlarini kiritish;

– qo‘l kaftini raqibning oyoq kaftiga tekkazish uchun kurashish: kurashchilar just-just bo‘lib, gilam ustida harakatlanadilar. Bunda ular raqib tovoniga qo‘l tekkazishga intiladilar va bir vaqtning o‘zida o‘z tovonlariga raqibning qo‘li tegmasligiga harakat qiladilar. O‘yin paytida hamma taktik usullardan: manyovr olib borish, xavf solish, siltashlar, aldamchi harakatlardan foydalanish mumkin. Bu mashq kurash bellashuvining murakkab, tez o‘zgaradigan vaziyatlarida diqqatni bir yerga to‘plash va mo‘ljal olish qobiliyatini rivojlantiradi. Uni razvedka qilish, kuchni tiklash, faollikni namoyish qilish vazifasini hal etish vositasi sifatida qo‘llash mumkin;

– “Quvlashmochiq” o‘yini. Yunon-rim kurashchilar oyoq uchi bilan raqibning oyoq kaftiga tepishga harakat qiladilar, bunda ularning qo‘llari orqada turadi. Bu mashq ham diqqatni jamlashga yordam beradi va kurashchilarda harakatlarni raqibidan ilgari bajarish qobiliyatini hosil qiladi;

– raqib qo‘lini qayirib qo‘yish uchun kurashish. Kurashchilar just-just bo‘lib raqibning bir yoki ikkita qo‘lini shunday ushlab olishga intiladilarki, raqib uzoq vaqt ichida qo‘llarini bo‘sata olmasligi lozim. Bu mashqda siltashlar, muvozanatdan chiqarishlarni qo‘llash mumkin. U kurashchini ustunlikni saqlab qolish va raqibning kuch bilan ta’sir ko‘rsatishiga qarshilik qilish vazifasini hal etishga tayyorlaydi;

– hududiy ustunlikka erishish uchun kurashish. Kurashchilar gilamning ma’lum bir qismida joylashadilar va belgilangan joydan bir-birlarini tashqariga itarib chiqarishga harakat qiladilar. Bunda hamma taktik usullardan foydalanish mumkin. Bu mashq kurashchilarda raqibning turli aldamchi harakatlariga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantiradi. U gilam chetida ushlab olishni amalga oshirish, faollikni namoyish qilish kabi vazifalarni hal etish vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

O‘quv-tre nirovka mashg‘ulotining asosiy qismida taktik vazifalarni hal etish vositalari va uslublarini topshiriqli uslubni qo‘llagan holda o‘rganish hamda takomillashtirish, shuningdek,

jahoning eng kuchli kurashchilari bellashuvlarini videoyo zuvlarini tomosha qilish hamda tahlil etish tavsiya qilinadi. Bir vaqtning o‘zida kurashchilar yo‘l quygan xatolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida ularning bellashuvlari tahlil qilinadi. Kurashchilar qancha ko‘p vositalar va uslublarni o‘rganib chiqsalar, ularni musobaqa bellashuvida shuncha to‘g‘ri, tez hamda samarali qo‘llay oladilar, turli malakali kurashchilarning musobaqa bellashuvlarini tahlil etish qobiliyatini rivojlantirish bilan esa sportchi notanish vaziyatdan to‘g‘ri yo‘l topib chiqib ketishi mumkin.

Yunon-rim kurashi mashg‘ulotilarini o‘tkazish jarayonida kurashchilar quyidagi vazifalarni o‘z oldilariga qo‘yishi kerak: raqib maqsadi, yuzaga keladigan vazifalarni hal etish usullari, raqibning bellashuvdagagi xatti-harakatlarini aniqlash uchun razvedka qilish. Razvedkani chorlash, aldamchi harakatlar, aldashlar bilan o‘tkazish mumkin.

Yunon-rim kurashi mashg‘ulotlari davomida bellashuvni olib borish vositalari va uslublarini takomillashtirishni quyidagi uslubiyat orqali amalga oshirish mumkin: muayyan harakatni bajarish maqsadini tushuntirish; jahoning kuchli kurashchilari bellashuvlarining videomagniton yozuvini tahlil qilish hamda shunga muvofiq kelgusida bellashuvni olib borish vositalari va usullarini taulash, kurashchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni bartaraf etish. Har bir muayyan vazifani hal etish vositalari va uslublarini o‘rganish hamda takomillashtirish; o‘quv-tre nirovka bellashuvlar davomida harakat malakasini takomillashtirish.

O‘quv-tre nirovka bellashuvlarini shug‘ullanuvchilar malakasiga muvofiq holda olib borish lozim. Misollar keltiramiz.

1-vazifa. Maqsadni va raqibning unga erishish vositalarini aniqlash (ko‘pi bilan ikkita ball yutqazish bilan). Ikkinci kurashchi bellashuvda g‘alaba qozonish topshiriq oladi. Vositalar: xavf so!ish, chorlash, muvozanatdan chiqarish, himoyalanishlar, qarshi hujum. Maqsad: razvedka qilish harakatini takomillashtirish. Bellashuv formulasi: bir minutdan ikkita davr. Kurashchining bellashuvdan keyingi hisoboti baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

*2-vazifa.* Birinchi kurashchi “sof” g‘alabaga erishishi yoki ma’lum bir miqdorda ballar to‘plashi, ikkinchisi – qarshi usullar yoki himoyalanishlarni (qanday harakat takomillashtirilayotganligiga qarab) bajarishi lozim. Masalan, birinchi kurashchi oyoqni ushlab olishni amalgal oshiradi, bosh tashqarida. Tajriba o‘ikazayotgan trener buyrug‘i bilan har bir kurashchi o‘z vazifasini yechishga kirishadi. Ushbu bellashuvda hujum, himoyalanish va qarshi hujum harakatlari takomillashtiriladi.


Shunga o‘xhash vazifalar hamma taktik harakatlarni takomillashtirish uchun ishlab chiqilishi mumkin. Yuzaga keladigan vazifalarni hal etish vositalari va usullariga asosiy e’tibor qaratiladi. Bunda sportchilarning jismoniy sifatlari (kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik), texnik tayyorgarligi hisobga olinadi. Bundan tashqari, tajriba orttirish va taktik bilimlar darajasini oshirish maqsadida yuqori malakali kurashchilar tomonidan muayyan vaziyatlardan foydalanish vositalari hamda usullarining egallashanishiga ham alohida e’tibor beriladi.

Ko‘pgina mutaxassislarining fikricha, taktik mahorat ko‘p jihatdan tez o‘zgarib turadigan musobaqa vaziyatlarida to‘g‘ri yo‘l tutish qobiliyati bilan belgilanadi, shuning uchun yuqori sur’atda amalgal oshiriladigan ma’lum bir musobaqa vaziyatlarini mashg‘ulotlarga kiritish lozim. Bundan tashqari, yana shu narsa muhimki, kurashchi juda toliqkan vaziyatlarda ham taklif qilingan har qanday topshiriqni hal eta olishi lozim. Shuning uchun aynan shu narsa trenirovka jarayonida o‘z o‘rnini topishi lozim. Shuningdek bo‘y uzunligi har xil bo‘lgan raqiblar bilan kurashishda yuzaga keladigan vazifalarni hal eta olish malakasiga katta e’tibor berish zarur. Taktik mahoratni (turli musobaqa vaziyatlarini yoki bellashuvda paydo bo‘ladigan vazifalarni hal etish qobiliyatini) baholash mezoni bo‘lib hujum samaradorligi koeffitsienti xizmat qilishi mumkin.


N.M. Galkovskiy (1970) ma’lumotlariga ko‘ra, kurashchi musobaqalarda g‘alabaga erishish uchun 60% gacha hujum va himoyalanishlarni amalgal oshirishi lozim. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, sportchilar musobaqalarda g‘alaba

qozonishi uchun 70% gacha razvedka harakatlarini, 60% – ushlab olishlarni, 60% – faollikni namoyish qilishni, 100% – xavfli holatni amalgal oshirishi, 60% – qarshi hujum harakatlarini, 80% – ustunlikni ushlab qolishni, 80% – kuchni tiklashni, 100% – xavfli holatni bartaraf etishni bajarishlari lozim.


Uchinchi vazifani hal etish uchun, avval foydalilanigan uslubiy usullardan tashqari, darsning asosiy qismidan oldin kuchli sportchilar bellashuvlarini ko‘rish hamda bitta kurashchini ikkinchisidan farqlab turadigan o‘ziga xos belgilarni ajratgan holda tahlil qilish lozim. Aynan shunga asoslangan holda bellashuvni olib borishning taktik rejasini tuzish mumkin. Shundan so‘ng kurashchilar bellashuv rejasini tuzadilar, trenerga ma’lum qiladilar va turli kurash usulida o‘quv-trenirovka bellashuvini o‘tkazadilar. Bellashuv tugashi bilan uning tahlili o‘tkaziladi. Bellashuvda qaysi qulay vaziyatlar bo‘ganligi umumiy tahlil qilinadi masalan: 346–347–348–349-rasmlar.




346-rasm



347-rasm



348-rasm



349-rasm

346–347–348–349-rasmlarda bir vaziyatdan bir neshta usullar bajarish imkoniyati ko'rsatilgan

### 3.7.3. Yunon-rim kurashida qulay dinamik vaziyatlarda hujumni bajarish

Oqilona hujum harakatlari tuzilmasini egallash va takomillashtirish hali kurashchiga yuqori sport mahoratini ta'minlamaydi. Ushbu tuzilmalarni raqib bilan olishuvda qo'llay bilish lozim. Raqib ko'pincha tik turish holatida bo'ladi va ma'lum darajada mustahkamlikka ega bo'ladi. Bundan tashqari, kurash jarayonida raqib ko'p hollarda harakatda bo'ladi. U vaqtiga bilan muvozanatni yo'qotadi va tiklaydi (turli mustahkamlik darajasida bo'la turib), hujum qilayotgan kurashchini muvozanat holatidan chiqarishga va uning harakatlarini bartaraf etishga intiladi. Hujum qilayotgan kurashchi, u yoki bu usulni qo'llayotib, raqibning faol qarshiligiga duch keladi. Raqib, mushaklarini zo'riqtirib va gavda holatini o'zgartirib, hujum yo'naliishiga qarab, yengib bo'lmaydigan mustahkam burchakni hosil qiladi. O'zaro ushslashda turgan holda kurashchilar ko'pincha bir-biriga suyanadi va umumiyligi og'irlilik markazi ikkita gavdaning murakkab tizimini vujudga keltiradi. O'z gavdasi va raqib gavdasining

mustahkamlik darajasini hisobga olmaydigan kurashchida to‘g‘ri harakatlar har doim ham muvaffaqiyatl usulga olib kelmaydi. Yo‘nalishi bo‘yicha raqib mustahkamligining katta burchagi bilan mos keladigan usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Usulni raqib gavdasi mustahkamligining eng kichik burchagi tomonga bajarish lozim. Raqibning mustahkamlik darajasi amalda uning oyoqlari va gavda holati bilan aniqlanadi. Biroq kurash paytida raqib oyoqlar va gavda holatini juda ko‘p marta va tez o‘zgartirib turadi. U yoki bu usulni bajarish uchun qulay bo‘lgan holatlarni raqib juda qisqa vaqt ichida egallab turadi. Bunday holatlardan foydalanish shart. Hujum qilayotgan kurashchi oldida shunday vazifa turadi: ma’lum bir usul tuzilmasini (uning asosini) bajarish uchun qulay bo‘lgan ikkita gavda (hujum qilinayotgan – hujum qilayotgan) tizimining harakatlanish paytini tanlash harnda uni bajarishga ulgurish.

### 3.8. Yunon-rim kurashida texnik-taktik mahoratining yetakchililigi

Yuksak sport mahorati texnik-taktik tayyorgarlikni uzuksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ko‘pgina kurashchilar yirik musobaqalarda ko‘pi bilan 1–2 marta muvaffaqiyatl qatnashadilar. Odatda, bu ularning texnik-taktik mahoratining o‘sishi to‘xtab qolganligi bilan bog‘liq. Kurashda sport mahorati to‘xtovsiz yangilanib va takomillashtirib borilishi lozim. Afsuski, ba’zi kurashchilar takomillashtirish deganda ularda mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish deb tushunadilar. Ular muvaffaqiyatsiz bajaradigan hujum harakatlariga kam e’tibor qaratadilar. Texnik-taktik mahoratni takomillashtirish tamoyili mahoratning hamma tomonlariga birgalikda ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

Yuqorida bayon qilingan asosiy qoidalar kurashda yuqori sport natijalariga erishish bilan bog‘liq. Trenerlar shularni kurashchilarini tayyorlash va mahoratini takomillashtirishda hisobga olishlari lozim.

Pedagogik jarayon sifatida tashkil qilinadigan kurashchilarining sport trenirovkasida jismoniy tarbiya tamoyillari

va didaktik tamoyillar amalga oshiriladi. Sport trenirovkasining bu tamoyillari bilan bir qatorda boshqa tarbiya shakllarida yo‘q bo‘lgan o‘ziga xos qonuniyatlar mavjuddir. Ular sport trenirovkasining quyidagi tamoyillarida o‘z aksini topadi: mumkin qadar maksimal natijaga yo‘naltirish, ixtisoslashish va individuallashtirishni chuqurlashtirish, sportchining umumiy va maxsus tayyorgarligi birligi, trenirovka jarayonining o‘ziga xos uzuksizligi, trenirovka nagruzkalarini oshirib borishda ketma-ketlik hamda chegaralilik birligi, nagruzkalar dinamikasining o‘ziga xos betakror to‘lqinsimonligi, trenirovka jarayonining musobaqa-nisbatlashgan siklliligi (L.P. Matveyev, 1991).

O‘smir yoshdagagi jismoniy tayyorgarlik to‘g‘ri qaddi-qomatni, harakatlanish malakalarini shakllantirish, har tomonlama jismonan takomillashtirish, kurashda texnik harakatlarni egallash uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

12–14 yoshda tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. 15–16 yoshdagagi o‘smirlarda kuch rivojiana boshlaydi va tezkorlik kuch mashqlarini bajarishga qobiliyat namoyon bo‘ladi. 16–18 yoshda ko‘p kuch va tezlik talab etiladigan mashqlar osonroq o‘zlashtiriladi, chidamlilikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. O‘smir kurashchilarini tayyorlashda shularni e’tiborga olish juda muhimdir.

Chidamlilikni boshqa jismoniy sifatlar bilan birga rivojlantirish zarur. Professor V.P. Filinning (1980) ta’kidlashicha, bu yoshda chidamlilikka qaratilgan uzoq vaqt davom etadigan va bir tomonli trenirovka o‘smirlarga xos bo‘lgan tezkorlik nagruzkalariga moslashishni pasaytiradi.

Yunon-rim kurashi sport turida asosiy maqsad raqibni mag‘lubiyatga uchratish hisoblanadi. Musobaqa vaqtida kurashchilar mag‘lub qilish uchun tajavvuskor harakatlarini amalga oshirib, ko‘p ta’sir ko‘rsatadilar. Shuning uchun ham ko‘plab tajribali va mohir kurashchilar qiyin holatda ham raqibini mag‘lubyatga uchratadilar. Kurash sport turida yuksak mahoratga

ega bo'lish kurashchining champion bo'lishdagi asosiy qadamlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Biroq, yunon-rim kurashida sportchining taktikasi dastlab turlicha bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra kurashchilarning taxmiman 85% musobaqa vaqtida dastlab shu natijani ko'rsatgan. Shu tarzda dastlabki kirish taktikasini boshlab olishingiz lozim. Bu har doim musobaqadan 70% o'z ustingizda ishlab, taktikani o'zlashtirib olishingizga bog'liq. Kurash mavsumining o'rtalarida kurashchilar taxminan 5% oyoq harakatlariga sarflaydilar.

Yunon-rim kurashi sportida pastdan ko'tarib olish komponentlariga ko'p vaqt ketadi. Ularning kurash matida bajarish lozim. Bu hududda muvaffaqiyatlari hujum va qarshi hujumlar rivojlantirib boriladi. Yaxshi taktikali kurashchi oyoqlarini chiroyli harakatlantira oladigan bo'lishi lozim, shuningdek, raqibini himoyasini yorib o'ta olishi lozim.

Aynan shu vaqtida kurashchilar beixtiyor hujumni to'xtatib qayta himoyaga o'tishi va raqibiga yana hujum uyuشتirishni bilishi lozim.

Mashg'ulotning bu bo'limida hujum taktikasida pozitiv holatlarini nazorat qilish va hujumga qarshi himoyalanish strategiyalari keltirib o'tilgan.

Kurashda yaqin munosabatlar mashg'ulotlarda yuz beradi va raqibingizni qo'l harakatlariga qarshi turli harakatlarni sezishga o'rnatadi. Kurashchilar mashg'ulotlarda doimo boshlarini ko'tarib son, tirsak va tizzani bukish bilan boshlaydilar. Har bir mashg'ulotda bir kurashchi shergini ko'tarib otishi lozim.

Ta'kidlash joizki, hujumning mohiyati shundaki, kurashchi himoyalangan kurashchinig tanasini balandroqqa ko'taradi, uning boshidan harakatlanib himoyalangan kurashchi tomonga u bo'shashgan holatdan oldin, hujumchi kurashchi ikkilanmaydi, balki unumli faydalanim qoladi.

Oddiy xatolardan biri shuki, hujumchi kurashchi raqibini harakatlantira olmaydi, uning yelkasini ichkariga, Ya'ni raqibning yelkasini o'rtaligiga harakatlantirib, uni orqaga yiqitish imkonini ishlata olishi kerak.

Yunon-rim kurashchi o'z raqibining hujumlariga chap beradi. Bu unga muvozanatni saqlashga yordam beradi, shunday qilib u ularni mag'lub etish uchun kam kuch sarf qiladi.

Mos kelmaydigan yunon-rim gilami qulay usul yaratishi mumkin. Agar u o'ta tang bo'lsa, raqib uni ushlay olmaydi. Agar u o'ta keng bo'lsa, u ushlab olish uchun osondir. Agar yunon-rim kurashchisi talab etilgan choralarga javob bermasa, u kurasha olmaydi.

Yunon-rim kurashi musobaqalarida yunon-rim kurashchilari mahoratini sinash uchun amalga oshiriladi. Bellashuvlarda kurashchilar o'z raqiblarini ma'lum vaqt doirasida ko'tarish va yiqitish orqali bal to'plashadi.

#### *O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:*

1. Sport kurashida texnik-taktik tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Kurashchilarni texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yichi ilmiy ishlar olib borayotgan insonlar xaqida bilasizmi?
3. Sport kurashida taktik mahorat deganda nimani tushunasiz?
4. Sport kurashida musobaqa taktikasi deganda nimani tushunasiz?
5. Sport kurashida bellashuv taktikasi deganda nimani tushunasiz?
6. Yosh kurashchilarni texnik-taktik tayyorlash uslublari xaqida bilasizmi?
7. Kurashchilarning tik turib kurashish uslublari xaqida bilasizmi?
8. Kurashchilarda taktik mahoratni oshirish yo'llari xaqida bilasizmi?

#### *Tavsiya etiladigan adabiyotlar:*

- Atoev A. Kurash. O'quv qo'llanma. T., 1987.
- Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T., 2005.
- Nurshin J.M., Salomov R.S., Kerimov F.A. O'zbekcha milliy sport kurashi. T., 1993.

Salamov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma Toshkent – 2005.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2001.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2009.

Kerimov F.A. Kurash tushaman. T., 1990.

Kerimov F.A., Umarov M.N. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darlik. T., 2005.

Tastanov N., Abdiyev A., Boymurodov I. Greko-rimskaya borba. T., 2007.

Tasatnov N.A. – Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2014.

Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2015.

Welker W. (ed.) – The Wrestling Drill Book, 2nd ed. – 2013

Sayaka Torra. 2008 Olympian & 5th Degree Black Belt, East Bay Judo Institute.

Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent – 2017.

Tursunov Sh.S., Tashnazarov D.Yu. – Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent – 2017.

## MUNDARIJA

### KIRISH.....4

### I BOB. YUNON-RIM KURASHINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

|   |    |
|---|----|
| 1.10.Yunon-rim kurashi murabbiylarining kasb-pedagogik faoliyati.....                                 | 11 |
| 1.11.Yunon-rim kurashchilarini sport maktablarida tayyorlashning tashkiliy-uslubiy xususiyatlari..... | 13 |
| 1.12.Yunon-rim kurash turi bo‘yicha ta’lim tizimining tashkil qilinishi.....                          | 15 |
| 1.13.Yunon-rim kurashida yillik tayyorgarlik siklining rejasি   | 16 |
| 1.14.Yunon-rim kurashchilarini nazorat mashqlar kompleksi   | 19 |
| 1.15.Yunon-rim kurashchilarining nazariy tayyorgarligi.....   | 21 |
| 1.16.Yunon-rim kurashi murabbiysi olib boradigan tarbiyaviy jarayon.....                              | 22 |
| 1.17.Yunon-rim kurashchilarida tiklanish vositalari .....   | 28 |
| 1.18.Yunon-rim kurashchilarini amaliy mashg‘ulotlari uchun o‘quv dastur.....                          | 31 |

### II BOB. TEXNIK TAYYORGARLIK

|  |    |
|--|----|
| 2.1.Kurashchilar trenirovka jarayonida texnik tayyorgarlik...                                    | 35 |
| 2.2.Texnik harakatlarni amalga oshirishning urnumiy asoslari                                     | 38 |
| 2.3.Kurashchining texnik mahoratini oshirish yo‘llari.....                                       | 40 |
| 2.4.Yunon-rim kurashida texnik usullarni tasniflash,<br>tizimlashtirish va ularning atamasi..... | 43 |
| 2.4.1.Yunon-rim kurashining asosiy tushunchalari va<br>atamalari .....                           | 49 |
| 2.4.2.Yunon-rim kurashchining asosiy holatlari .....   | 51 |
| 2.4.3.Yunon-rim kurashchining texnik harakatlari.....  | 51 |
| 2.5.Yunon-rim kurashi bo‘yicha tik turgan holatdagi asosiy<br>harakatlar .....                   | 52 |
| 2.6.Yunon-rim kurashi bo‘yicha parter holatdagi asosiy<br>harakatlari.....                       | 53 |
| 2.7.Yunon-rim kurashida taktik harakatlar.....   | 55 |

|  |     |
|--|-----|
| 2.8.Parter holatidagi usullar.....                         | 58  |
| 2.9.Yunon-rim kurshidagi asosiy holatlar .....             | 59  |
| 2.10.Parter holatidagi texnik usullarning bajarilishi..... | 72  |
| 2.11.Tik turgan holatdagi o'tkazishlar.....                | 108 |

### **III BOB. YUNON-RIM KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK MAHORATLARINI OSHIRISH USLUBIYATI**

|  |     |
|--|-----|
| 3.1.Yunon-rim kurashchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari .....                                       | 163 |
| 3.2.Sport kurashida texnik tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy nazariy va amaliy tavsiyalarning ahamiti ..... | 165 |
| 3.3.Sport kurashida taktik tayyorgarlikning ahamiti .....  | 174 |
| 3.4.Sport kurashida psixologik tayyorgarlikning ahamiti .....  | 181 |
| 3.5.O'smir yoshdagи kurashchilarining sport faoliyati .....  | 183 |
| 3.6.Kurashchilarning texnik – taktik mahorat to'g'risida tushunchalar .....  | 191 |
| 3.6.1.Yunon-rim kurashchisining texnik-taktik mahoratini oshirish yo'llari .....                                       | 197 |
| 3.6.2.Yunon-rim kurashida tik turish holatidagi usullar.....   | 199 |
| 3.7.Yunon-rim kurashi taktikasi haqida asosiy tushunchalar .....   | 201 |
| 3.7.1.Yunon-rim kurashida taktik tayyorgarlik .....  | 203 |
| 3.7.2.Yunon-rim kurashida hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi .....   | 205 |
| 3.7.3.Yunon-rim kurashida qulay dinamik vaziyatlarda hujumni bajarish.....   | 215 |
| 3.8.Yunon-rim kurashida texnik-taktik mahoratining yetakchililigi.....   | 216 |

**Tashnazarov D.Yu.**

# **SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH**

**Muharrirlar:**

A.Tilavov  
A.Abdujalilov

**Texnik muharrir:**

Y.O'rino

**Badiiy muharrir:**

I.Zaxidova

**Musahhiha:**

N.Sultanova

Nash.lits. № AI 245. 02.10.2013.

Terishga 10.10.2019-yilda berildi. Bosishga 07.11.2019-yilda  
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New  
Roman» garniturası. Shartli b.t. 14.0. Nashr b.t. 13.02.  
Adadi 200 nusxa. Buyurtma №77.

Bahosi shartnoma asosida.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Telefon: (371) 228-07-96, faks: (371) 228-07-95.